85.92(o)
O-11

NOZIM QOSIMOV



F[illegible]R [illegible]A IJROCHILIGI

CH000000003985

85 Ж (0)
11

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NOZIM QOSIMOV

FOLKLOR MUSIQA IJROCHILIGI

Bakalavriatning 5810500 – «Xalq ijodiyoti» (turlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma

4

Y-68433

TOSHKENT
«TALQIN»
2008

Mas'ul muharrir: **S.Yo'ldosheva** – professor.

Musiqa asarlari muharriri: **J.Shukurov** – O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, dotsent.

Taqrizchilar: **B.Sarimsoqov** – filologiya fanlari doktori, professor;
R.Tursunov – professor.

85.31
Қ61

Qosimov, Nozim.

Folklor musiqa ijrochiligi. Bakalavriatning 5810500 – «Xalq ijodiyoti» (turlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'l. / N.Qosimov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: «Talqin», 2008 – 192 b.

ББК 85.31я73

Mazkur o'quv qo'llanma folklor musiqa ijrochiligi janrining mustaqil yo'nalishlaridan bo'lgan o'zbek xalq laparlari va ularning ijrochiligi bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga oladi. Shular bilan birgalikda qo'llanmaga turli janr va xarakterdagi xalq qo'shiqlarining she'r hamda nota matnlari, shuningdek, folklor musiqa (jamoa) ijrochiligi fani bo'yicha uch variantli test savollari kiritilgan.

Ushbu qo'llanma madaniyat va san'at yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun mo'ljallangan. Undan, shuningdek, folklor-etnografik jamoalarining ish jarayonida ham foydalanish tavsiya etiladi.

ISBN 978-9943-325-40-1

© «Talqin» nashriyoti, 2008-y.

KIRISH

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan buyon ijtimoiy, siyosiy va madaniy-ma’rifiy jabhalarda katta o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. O‘zligimizni anglashga, qadim tariximizni o‘rganishga, ajdodlarimiz qoldirgan madaniy merosni asrab-avaylashga katta e’tibor berilmoqda.

Yurtimiz azaldan madaniyati, adabiyoti va betakror san’ati bilan mashhur bo‘lib kelgan. Hozirgi davr, ajdodlarimiz yaratgan ma’naviyat durdonalaridan xalqimizni har qachongidan ham ko‘proq bahramand etish uchun imkoniyatlar ochib berilgan davrdir. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov aytganidek: «Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo‘lmaganidek, o‘z tarixini bilmagan xalqning ham kelajagi bo‘lmaydi».

Xalqimizning musiqa boyliklari juda ko‘pqirrali, sermazmun va rang-barangdir. Ohangdor ajoyib kuylarimiz va folklor namunalari kishiga quvonch, xursandchilik bag‘ishlaydi, og‘ir damlarni yengil qiladi. U insonni oliyjanob fazilatlari, his va tuyg‘ularini ifodalab beruvchi kuchga egadir.

Shu bois respublikamizda o‘zbek milliy musiqa folklorini targ‘ib qilishda badiiy havaskorlik jamoalari alohida ahamiyat kasb etadi, zero, aksariyat ijrochilar o‘zlarining dastlabki poyqadamlarini ana shu jamoalardan boshlaydilar.

Puxta nazariy bilimlarga va amaliy ish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylangan. Respublikamizning folklor-etnografik jamoalari uchun oliy

ma'lumotga ega bo'lgan malakali rahbar-tashkilotchilarni tayyorlash ishiga poytaxtimizdagi Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda.

Fanning maqsad va vazifalari. Folklor musiqa ijrochiligi fani folklor-etnografik jamoalariga rahbarlar tayyorlash jabhasida maxsus va yetakchi fanlardan biri hisoblanadi. Folklor musiqa ijrochiligi mashg'ulotlari jarayonida talabalar tajribada folklor-etnografik jamoalari ishini tashkil qilishning asosiy omillarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Folklor musiqasi aniq va ko'rgazmalilikka ega bo'lgan, folklor musiqa ijrochiligi tajribalarini ijodiy umumlashtira oladigan, folklor-etnografik jamoasining ixtisosi bo'yicha mutaxassis yoshlarni tarbiyalashga taalluqli masalalarni o'rganuvchi hamda o'rgatuvchi fandir.

Bu masalalar jamoa ijrochiligi haqidagi quyidagi qoidalarni taqozo etadi, ya'ni folklor musiqa ijrochiligi:

– milliy musiqa madaniyatining muhim tomoni bo'lgan xalq qo'shiqlariga hurmat va muhabbat tuyg'usini tarbiyalaydi;

– xalq qo'shiqlarining tabiati hamda uning asosiy ijodiy va ijrochilik qonuniyatlari anglab olinadi;

– repertuar tanlash va ularni ijro etishda yuksak badiiy did shakllantiriladi;

– boshqa maxsus fanlardan olingan nazariy bilimlar tajribada mustahkamlanadi;

– bir xil tovush hosil qilishning usuli rivojlantiriladi, xalq tilida kuylashning o'ziga xos yo'llari, ashulachilik uslubining mahalliy viloyatlarga xos bo'lgan xususiyatlari o'rganiladi;

– chinakam xalqchil qo'shiqlar bilan bir qatorda talabalar o'zbek bastakorlarining xalq musiqa jamoalari uchun yaratgan asarlari, o'zbek bastakorlari qayta ishlagan xalq og'zaki ashulalari va ular yaratgan yangi asarlar bilan tanishtirib boriladi;

– mavjud folklor-etnografik jamoalari repertuarlari bilan tanishtiriladi va ularning ayrimlari o'rgatiladi;

– jamoaga amaliy rahbarlik qilish va uni tashkil etish malakalari o'zlashtiriladi.

Uslubiy tavsiyalar. Folklor musiqa ijrochiligi fani – bo'lajak folklor-etnografik jamoalari tashkilotchisi va rahbarlarini shakllantiruvchi asosiy fan ekanligi uchun, unga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lish zarurligini har bir talabaga uqtirib borilishi nihoyatda muhimdir.

Folklor musiqa ijrochiligi mashg'ulotlarini maxsus ixtisoslashtiruvchi folklor-etnografik jamoalar bilan ishlash uslubiyoti, marosim va udumlarni sahnalashtirish, folklor cholg'ularini o'rganish, folklor yakkaxon qo'shiq ijrochiligi, milliy raqs san'ati, xalq milliy o'yinlari, xalq tadbirlarida ssenariy va aktyorlik mahorati va boshqa ixtisoslik fanlari bilan chambarchas bog'lab olib borilganda ular muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin.

Folklor musiqa ijrochiligi mashg'uloti talabalarga g'oyaviy-estetik tarbiya berishning muhim vositasi hisoblanadi. U yuksak saviyali bo'lishi hamda g'oyaviy va xalqchillik shartlariga mos holda tanlanishi lozim. Mohirona tanlangan mashg'ulot ko'lami talabalarni ijodiy jihatdan o'stiradi, badiiy didini rivojlantiradi va kasbga bo'lgan muhabbatini yanada oshiradi.

Folklor musiqa ijrochiligi darsining ishi muayyan reja asosida bajariladi va u ayni paytda bitiruv malakaviy (ijodiy) ishining ham dasturi hisoblanadi. Bu dasturlar bitiruvchi kurs talabalari tomonidan tanlangan va ushbu fan o'qituvchilari ma'qullagan asarlardan tashkil topadi. Ijroga tavsiya etilgan asarlar orasida talabalarning o'zlari tomonidan notalashtirilgan, badiiy jihatdan yuksak bo'lgan o'zbek xalq qo'shiqlari va kuylari hamda folklor namunalari alohida tahsinga sazovor bo'ladi.

O'quv yili uchun dasturni tuzishda quyidagilarni hisobga olish lozim:

– kursning shu davrdagi soni va sifati, talabalarning ijodiy imkoniyatlari;

– ijro etiladigan asarlarning mavzu va janrlar bo'yicha xilma-xilligi.

Yillik dastur bir konsert bo'limidan oshmasligi lozim. Barcha asarlar o'qituvchi tomonidan shu o'quv yilida malakaviy (ijodiy) ish himoya qiluvchi talabalar o'rtasida taqsimlanadi.

Folklor musiqa ijrochiligi fanining o'qituvchisi umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. U kursning barcha ijodiy faoliyatlari va badiiy yuksakligini ta'minlashi, kuylashning asosiy usul va yo'llarini belgilab berishni ta'minlashi, zamonaviy xalq ijrochiligi tajribalarining talablariga javob bera oladigan ijrochilik mahoratini shakllantira olishi kerak.

Fan o'qituvchisining vazifasi asosan quyidagilardan iborat:

– kursning o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish va mashg'ulot jadvalini tuzish;

– mashg'ulotlarni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan barcha tashkiliy masalalarni o'z vaqtida hal etish;

– talabalarning malakaviy (ijodiy) ishlarini uyushtirish, o'quv yuklamalarining bajarilishini kuzatib borish (musiqa folklorini bilish va uning musiqiy-badiiy mazmunini to'g'ri ochib berish, kurs jamoasi bilan ishlashning uslub va yo'llarini aniq belgilay olish) va hokazolar.

Mashg'ulotlarning boshlanishida ovoz yuritish katta ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat xonandalar ansamblini sozlashda, balki ularning ovozlarini tarbiyalash, qo'shiq ijrochiligi mahoratini rivojlantirish, ovoz hosil qilishning o'ziga xos uslubini ishlab chiqishga yordam beradi.

Mashg'ulotning dasturi «improvizatsiya» (badiha) – topqirlik qilishdan foydalanish malakasini o'stirishni ham nazarda tutadi. Bu kuy jihatdan xilma-xil va qiziqarli bo'lgan ovoz yuritish malakalarining misolida talabalar tomonidan moslashtirilgan xalq qo'shiqlarining yozuvlari va ovoz sozlash uchun qulay bo'lgan o'zbek xalq og'zaki qo'shiqchiligi namunalari misolida amalga oshirilishi mumkin.

O'quv yili davomida kurs talabalari muntazam ravishda ijodiy chiqish ishlarini ham olib boradi. Bu, o'z navbatida, talabalarning ijrochilik mahoratini rivojlantirishga imkon beradi.

Folklor musiqa ijrochiligi fani o'quv rejasiga binoan sakkiz semestr mobaynida o'rganiladi. Mashg'ulotlar amaliy dars shaklida olib borilib, ustoz-shogird an'analariga amal qilgan va zamonaviy ilg'or musiqa ijrochiligi uslubiyotiga tayangan holda olib boriladi. Predmetni o'qitishdan asosiy maqsad talabalarda yuksak darajadagi ijrochilik mahoratini va rahbar sifatidagi xususiyatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni va har bir talabaning tayanch musiqiy bilimlarini inobatga olib, mashg'ulotlarni semestrlar bo'yicha quyidagi tartibda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Talabalarning boshlang'ich musiqiy tayyorgarlik darajasi o'qituvchi tomonidan aniqlangandan so'ng talabaning ijrochilik imkoniyatidan kelib chiqib, o'rganilishi lozim bo'lgan asarlar belgilanadi. Shu bilan birgalikda tanlangan asarlarning tarixi va umumiy ijrochilik tasnifi beriladi. Talabalarda boshlang'ich ijrochilik ko'nikmasi hosil etilgandan so'ng bosqichma-bosqich folklor-ijrochilik asarlari o'rganiladi. Asarlarni o'rganish jarayonida musiqa ijrochiligiga xos bo'lgan muammolar o'rganiladi. Talaba asarni musiqiy jihatdan tahlil etgandan so'ng ijro usuli va uslublari, dinamik qurilishi, tabiati, sur'atiga oid mashqlarni bajaradi.

Bosqichma-bosqich hosil bo'lgan ijrochilik ko'nikmalari rivojlantirilib, talabalar jamoasiga musiqiy jihatdan murakkabroq bo'lgan asarlar o'rgatiladi. Bundan maqsad asarlar ijrosi davrida talabaning ijrochilikka xos bo'lgan musiqiy eshitish qobiliyati o'stiriladi. Shuningdek, ijro texnikasiga oid murakkabliklarga xos bo'lgan mashqlar qo'llaniladi.

Semestrlar davomida asosiy e'tibor talabalarning jamoa ijrochiligi (ansambl) ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim bo'lgan ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratiladi. Shu bilan birgalikda asarlarni badiiy jihatdan puxta ijro etish yuzasidan ham qator mashqlar ustida ish olib boriladi. Har bir semestr yakunida folklor ijrochiligi janriga xos bo'lgan ijodiy dastur hisobot shaklida namoyish etiladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, aniq tashkil etilgan folklor musiqa ijrochiligi mashg'ulotining ijodiy ishi folklor-etnografik jamoalariga rahbar-tashkilotchi tayyorlashda va talabalarning har tomonlama kamol topishida muhim vosita hisoblanadi.

JANR SPETSIFIKASI

O'zbek xalq lirikasining janrlar tarkibi rang-barang bo'lib, ularning har biri voqelikni aks ettirish tarzi, usul va vositalari, obrazlar va badiiyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham, o'zbek xalq lirikasi ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilib kelinayotganligiga qaramay hamon yangi-yangi ilmiy-nazariy, ilmiy-ijodiy kuzatishlarni talab etadi. M.Alaviya, J.Qobulniyozov, K.Ochilov, O.Sobirov, S.Ro'zimboyev, B.Sarimsoqov, A.Musoqulov, Sh.Turdimov va boshqa tadqiqotchilar xalq lirik qo'shiqlari, mehnat va marosim qo'shiqlari ularning badiiyligi, obrazlar tizimi hamda ramziylik tabiati haqida diqqatga sazovor kitob, maqolalar e'lon qilishgan, dissertatsiyalar yozishgan. Shunga qaramay, o'zbek xalq lirikasining shunday janrlari borki, garchi qo'shiqlariga bag'ishlangan barcha ishlarda ular haqida yo'l-yo'lakay fikr yuritilsada, biroq hozirga qadar bu janrlar maxsus tadqiqot obyekti bo'lgan emas. Mana shunday janrlardan biri lapar bo'lib, mazkur janr haqida 20-yillardan buyon ayrim mulohazalar bildirilib kelinayotgan bo'lsa ham, ammo janrning o'ziga xos xususiyatlari to'la yoritilmagan.

Adabiyotshunos va yozuvchi Elbek o'zining «Laparlar» nomli maqolasida janrning uch muhim xususiyatini ko'rsatib, undan ayrim namunalar keltiradi. Elbek laparlarning ijro etilish o'rni, ijrochilar tarkibi va ijro tarzi haqida ilk bor fikr bildiradi. Uning ko'rsatishcha, laparlar qiz uzatish to'ylarida, ya'ni «qizlar bazmi»da, yigit va qizlar o'rtasida, aytishuv tarzida ijro etilgan. Prof. A.Fitratning lapar haqida bildirgan mulohazalari ham Elbekning fikrlaridan farq qilmaydi.

Lapar janri haqida taniqli folklorshunos M.Alaviya alohida fikr yuritgan. U janrning nikoh to'ylarida, «qizlar bazmi»da yigit va

qizlar o'rtasida dialog tarzida ijro etilishini ko'rsatadi. Bunday janr xususiyatlaridan tashqari M.Alaviya laparlarga xos yana bir muhim xususiyatni ko'rsatadi. Bu esa laparlarning voqebandligidan iborat.

Professor B.Sarimsoqov ham o'zining lapar haqidagi ishlarida janrning, asosan, yuqorida ko'rsatib o'tilgan xususiyatlari – ijro o'rni, ijrochilar tarkibi, ijro tarzi kabilar haqida to'xtalib o'tadi. Yuqoridagi qisqacha imliy satrdan ma'lum bo'ladiki, lapar janri, uning paydo bo'lishi, janrning o'ziga xos xususiyatlari, obrazlar tizimi, poetikasi va hozirgi holati maxsus tekshirishni talab etadigan dolzarb mavzulardan hisoblanadi.

Laparlarga xos janriy xususiyatlar xususida fikr yuritishdan oldin mazkur janrga yaqin turuvchi boshqa janrlar O'rta Osiyo xalqlarida ham bormi yoki ushbu janr faqat o'zbek folklorigagina xosmi, degan masala ustida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Nazariy jihatdan asrlar mobaynida yonma-yon yoki aralash holda yashab kelgan qardosh yoxud qardosh bo'lmagan xalqlar urf-odatlarida, marosim va bayramlarida, shuningdek, og'zaki ijodida o'xshash etnografik jihatlar, bir xil vazifa o'tovchi va bir xil badiiy xususiyatga ega bo'lgan janrlar mavjud bo'lishi qonuniy bir holdir. Mana shu jihatdan qaralsa, O'rta Osiyo hududida ko'p asrlardan buyon yonma-yon, hattoki aralash yashagan qozoq, qirg'iz, turkman, o'zbek, qoraqalpoq, tojik xalqlari urf-odatlari, marosimlari va og'zaki ijodida juda ko'p o'xshashliklar, ayni bir xil vazifa o'tovchi va bir xil badiiy xususiyatga ega bo'lgan janrlar mavjudligini ko'ramiz. Bu narsa mazkur xalqlarning o'zaro ta'siri oqibatida vujudga kelganligi hech kimga sir emas.

Mavzuimiz obyekti bo'lmish lapar janri, boshqa xalqlarda o'zgacha nom bilan yuritilib kelinayotgan ushbu janrning o'zgacha milliy shakllari O'rta Osiyo xalqlarining barchasida ham uchraydi. Bu narsa turli tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilgan haqiqatdir.

Taniqli qozoq adibi va olimi M.Avezov salt-dastur aytislari (marosim aytishuvlari) haqida fikr yuritar ekan, u nazarda tutgan va tahlil etgan poetik janr ijrochilar tarkibi, ijro tarzi, asar mazmuni va badiiy tuzilish jihatidan o'zbek laparlarining aynan o'zidan iborat.

Shunday fikr qoraqalpoq folklorshunoslarining ilmiy izlanishlarida ham ko'p marta e'tirof etilgan. Qoraqalpoq adabiyotida ayto's janrini professional shoirlar ijodidagi shakllarini tadqiq etgan K.Allambergenov mazkur janrning tarixiy asoslari marosim folkloriga aloqador ekanligini alohida ta'kidlaydi. Darhaqiqat, aytishuv janrining tarixi ildizlari juda qadimiy davrlarga borib taqalishi, hattoki, ushbu janr o'tmishda majoziy obrazlar o'rtasidagi muloqot shakllarida ham ijro etilganligini to'g'ri qayd etadi.

Lapar janriga mos keluvchi marosim aytishuvlari hattoki til nuqtayi nazaridan butunlay boshqa lisoniy oilaga mansub tojik marosim folklorida ham mavjudligini va bu janr ularda «badeha» deb yuritilishini akademik R.Amonov ham alohida tadqiq etgan. U yozadi: «Badeha, odatan az tarafi du kas dar ma'rakahoi xursandy: tuyu ziyofat, ya'ne dar huzuri tomoshobinon ijro meshavad».

Tarjimasi: «Badiha, odatda, ikki kishi tomonidan xursandchilik ma'rakalarida: to'y va ziyofatlarda, ya'ni tomoshabinlar huzurida ijro etiladi».

Uning haqli qayd etishicha, badihalarni ijro etuvchilar ikki jinsga mansub bo'lganlar, ya'ni yigit va qizlardan iborat. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, O'rta Osiyoda yashovchi xalqlar og'zaki ijodida o'zbek folkloridagi lapar janriga mos keluvchi maxsus janr mavjud va bu janr ayrim turkiy xalqlarda «ayto's» deb yuritilsa, ayrimlarida «badeha» deb ataladi.

O'zbek folklorshunosligida hozirga qadar «lapar» atamasining etimologiyasi (kelib chiqishi) haqida biror fikr uchramaydi. Shu bois ushbu atama anglatgan ma'no shu kungacha qorong'u bo'lib kelmoqda. Biz ham mazkur atamaning aniq entimologiyasini topish da'vosidan yiroqmiz. Lekin mutaxassislar o'rtasida ushbu masalaning yechimi masalasida fikr qo'zg'ash ma'nosida biz lapar atamasini tojik tilidagi «labbar», ya'ni biror gapga javob qaytarish ma'nosidagi so'zdan vujudga kelgan degan fikrni olg'a suramiz. Bunga quyidagicha asoslarimiz bor.

1. Turkiy tillarda tojik tilidagi lab so'ziga «burdan» fe'lining hozirgi zamon o'zagini qo'shish orqali javob qaytarish ma'nosini ifodalovchi «labbar» so'zi yasalgan. Biroq so'z o'rtasida ikkita jarangli «b»

o‘zaro reduksiyaga uchrab, ular o‘rnida yagona «p» tovushi qo‘llanila boshlagan. Natijada «labbar» so‘zi «lapar» shakliga kelib qolgan.

2. Bir xil vaziyatda, bir xil tarkibdagi ijrochilar tomonidan aytiladigan, bir xil badiiy shaklga ega va bir xil estetik vazifa o‘taydigan ayni bir janr ayrim turkiy xalqlarda «ayto‘s» deb yuritilgani holda o‘zbeklarda u lapar deb nomlanishi ham mazkur atamaning tarixi folklorimizda u qadar uzoq tarixga ega emasligidan dalolat beradi. Bunga sabab shundaki, o‘zbeklar tojiklar bilan doimiy aloqada yashab keladilar. Natijada, o‘zbek tiliga bevosita tojiklar bilan aloqada yashamagan qoraqalpoq, qozoq tillariga qaraganda tojikcha so‘zlar ko‘proq o‘tib o‘zlashgan. Lapar atamasining vujudga kelishi ham mana shu tarixiy aloqalar oqibati bo‘lsa ajab emas. Xullas, «lapar» atamasining etimologiyasi o‘zbek folklorshunosligida o‘zining yechimini kutib yotgan masalalardan biri bo‘lib qoladi.

Lapar janrining vujudga kelish masalasida ham folklorshunosligimizda turlicha qarashlar mavjud. Masalan, taniqli folklorshunos M.Alaviya: «O‘lan, lapar, yor-yor qadimda bir bo‘lgan. Keyingi vaqtlarda turli to‘y marosimlari, har joydagi kishilarning yashash sharoitlari bilan bog‘liq ravishda ular orasidagi tafovutlar kuchaygan. Ularning har biri to‘y marosimining ma’lum bosqichi bilan bog‘lanib qolgan va mustaqil qo‘shiq turiga aylangan», – deb yozadi. Professor B.Sarimsoqov esa lapar va o‘lan janrlarining tarixan aloqadorligini e’tirof etgan holda har ikki janrning yor-yor janri bilan aloqadorligiga qo‘shilmaydi.

Marhum professor H.Razzoqov o‘lan, yor-yor, lapar kabi to‘y marosim qo‘shiqlari haqida to‘xtalib, mazkur qo‘shiqlarning har biri mustaqil janr ekanligini qayd etib quyidagicha yozadi: Laparlar xalq qo‘shiqlarining bir turi bo‘lib asosan yigit-qiz o‘rtasida ijro qilinadi. Bu jihatdan laparlar o‘lanlarga o‘xshab ketsalarda, tematika, g‘oyaviy mazmuni, vazni va yengil musiqiyligi, o‘zidagi yumor-satira elementlarining o‘tkirligi bilan ulardan farq qiladilar.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda biz yor-yor, o‘lan va laparlar tarixan mustaqil janrlar sifatida yuzaga kelgan degan xulosaga keldik. Bunday fikrga kelish uchun biz quyidagicha asoslarga egamiz.

Birinchidan, o'lan ham, lapar ham, yor-yor ham to'y marosimining turlicha uzvlarida ijro etilib, o'zlariga xos vazifani ado etadilar. Masalan, yor-yor qiz uzatar kechasi ijro etilsa, lapar va o'lanlar «qizlar bazmi» da ijro etilgan.

Ikkinchidan, o'lanlar asosan o'tmishda ko'chmanchilik tarzini kechirgan chorvador o'zbeklar o'rtasida ijro etilsa, laparlar o'troq o'zbeklar o'rtasida aytilgan. Eng qizig'i shundaki, o'lan ijro etilgan joylarda lapar aytilmaydi va, aksincha.

Uchinchidan, har uchala janr ham bir-biridan farqlanuvchi o'zlariga xos ijro usuli, ijrochilari va badiiylik xususiyatlariga ega. Mantiqan yondashilsa, tarixan bir bo'lgan janr keyinchalik turli ijrochilar tarkibiga ega bo'lgan, turlicha mavzu va poetik xususiyatlar kasb etgan mustaqil janrlarga ajralib keta olmaydi. Bundan tashqari, bu janrlarning ijro etilish o'rni va vaziyatlari ham keskin farqlanadi. Demak, o'lan, lapar va yor-yorlar o'zbek to'y marosimining mustaqil janrlari hisoblanadilar.

Ma'lumki, badiiy so'z san'atida janrlarni tasnif etishning o'ziga xos tamoyillari mavjud. Ular so'z san'atining og'zaki va yozma shakllariga qarab farqlanadilar. Masalan, yozma adabiyotda janrlar hayotiy qamrov hamda poetik tizimning umumiyligi jihatidan farqlansalar, folklorda janrlar hayotiy qamrov, poetik tizim yaxlitligi, maishiy yo'nalganlik, ijro o'rni va shakli hamda musiqa bilan aloqadorlik kabi to'rt talab asosida farqlanadi. Binobarin, lapar janriga xos xususiyatlarni belgilaganda biz ham folklorshunoslikda umumiy e'tirof etilgan ana shu to'rt tamoyil asosida fikr yuritishga harakat qilamiz.

O'zbek xalq laparlariga xos xususiyatlardan biri va eng asosiysi sifatida mazkur janrning tarixan to'y marosimlari tarkibida ijro etilishini nazarda tutmoq lozim. Chunki janrning marosim bilan genetik aloqadorligi uning og'zaki ijod an'anasida juda ham qadimiy ekanligdan dalolat beradi. Demak, laparning asosan nikoh to'ylarining muayyan bir uzvida – qizlar bazmida ijro etilishi janrning tarixan mustaqil janr sifatida vujudga kelib, mustaqil taraqqiy etib kelayotganligini anglatadi. Qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz folkloridagi ayto's janrining tarixan marosim folklori, aniqrog'i, to'y marosimi

bilan bog'liqligi va asosan so'z mubohasasi shaklida kechishi, tojik folkloridagi badeha janrining ham ijro o'rni va bajaradigan vazifasi nuqtayi nazaridan lapar bilan bir xilligi lapar janrining tarixiy asoslari O'rta Osiyo xalqlari marosim folklorida birgina janrning turli nomlarda keng tarqalganligini ko'rsatadi. Bu xildagi to'y marosim folklori nafaqat O'rta Osiyo xalqlari og'zaki ijodida, balki Kavkaz xalqlari to'y marosimlarida ham uchrashini ko'plab tadqiqotchilar qayd etadilar.

Demak, yuqoridagi fikr-mulohazalardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, o'zbek to'y marosimlariga mansub lapar janri bilan ham g'oyaviy, ham badiiy jihatdan bir xil vazifa ado etuvchi janr O'rta Osiyo va Shimoliy Kavkaz xalqlarida ham qadimdan mavjud bo'lgan.

Janrning qadimiy oilaviy-maishiy marosim bilan aloqadorligi va turli xalqlarda turlicha nom bilan yuritilishidan qat'iy nazar, marosim tarkibida bir xil vazifa o'tashi o'zbek xalq laparlarining tarixan faqat marosimga qiziqarlilik va shodlik, musiqiylik va jonlilik bag'ishlabgina qolmay, balki o'ziga xos magik-ritual vazifa o'tayotganligidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, janrning ijro o'rni nikoh to'yidan bir kun oldin, hozirgi «qizlar bazmi» deb ataluvchi uzvida she'riy aytishuv tarzida ijro etilishi va ijrochilarning ikki jinsga mansub bo'lishi kuyov hamda kelin tomon o'rtasidagi tortishuv vazifasini o'taganligidan dalolat beradi.

Xalq laparlari matnidagi savol-javob xarakteridagi aytishuvlar, bu jarayonda so'zga chechanlik va hozirjavoblik qilish, marosim etikasiga rioya qilish kabi talablarni ado etish mazkur janrning tarixan to'y marosim tarkibida magik-ritual komponent tarzida vujudga kelganligini tasdiqlaydi.

Taniqli rus folklorshunosi V. YA. Propp folklor janrlarini tasnif etishda tanlangan asarning xossasini belgilash, bu xossaning barqarorligiga e'tibor berish, xossaning turlicha talqin qilishga asos bermaydigan yorqinligini nazarda tutish lozimligini ta'kidlaydi. Mana shu nuqtayi nazardan qaralsa, lapar janriga xos eng qadimiy va eng yorqin janr xususiyatlaridan biri sifatida uning nikoh to'ylari bilan bog'liqlikda vujudga kelib, bevosita shu bog'liqlikda yashab kelayotganligini ko'rsatish mumkin.

Uzoq davrlar o'tishi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumlarning o'zgarishi marosim folklori tabiatida ham o'z izini qoldirishi tabiiy. Bu haqida professor B. Sarimsoqov quyidagilarni yozganda to'la haqli: «Marosim folklori tushunchasi tarixan o'zgarib boruvchi tushuncha bo'lib, davrlar o'tishi natijasida uning janrlar sostavi o'zgarib – goh boyib, goh kamayib turadi». Biz bu fikrga to'la qo'shilgan holda shuni qo'shimcha qilib o'tishni lozim topamizki, davrlar o'tishi nafaqat marosim folklori janrlar tizimida, balki undagi ayrim janrlar tabiatida ham o'zgarishlar yasaydi. Ayrim janrlar mazmunida, ijro o'rni va tarzida muayyan kengayishlar vujudga keltirsa, ayrimlarida esa torayish, chegaralanish yuzaga keltiradi. Lapar janriga shu jihatidan qaralsa, keyinchalik uning ijro o'rni faqat nikoh to'ylari bilan chegaralanib qolmay, balki katta sayllar, bayram tantanalari yoxud o'tirishlarga qadar kengaydi. Ijrochilar nuqtayi nazaridan qaralsa, laparlar oddiy xalq vakillaridan tashqari professional san'atkorlar repertuariga ham o'tdi. Ijro tarzi jihatidan lapar ikki, uch yoki yakka bir ijrochi tomonidan ham aytiladigan bo'ldi. Ijro tarzi jihatidan u professional san'atkorlar tomonidan musiqa asboblari jo'rligida o'ynab ijro etiladigan bo'ldi.

Xullas, lapar janri va uning ijro etilishi o'rni qay darajada kengaymasin, uning tarixan ilk vujudga kelish o'rni to'y marosimlari hisoblanadi. Shuning uchun janrning eng barqaror ijro o'rni sifatida to'y marosimi hozirga qadar saqlanib kelmoqda.

Laparlarga xos janr xususiyatlaridan biri ularning bir-biriga zid ikki jinsga mansub kishilar tomonidan ijro etilishi hisoblanadi. Janr ijrochilari tarkibining bunday xususiyati ancha qadimiy bo'lib, u yaqin vaqtlargacha saqlanib keldi.

O'zbek folklorshunosligida xalq laparlari haqida yozilgan mavjud barcha maqola va kitoblarda janrning mazkur xususiyati borasida ham fikr bildirilmaydi. Mana shu holatdan kelib chiqib biz lapar ijrochilarining tarkibi haqida o'z mulohazalarimizni bildirishni lozim topdik.

Bizning nazarimizda, lapar ijrochilarining qiz va yigitlardan iboratligi dual jamiyat qoldiqlaridan iborat bo'lishi kerak. Chunki bevosita urug'chilik jamiyati davrida har bir qabila bir-biriga qiz berib, qiz oladigan ikki urug'ga va har bir urug' ham o'z ichida bir-biri bilan quda

bo‘lish huquqiga ega bo‘lgan ikki fratriyaga bo‘lingan. Bir fratriyadan qiz olish uchun kuyov tomon turli xildagi sinovlarni bajargan, turli xildagi to‘lovlarni to‘lagan. Mana shunday ritual sinov ko‘rinishlardan biri kelin tomonning qizlari bilan kuyov tomonidan kelgan yigitlarning o‘zaro so‘z va hozirjavoblikda bir-birlarini sinab ko‘rishi sanaladi. Darhaqiqat, qizlar bazmida, ya’ni asosiy to‘ydan bir kun oldin bunday lapar aytish udumi keyinchalik oddiy ko‘ngilxushlik va tomosha qilish maqsadida o‘tkaziluvchi an’anaviy odatga aylangan bo‘lsa ham, biroq urug‘chilik davrida u jiddiy ritual sinov vazifasini o‘tagan. Agar mana shu sinovda yigit tomon yengilsa, ilgari kelin va kuyov o‘rtasidagi oila qurish, ya’ni hozirgi til bilan aytganda, nikoh qilish to‘xtatilgan. Shuning uchun ham lapar aytishga kuyov tomon sho‘x, so‘zga chechan, hozirjavob yigitlarni yaxshilab tanlab olib kelishgan. Oqibatda, lapar aytishuvlari va ulardan ijro etiladigan to‘rtliklar mazmunan dramatizmga boy, kuchli his-tuyg‘ularga yo‘g‘rilgan bo‘ladi.

Lapar ijrochilarining bir-biriga zid bo‘lgan ikki jinsga mansubligi va lapar aytish jarayonining o‘zi ikki tomon o‘rtasida ritual sinov ekanligini o‘zbek to‘ylaridagi ko‘pgina udumlar ham to‘la tasdiqlaydi. Ana shulardan biri qipchoq urug‘lariga mansub aholi o‘rtasidagi kelinni olib ketishga o‘z jo‘ralari bilan kelgan kuyovni kelin turgan xonadonga olib kirish udumi mavjud. Ular bir-birlarining qo‘llarini ushlashadi. Mana shunda yigitni o‘z qarindosh ayollari, kelinni esa opa-singillari ikki tomonga qarab tortib, ularning qo‘llarini ajratishga harakat qiladilar. Shunda kuyov imkoni boricha kelinning qo‘lini bo‘shatmaslikka harakat qiladi. Ammo ko‘pchilikka bas kelolmagan yigit va qizning qo‘llari ajraladi. Udumning mohiyatidan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, kelin va kuyovning o‘zaro qo‘l ushlashlari va ko‘pchilik ikki tomonga kuch bilan tortganda ham kelin hamda kuyov qo‘llarining imkon boricha uzilmasligi bular o‘rtasidagi nikohning mustahkam bo‘lish ramzidan iborat.

Bundan tashqari, juda ko‘p joylardagi nikoh to‘ylaridan kelinni olib ketish uchun kuyovnavkarlar bilan kelgan kuyovni alohida yasatilgan uyga olib kirish paytida bo‘sag‘aga solingan poyandozni olish uchun astoydil tortishadilar. Chunki, har ikki tomon uchun ham poyandoz

tabarruk va izzat-nafs ramziga aylanadi. Mana shu narsani talashish ham o'zining tarixiy asoslari jihatidan ikki fratriya o'rtasidagi ritual kurashning qoldiqlaridan iborat. Binobarin, bo'lajak kelin xonadonida «qiz bazmi» oqshomida yigit va qizlar o'rtasida o'tkaziladigan lapar aytish ham ikki fratriya o'rtasidagi kurashning so'z va o'yin vositasida kechadigan shaklidan iborat deyishga to'la asos beradi.

Demak, lapar janriga xos eng muhim xususiyat yigit va qiz tomonlari o'rtasidagi talashishni aks ettirishdan iborat. Chunki ikki tomonning vakillari o'rtasidagi talashishning turlicha shakllari nikoh marosimida ishtirok etayotgan kuyov va kelinning do'st o'rtoqlariga xos jismoniy ustunlik, qilingan ahdda sobit turish hamda hozirjavoblik, hushyorlik, topqirlik kabi xislatlarni sinovdan o'tkazish shakllaridan iborat. Lapar janri bevosita mana shu jarayonda badihago'ylik bilan yaratilib, mana shu jarayonda ijro etilgan. Ma'lum bo'ldiki, ikki tomon vakillari o'rtasidagi lapar aytish jarayoni janrning tuzilishi, hayotiy qamrovi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini belgilovchi vositadir.

Yana bir masalaga biroz e'tibor berishga to'g'ri keladi. U ham bo'lsa, kuyov tomonidan qizlar lapar aytadilarmi yoki yigitlar, ya'ni ikki tomon vakillarining qaysi jinsga mansubligini aniqlab olishdan iborat.

Mazkur masalada ham o'zbek folklorshunosligida birorta fikr uchrata olmadik. Lekin bundan o'ttiz-qirq yillar muqaddam lapar aytishuvlarida bevosita ishtirok etgan keksa onaxon va otaxonlarimizning bergan ma'lumotlariga e'tibor bersak, lapar aytishuvlarida kuyov tomondan yigitlar ishtirok etgan bo'lsalar, kelin tomon ijrochilari esa so'zamol xotin-qizlardan iborat. Chunki yigit kishining sha'nini, obro'-e'tiborini faqat yigitlargina haqiqiy himoya etganlaridek, qiz bolaning ham obro'sini xotin-qizlar himoya qilganlar.

Bu o'rinda yana bir narsaga alohida diqqat etish kerak. U ham bo'lsa, lapar aytishlarni birinchi kimlar boshlab berganini aniqlashdan iborat. Darhaqiqat, lapar aytishlarni birinchi kelin tomondagi qizlar boshlab berganmi yoki kuyov tomonidan kelgan yigitlar boshlab berishganmi? Ushbu masala bo'yicha olib borgan so'rab-surishtirishlarimiz shuni ko'rsatadiki, keyingi paytlarda lapar aytishni ko'proq qizlar boshlab berishgan. Ammo lapar janri

bo'yicha ilk kuzatishlarni olib borgan Elbek materiallariga murojaat etish shuni ko'rsatadiki, lapar aytishni kelin tomon vakilasi bo'lmish kayvoni xotin boshlab bergan. Bu haqda Elbek quyidagilarni yozadi: «Lapar boshlash oldidan qizlar bilan yigitlar orasida turgan xotinlardan biri laparning boshlang'ichi bo'lgan quyidagi laparni aytib, ularni laparga undaydilar. Boshlang'ich lapar:

Laparning avval boshi marmar toshi,
Chit ro'molni ho'l qilgan ko'zning yoshi.
Chit ro'molim xosa-e, qo'limda chinni kosa-e,
Qizlar lapar aytganda yigitlar quloq solsa-e.

Laparni boshlab beruvchi xotin, bir-birining aytishini kutib turgan yigit va qizlarga dalda berib, ularni dadil aytishuvga kirishishga undaydi. Chunki mana shu boshlovchi to'rtlikdan keyin ikki tomon o'rtasidagi iymanish, hadiksirash va uyatchanlik chekinadi. Oqibatda, boshlama to'rtlik vazni, ohangi va maromida yo qizlar, yo yigitlar dadil lapar aytishga kirishib ketadilar. Bundan tashqari, Elbekning alohida qayd etishicha, boshlovchi xotin va uning yordamchilari lapar aytish jarayonini boshidan oxirigacha kuzatib, boshqarib boradi. Natijada lapar aytishda uyatli, ahloq-odob qoidalariga to'g'ri kelmaydigan so'z va ifodalardan qochiladi. Mabodo, ishtirokchilardan birortasi lapar aytish qoidalarini qo'pol buzsa, uyatli misralarni aytsa yoki navbatni qarshi tomonga bermay tartibni buzsa, ana shu ishtirokchi aytishuvdan chetlashtirilib, o'sha tomonni yutqizgan hisoblaydi. Bevosita boshlovchi xotin va uning yordamchilari nazorati ostida lapar kechalari juda maroqli va tartibli kechgan. Laparning boshlovchi bandi barcha yerda deyarli bir xil shakl va mazmunda uchraydi. Mana shunga qarab aytish kerakki, lapar aytish marosimi, unda ijro etiladigan to'rtliklar muayyan an'anaviylik qobig'ida kechadi. Masalan, barcha manbalarda boshlovchi banddan keyin yigit tomon to'rtliklar bilan lapar aytishni boshlaydi:

Lapar aytsang, to'yda aytgin, suluv qizlar qochar-o,
Ochilmagan gul g'unchani bulbul sayrab ochar-o.
Bulbulim, muncha sayrasin tog'u toshni to'ldirib,
Issiq-sovuq icharsan moy yurakni kuydirib.

Y-6843/3

Bu band Elbekda, B.Sarimsoqovda bir xil keltiriladi. M.Alaviya tomonidan tuzilgan «Oq olma, qizil olma» to'plamida esa uchinchi va to'rtinchi misralari biroz o'zgartirilgan shaklda keltiriladi. Masalan:

Ey bulubul, muncha sayraysan tog'u toshni uydirib.
Issiq, sovuq suv ichasan moy yuraging kuydirib.

Yigitlar aytgan laparga javoban qizlar quyidagi an'anaviy to'rtlikni aytishgan.

Ko'zam olib suvga chiqsam, oh urodir bir yigit.
Ko'zam qo'yib quloq solsam, yordan ayrilgan yigit.
Yordan ayrilgan yigitning yori men bo'lsammikan.
Qo'liga qirg'iy berib, ko'ksida jon bersammikan.

Mazkur band M.Alaviya hamda B.Sarimsoqov maqolalarida aynan keltirilsa, H.Razzoqov tuzgan «Gulyor» to'plamida alohida lirik qo'shiqlar tarzida, biroz o'zgartirilgan shaklda keltiriladi. Masalan:

Subhimda suvga chiqsam, oh urodi bir yigit,
O'ltirib holini so'rsam, yordan ayrilgan yigit.
Yordan ayrilgan yigitga oshno bo'lsammikan,
Bir piyola choy berib ham ko'nglini olsammikan?

Ushbu faktga duch kelganimizda, biz dastlab, professor H.Razzoqov lapar matnini alohida lirik qo'shiq sifatida keltiribdi, degan fikrga kelgan edik. Lekin keyingi izlanishlarimiz, ayniqsa, mohir lapar ijrochisi O'zbekiston xalq artisti R.Mazohidova singari professional san'atkorlardan bilishimizcha, lapar shunday lirik janr ekanki, u ijro davomida lirik qo'shiqlardan, terma qo'shiqlardan ayrim bandlarni o'z ichiga qamrab olar ekan. Bu narsa, albatta, ijrochilarning xalq lirikasi materiallarini bilish darajasi, ijro jarayonida ularni vaziyatga moslab kirita olish mahoratiga bog'liq ekan. Shu sababli ham ko'pgina o'lan janriga oid bandlar lapar aytiladigan joylarda lapar matni sifatida ijro etilaveradi.

Yuqorida aytilganlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, lapar mustaqil lirik janr sifatida maxsus ijrochilar tarkibiga, ijro etilish tartibi va usuliga ega.

Bundan tashqari, lapar mazmuniy qamrov jihatidan ochiq janr bo'lib, ijrochilarning bilim darajasi va lirik vaziyatga moslab ijro eta olish iqtidoriga qarab, lirik qo'shiq, o'lan, terma-qo'shiq kabi janrlarga xos matnlarni ham o'ziga sig'dira oladi. Mazmunan mana shunday keng qamrovlilik esa lapar janrining o'ziga xosligini ko'rsatadi.

Umuman, folklorning tabiatiga xos barqaror an'anaviylik va badihago'ylik (improvizatsiya) lapar janri uchun ham to'la taalluqlidir. Chunki folklor asarining asrlar osha avlodlardan avlodlarga yetib borishini ta'minlovchi an'anaviylik, folklor janrlari tarkibida doimiy yangilanishlarni ta'minlovchi badihago'ylik lapar janrining ham yaratilish, yangilanish va jonli yashashini belgilab beruvchi ikki muhim omil sifatida amal qilib keladi. Mana shu nuqtayi nazardan yondashilsa, o'zbek xalq laparlari matni ikki xil xarakter kasb etishini kuzatish mumkin.

Birinchisi – lapar ijrosi paytida bir-birlari bilan musobaqalashayotgan tomonlar javob tariqasida to'rtlik shaklidagi an'anaviy xalq qo'shiqlarini, o'lan parchalarini keltiraveradilar. Mana shuning uchun biz bunday laparlarni terma laparlar deb shartli ravishda nomlashni lozim topdik. «Oq olma, qizil olma» to'plamida keltirilgan aksariyat laparlar terma laparlarga misol bo'la oladi. An'anaviy boshlama to'rtlik aytilgach, yigit quyidagi to'rtlikni ijro etadi:

Daryoning naryog'ida bir tup g'o'za,
U g'o'zaning tagida oltin ko'za.
Jon yanga, jonim yanga, arzim sizga,
O'ynashga ruxsat bering qora ko'zga.

Mana shundan keyin qiz quyidagi to'rtlikni ijro etadi:

Oqqina kaptar boradi joyiga,
Ko'p oshiq bo'lmang birovning yoriga.
Ko'p oshiq bo'lgan birovning yoriga,
Osiladi oq podshoning doriga.

Lapardan keltirilgan ikki to'rtlikka diqqat qilinsa, ular o'rtasida chuqur mantiqiy aloqadorlik, mavzu jihatidan yagonalik kuzatilmaydi. Lekin lapar ijro etish vaziyati, har bir to'rtlikka o'z vaqtida javob qaytarish jihatidan ular terma laparni tashkil etadilar. Bundan kelib chiqadigan asosiy xulosa shundan iboratki, terma laparlarda har ikki tomon vakillari o'z vaqtida javob berish talabidan kelib chiqib, o'zlari bilgan to'rtliklarni keltiraveradilar. Bu narsa terma laparlardagi mavzu qamrovini kengaytiradi.

Terma laparlarda hukmronlik qilgan an'anaviylik ijroning an'anaviy to'rtlik bilan boshlanishi, javob tariqasida keltiriladigan to'rtliklarni ayni shu paytda, shu vaziyatda to'qilmay, balki xalq qo'shiqlari xazinasidagi an'anaviy tayyor to'rtliklarning keltirilishida ko'zga tashlanadi.

Mazkur laparlardagi badihago'ylik esa bir-birlariga javob tariqasida ijro etilayotgan to'rtliklarning ilgarigi aytishuvlarda qayd etilmagan favqulodda to'rtliklardan iborat ekanligida namoyon bo'ladi.

Ikkinchisi – laparlarning yagona bir mavzuda, doim takrorlanib keladigan matnlarga asoslangan shakli. Bunday laparlarni biz shartli ravishda voqeband laparlar deb nomlashni lozim topdik.

Voqeband laparlar, odatda, yigit va qiz o'rtasida savol-javob shaklida ijro etilib, savol tariqasida berilgan har bir shartni inkor etadigan javob qaytariladi. Shu bois voqeband laparlarni ijro etish keskin dramatizm ruhida kechib, aytishuv shiddatli tus oladi. Mana shunday laparlardan biri B. Sarimsoqov tomonidan aytishuv shaklidagi lirik qo'shiq tarzida talqin etiladi. Albatta, mazkur lapar keyingi paytlarda lirik qo'shiq o'rnida ham ijro etilib kelindi. Lekin bu matnning tarixiy asoslari, yani paydo bo'lish jarayoni lapar janriga aloqadordir. Chunki u ko'p vaqtlar mobaynida lapar aytish jarayonida qayta-qayta ijro etilishi, lapar voqebandligining kuchli dramatizmga egaligi sababli alohida qo'shiq sifatida ham ijro etilishiga ko'chdi. Biroq bu degani materiallarning genetik jihatidan lapar bilan aloqador emasligini anglatmaydi. Bizningcha, bu aytishuv xalq laparlarining sof voqeband shakliga mansub. Quyida ana shu lapardan bir nechta bandlarni keltiramiz:

Yigit: – Sen soy chumchug'i bo'lsang,
Soylarga qarab uchsang.
Men tog' kaptari bo'lib,
Orqangdan quvib borsam,
Yor, unda na qilg'aysan?

Qiz: – Sen tog' kaptari bo'lsang,
Orqamdan quvib yursang.
Men olg'ir lochin bo'lib,
Changalga olib qolsam,
Yor, unda na qilg'aysan?

Mana shu tariqa voqeband lapar yigit va qizning bir-birini rad etuvchi savol va javoblari tarzida davom etadi. Bunday lapar aytishlar yigit va qizning aql-zakovatda, so'zga chechanlikda bir-birlaridan qolishmasligini sinovdan o'tkazishning vositalaridan biri ham hisoblanadi.

Xullas, xalq laparlarida an'anaviylik va badihago'ylik munosabati bir xil emas. Xalq ijodi namunalarini asrlar mobaynida o'z yelkasida opichlab o'tuvchi an'anaviylik omili ko'proq voqeband laparlarda mustahkam saqlanadi. Chunki lapar matnlarining o'ziga xos voqebandligi, lirik dramatizmga boyligi va shiddatkorligi sababli bu xildagi laparlarni ko'pchilik yodlab oladi, turli to'y va yig'inlarda takror-takror ijro qilish, ularning matnlarini hech o'zgarishsiz ijro etish an'anaviylikning barqarorlashiga olib keladi.

Badihago'ylik esa terma laparlar ijrosida amal qiladi. Shu sababli bu xildagi laparlar matnida hamma vaqt ham bir xillik, aynanlik ko'zga tashlanmaydi, ularda lapar aytuvchilarning so'zamolligi hamda xotira kuchiga bog'liq holda har bir ijro o'ziga xos betakrorlikni yuzaga keltiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqilsa, lapar ijrosi jarayonida an'anaviylik va badihago'ylik nisbatining bir xil emasligi, ijrochilar tarkibi va matn xarakteriga qarab bu nisbatning turlicha voqe bo'lishi janrning o'ziga xos xususiyatlaridan birini tashkil etadi.

Laparning janr xususiyatlarini belgilaganda, ularning o'ziga xos kompozitsiyaga – dialogik (muloqot) shakliga ega ekanliklarini ham

unutmaslik lozim. Chunki lirik janrlar voqelikni shaxsning ongiy kechinmalari vositasida badiiy aks ettirish ma'lum haqiqat bo'lsada, biroq ana shu kechinmalarni qay yo'sinda, qanday shakllarda tinglovchiga yetkazish xalq lirikasi janrlari, xususan, laparlar uchun ham muhim muammo hisoblanadi.

Lirik kechinmani tinglovchilarga yetkazishda xalq lirikasining qo'shiq, yor-yor, kelin salom janrlarida monologik nutq shakli yetakchilik qilsa, xalq laparlarida esa faqat dialog shakli qo'llaniladi. Laparlarning bunday o'ziga xos janr xususiyati Elbek, professor Fitrat, M.Alaviya va professor B.Sarimsoqovlar tomonidan alohida qayd etilgan.

Biroq ular lapar janrini maxsus tadqiq etishni maqsad qilib olmaganliklari sababli dialogik nutqning lapar janriga xos yetakchi kompozitsion usul ekanligi, binobarin, voqealikni laparga xos badiiy in'ikos ettirishi shaklidan iboratligi haqida batafsil to'xtalmaganlar. Biz bu masalada ishimizning uchinchi bobida maxsus to'xtalishimiz bois hozir bu haqda so'z yuritmaymiz.

Xalq laparlarining janr xususiyati haqida gap ketganda ularning poetik xususiyatlarini chetlab o'tish mumkin emas. Chunki poetik shakl asarning ham mazmuniy, ham shakliy jihatlarini o'zida ifodalovchi omil hisoblanadi. Eng avvalo shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, laparlardagi birinchi band qanday shakl va qanday ohangda ijro etilsa, shunday shakl va ohang asar nihoyasigacha o'zgarmay saqlanadi. Masalan, quyidagi laparda oshiq yigit ma'shuqaning qoshlari qora ekanligini bilish maqsadida unga murojaat etadi va undan qoshini ko'rsatishni so'raydi:

Qoshingni qora deydilar,
Qoraqosh ukam, yor-yor.
Ko'rsat qoshingni men bir ko'ray,
Jonim ukam, yor-yor.

Oshiq yigit talabiga esa quyidagicha javob beradi:

Qoshimni ko'rib nima qilasiz,
Siz akajonim, yor-yor.
qaldirg'ochning qanotini,
Ko'rmabmidingiz, yor-yor.

Ma'shuqa qoshini ko'rsatmaydi va nozik tashbeh vositasida qoshining ta'rifini keltiradi. Albatta, mazkur bandlardagi tashbehlar va boshqa badiiy-tasvir vositalari haqida ishimizning keyingi boblarida batafsil to'xtalamiz. Bu o'rinda biz uchun eng muhim narsa, butun laparning oshiq va ma'shuqa o'rtasidagi nozik savol-javob asosiga qurilganligini qayd etish ahamiyatli. Lapar shu ikki shaxs o'rtasidagi savol va javob asosiga qurilganligi sababli barcha bandlar bir xil ohang va bir xil davom etadi.

Pafos turlarining rang-barangligi ham lapar janriga xos xususiyatlardan birini tashkil etadi. Shuning uchun ham terma laparlarda bir ijro davomida goh hijron azobida fig'on chekayotgan yorning nolalari ifodalansa, goh ikki yosh o'rtasidagi hazil-mutoyiba, goh o'tkir hajviy motivlar ifodalanadi. Masalan, quyidagi to'rtlikda yigit o'z yorining hajrida azob chekayotganligi, tezroq uning kelishiga ishtiyoqmand ekanligi ifodalangan:

Qoshingni qaro qilmay, ko'zingni olo qilma,
Mullo-xo'jaga borib, meni bir balo qilma.
Qosh bilan kiprik orasi bir bo'g'in,
Ishqingda ikki bukildim, kel bugun.

Mana shu to'rtlikdan keyingi bandda esa bevosita yorning qoshi ta'riflanadi:

Daryoning o'rtasidan yo'l solamiz.
Qizil gul novdasidan uy solamiz.
Qizil gul novdasi taram-taram,
Bizning yorning qoshlari qiygan qalam.

Navbatdagi band esa pul, mol-davlat evaziga qizlarni boylarga sotmaslik, aksincha, har bir qizni o'z sevganiga berish lozimligini,

ana shundagina ular baxtli hayotga erishishlari mumkinligi haqida so‘z yuritiladi:

Qizlarjon, qaynar buloqqa boshlamang,
Moli ko‘p deb boy bolasin xushlamang.
Mol degan qo‘lning kiri, yuvsa ketar,
Tirik qulga mol bitar, o‘lgan ketar.

Shundan keyingi band esa qarindoshga bergan kishining boshi g‘alvadan chiqmasligi ta’kidlanadi:

Oq g‘o‘za, malla g‘o‘za sug‘uraylik,
Qayrag‘och taglarida yigiraylik.
Qayrag‘och qattiq yog‘och, sinmas ekan,
Qarindoshga qiz bergan tinmas ekan.

Ushbu banddan keyin keluvchi bandda esa yor bilan o‘ynashdan qo‘rqadigan yigitlar ustidan zaharxanda qilinadi:

Daryoning naryog‘iga qo‘y beramiz,
To‘tiqush bolasiga to‘y beramiz.
To‘tiqush bolasiga ipak kerak.
Yor bilan o‘ynamoqqa yurak kerak.

Xulosa qilib aytganda, lapar ijrosi paytida jiddiy, og‘ir va mungli bandlar bilan bir vaqtda yengil hazil-mutoyiba yoki hajviy motivlar tarannum etilgan to‘rtliklarning kelishi, ya’ni pafos jihatidan keng qamrovlilik lapar janriga ijro imkoniyatlarini boyitib borish barobarida undagi ko‘povozlikni ham ta’minlaydi.

Shuni ham alohida eslatib o‘tish kerakki, ko‘p pafoslilik terma laparlarda uchraydigan xususiyat hsioblanadi. Izchil savol-javob xarakteridagi laparlarda esa asar boshidagi pafos oxiriga qadar izchil davom etadi.

Lapar janrining musiqaga munosabati masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur masala janrning o‘ziga xos hususiyatlarini ma’lum

darajada belgilab beradi. Shu nuqtayi nazardan, xalq laparlariga murojaat etilsa, ikki holat ko'zga tashlanadi.

Birinchisi, xalq laparlari kuy vositasida ijro qilinishini e'tirof etish. Darhaqiqat, barcha laparlar ma'lum kuyda ijro etiladi. Lapar kuylari, ohang va usullari izchil an'anaviylik asosida avloddan avlodga o'tib keladi.

Ikkinchisi, ayrim laparlar professional san'atkorlar repertuariga o'tib, professional musiqa asboblari jo'rligida raqs orqali ijro etiladi. Rahima Mazohidova, Gulshod Otaboyeva kabi san'antkorlar juda ko'p xalq laparlarini ijodiy o'zlashtirish orqali o'z variantlarini vujudga keltirganlar.

Xullas, laparlarga xos muhim xususiyatlardan biri janrning musiqa vositasida ijro etilishi hisoblanadi. So'z va soz, xoreografik va dramatik elementlarning birgalikda mavjudligi, boshqacha aytganda, foklorga xos sinkretizmning mavjudligi lapar janrining qadimiyligidan dalolat beradi.

Laparning janr xususiyatlari yuzasidan yuqorida aytilgan fikrlar bizga quyidagicha xulosalarga kelishga asos bo'ladi.

1. Xalq laparlari o'zbek folklorining eng qadimiy janrlaridan biri bo'lib, u o'ziga xos qator janriy xususiyatlar kasb etgan. Bu xususiyatlar janrning ijro o'rni, ijro tarzi va ijrochilar tarkibidagi o'ziga xosliklar bilan belgilanadi.

2. Lapar aytishuvlari tarixan qadimgi dual jamiyatga xos ikki tomon o'rtasidagi bahs-munozara, sinov shartlari bilan bog'liqlikda kechishi bilan aloqadordir.

3. Janr tarkibida so'z va musiqa uyg'unligi, xoreografik va dramatik turga oid unsurlarning mavjudligi, aniqrog'i, folklor asarlariga xos sinkretizmning faol ishtirok etishi xalq laparlarining tarixiy ildizlari ancha qadimiy ekanligidan dalolat beradi.

JANR KOMPOZITSIYASI

Badiiy ijodda har bir janrning o'ziga xos mavzulari doirasi, o'ziga xos personajlari mavjud. Xalq og'zaki ijodi janrlarida bu narsa juda

yorqin ko'zga tashlanadi. Chunki folklor janrlarining hayotiy-estetik vazifasi xalqning maishiy hayoti, turmush tarzi bilan chambarchas bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Mana shu jihatdan xalq laparlariga nazar tashlansa, ularda tarannum etiladigan mavzularning rang-barangligini ko'rish mumkin. Laparlarda kuylangan mavzular qay darajada xilma-xil bo'lmasin, ularni muayyan guruhlarga, yirik mavzular atrofiga jamlash va bu mavzularning nisbiy chegaralarini aniqlash mumkin. Eng avvalo shuni aytish lozimki, xalq laparlarining barchasi yagona yirik mavzu doirasida yaratiladi. Bu mavzu esa og'zaki va yozma adabiyotdagi lirik janrlarning abadiy mavzusi – sevgi-muhabbat mavzusidan iboratdir. Mana shu yirik va abadiy mavzu bilan bog'liqlikda yaratilishi janrning to'y marosimi, sayl va turli xildagi bayramlar bilan aloqadorlikda ijro etilishidadir. Bevosita mana shunday ijro o'rni va talabi esa ko'proq ishq-muhabbat mavzuini talab etadi.

Xalq laparlarida qizning maftunkor husni-tarovati, oshiqlik dardining azob-uqubati juda keng lirik talqin etiladigan motivdir. Quyidagi to'rtlikda ana shu holatning guvohi bo'lamiz:

Daryoning o'rtasidan yo'l solamiz,
Qizil gul novdasidan uy solamiz.
Qizil gul novdasi taram-taram,
Bizning yorning qoshlari qiygan qalam.

Xalq laparlari, ayniqsa, an'anaviy laparlarning aksariyati o'tmishda yaratilgan. Shu sababli ko'pgina xalq laparlarida qizning mol-dunyoga uchib, boyning bolasiga ko'ngil qo'yishidan shikoyat qilish, lekin mol-dunyoning o'tkinchi ekanligi, eng muhimi, ko'ngil xohishiga qarab ish qilish lozimligini ta'kidlovchi lirik motivlar anchagina:

Qizlarjon, qaynar buloqqa boshlamang,
Moli ko'p deb boy bolasin xushlamang.
Mol degan-qo'lning kiri, yuvsa ketar,
Tirik qo'lga mol bitar, o'lgan ketar.

Sevishgan ikki yoshdan jasorat, qat'iylik talab etiladi. Ammo ko'p hollarda sevishgan yoshlarda mana shu jasorat, qat'iylik yetishmaydi.

Oqibatda, ularning taqdiri butunlay boshqacha hal bo'ladi, sevgi imorati vayron bo'ladi. Quyidagi laparda sevgan yigitdan dadillik, qat'iylik va jasorat talab etish motivi kuylangan:

Daryoning naryog'iga qo'y beramiz,
To'tiqush bolasiga to'y beramiz.
To'tiqush bolasiga ipak kerak,
Yor bilan o'ynashmoqqa yurak kerak.

Yoshlarning sevgisiga, birgalikda turmush qurishlariga ba'zan ota-onalar qarshi chiqadilar. Quyidagi lapar bandida qiz ota-onasining roziligini kutgan oshiq yigitning qiz bilan turmush qurishga roziligi motivi aniq va lo'nda ifodalangan:

Daryoning naryog'ida shaftolizor,
Shaftolizor tagida qizlar bozor.
Otangiz berar bo'lsa, biz xaridor,
Onangizning tillaridan xudo bezor.

Hayotda kamdan-kam inson o'zi orzu qilgan narsasiga erisha olgan. Ayniqsa, bo'yi yetgan qizlarning vafodor, yaxshi yor haqidagi istaklarining chek-chegarasi yo'q. Ammo hayot ularning shirin orzu-umidlarini chilparchin qilib, yaxshi insonlarga emas, aksincha, yomon va johil kishilarga mahkum etib qo'yadi. Mana shu narsadan nolish motivi keltirayotgan lapar bandida baralla kuylangan:

Suvdan suvga keladi suvni loylab,
O'n beshimda o'ltirdim o'rin taxlab.
Yaxshini o'ylab umid, orzu bilan,
Bir yomon oldi-ketdi baxtin boylab.

Ayrim laparlarda qizning sevganidan arazlash motivi kuylanadi. Bunday laparlarning ikki misrasi yigit tilidan aytilsa, ikki misrasi qiz tilidan ifodalanadi:

– Yuqoridan kelaman bilasanmi,
Otim arpa tilasa berasanmi?

– Oting arpa tilasa, shivit yetsin,
Oq ko'ylaging kir bo'lsa, onang yuvsin.

Xalq laparlarida bevafo yigitdan nolish, uning o'zga yorga ko'ngil qo'yishi motivi kuylangan. Bunday hodisalar hayotda ko'p uchraydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, quyidagi lapar bandi turli joylarda ayni bir xil misralar, lirik tafsillar vositasida ifodalangan:

Daryoning naryog'ida uylaringiz,
Oqarishib ko'rinadi bo'ylaringiz.
Ipmidi, ipakmidi kiyganingiz,
Bizdanam ortiqmidi suyganingiz.

Diqqat qilinsa, laparning har bir misrasida ramziy obrazlar mavjudligini sezish mumkin. Masalan, birinchi misrasidagi daryo ramziy ayrilish obrazining ifodasidir. Shuning uchun bevafo yigit daryoning u yog'ida. Demak, ular bevafolikning mahkum qullari.

Ikkinchidan misradagi oqarishib ko'ringan bo'y esa hali sovimagan mehr, sevgining nishonasi, Shuning uchun ham yorning qaddi-qomati o'zgalardan ayricha oqarishib ko'zga tashlanadi.

Uchinchi misradagi ipakdan qilingan kiyim esa to'rtinchi misrada o'zining ramziy ma'nosini ifodalagan. Ya'ni ipdan ko'ra ipakning afzal va ustunligi yangi yorning eskisidan ustunligiga ishora vazifasini o'tagan. Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, ayrim laparlarda ramziy obraz va ifodalar lirik kechinma mohiyatini aniq va ta'sirli ochishga katta imkoniyatlar beradi.

Xalq laparlarida yorning bevafoligidan shikoyat motivi nihoyatda keng va har tomonlama ishlangan. Masalan, quyidagi to'rtlikda ma'shuqaning o'z yorining kelmasligi haqidagi xabarni aniq ishonch bilan bayon qilishi ifodalangan:

Daryodan oqib keladi oq yog'och,
Oq yog'ochga in qo'yibdir qaldirg'och.
Qaldirg'och qanotiga qil bog'ladi,
Bizni yor kelmaslikka bel bog'ladi.

Laparda, garchi yorning kelmasligi haqidagi xabar ishonch bilan aytilsa ham lekin unda qizning bu narsadan o'kinishi, oh-zor chekishi ifodalangan. Quyidagi laparda esa bevafolikdan ozor chekkan ma'shuqaning o'kinchi, ta'na va malomati bayon etilgan:

Laparchi go'yo yigit derlar seni,
Egilmas pichoq edim, egding meni.
Qo'lingdan kelmas ekan yor asramoq,
Xaloyiq badnomiga qo'yding meni.

Ma'lumki, lapar kechalarida lapar aytivchi tomonlar hozirjavoblik bilan «raqib» tomonga javob qaytarishlari lozim. Agar qarshi tomonning lapariga o'z vaqtida javob aytilmasa, u tomon yutqizgan hisoblanadi va dashnom eshitadi. Quyidagi lapar bandida hozirjavoblik bilan lapar ayta olmagan tomonga dashnom berish motivi ifodalangan:

Charximning qulog'idan g'il o'tadi.
Men senga lapar solsam, yil o'tadi.
Eski somon ustiga yangi somon,
Menga lapar topmagan og'zi yomon.

Keltirilgan laparda javob ayta olmagan tomon «og'zi yomon» deb umumiy tarzda ayblangan bo'lsa, quyidagi laparda esa, og'zi qiyshiq va soqov deb dakki berilgan:

Tegirmonga bug'doy soldim, kam ekanin bilmadim,
Shu kishiga lapar soldim, go'ng ekanin bilmadim.
U tomdan bu tomga sakraydi malla mushuk,
Menga lapar topmaganning og'zi qiyshiq.

Xalq laparlarida sevishgan yosh yigit-qizlar o'rtasidagi har xil munosabatlar haqqoniy o'z ifodasini topgan. Quyida keltiriladigan laparda uzoq safarga otlangan vafodor yigitning, albatta, o'z mahbubasi huzuriga qaytajakligi, shu bois sadoqat bilan kutish lozimligi, xullaski, sevishganlar o'rtasidagi vafo-sadoqat motivi kuylangan:

Qip-qizil olma terdim tepa shoxidan egib,
Ikki qiz uydan chiqadi haydari yerga tegib.
Haydaridan ushlasam, ushlama yorim deydi-yo,
Jon omon bo'lsa kelarman, sarg'ayma yorim deydi-yo.

Laparlarda qizlar tilidan sevgan yigitlar juda ham yuksak va samimiy ta'rifu tavsif etiladi. Chunki sevgi ma'lum darajada ko'zni ko'r, quloqni kar qilib qo'yadi. Shuning uchun ham ma'shuqa oshiqni bekamu-ko'st, har bir ishda xatti-harakatda nuqsonsiz inson sifatida vasf etadi:

Charximning qulog'ida qu olasi,
Mening og'am quralayning bolasi.
Ovga chiqsa, ovchilarning sarasi,
Uyga kirsa, ulug' uyning to'rasi.

O'z navbatida oshiq yigitlar ham o'zlari sevgan qizlarni o'ta noziklik va yuksak did bilan ta'riflaydilar. Quyidagi lapar bandida tashbehu sifatlashlar shu darajada nozik va betakrorki, har bir lirik tafsil bajargan vazifasi, tinglovchiga bag'ishlaydigan huzuri bilan yuksak obrazlilik namunasi sanalishiga loyiqdir. Mana shu obrazlilik esa «q» tovushining alliteratsiyasi bilan alohida ta'kidlanib turadi:

Qizlarjon, qiliqqinang qil yoradi,
Lablaringning shakari til yoradi.
Qoshlaring qozi bo'lib yurt so'rasa,
Kipriging jallod bo'lib bosh oladi.

Darhaqiqat, qizlaring nozik karashmalari, qiliqlari yigitlarning yuraginigina emas, balki undan ham nozik qilni yoradi. Demak, bu qiliqlardan omon qolishning imkoni yo'q. Ularning lablaridagi shirinlik esa tilni yoradi. Labning shirinligi faqat undan so'rilgandagina, ta'tib ko'rilgandagina seziladi. Demak, oshiq qizning labidagi boldan ta'tib ko'rgan. Shuning uchun ham, u qizlar labining shirinligini xalqona mubolag'ali «til yoradi» iborasi bilan juda o'rinli ifodalangan. Qizning yuz mulkini, chehra mamlakatini esa chimirilgan qoshlar boshqaradi.

Nozik chimirilgan qoshlarning hukmfarmo turishi esa yurt so'rayotgan qozilarga mengzaladi. Qayerda hukmdor, qozi bo'lsa, ularning huzurida hukmni ijro etuvchi jallodlar ham bo'ladi. Qoshlar ostida qator saf tortgan kipriklar esa qozining o'lim haqidagi farmonini ado etishga hoziru nozir turgan jallodga o'xshatiladi.

Xullas, lapar misralaridagi sifatlashu tashbehlar, istiora-yu ko'chimlar ma'shuqadagi noz-iboni, karashma-yu istiqnoni shu darajada nozik va bexato ifodalaydiki, bu narsa lapar ijodkorlarining o'ta sinchkovlik, yuksak estetik did va badiiy mahoratga ega shaxslar ekanligidan dalolat beradi.

Ayrim lapar bandlarida bevafo yordan nolish, shikoyat motivlari emas, balki uni qarg'ash motivi mavjud. Bu qarg'ashlar esa xalq og'zida yurgan va milliy xarakterdagi iboralar, obrazlar asosida vujudga kelgan. Masalan, xalq o'rtasidagi yurgan «Alining o'qi» birikmasi o'zining ildizlari bilan musulmon dunyosining qadimiy davrlaridagi tarixiy shaxslarga borib taqaladi. Chunki hazrati Ali payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salomning izdoshlaridan biri, ya'ni choryorlarning biri, ayni paytda u zotning kuyovlari ham bo'lganlar. U islom dushmanlariga qarshi keskin kurash olib borgan zabardast pahlavon bo'lib, janglar paytidagi shiddati, hayratomuz qilichi hamda kamoni va uning o'qi, gurzisi bilan raqiblarini larzaga solgan. Mana shuning uchun ham xalq o'rtasidagi «Alining qilichi», «Alining o'qi», «Alining gurzisi» kabi iboralar keng istifoda etilib kelinadi. Bundan tashqari, quyidagi lapar bandining oxirgi misrasida «Alining o'qi tegsin yuragingga» deyilishi orqali bevafo yorga omonlik bermaslik xohishi ifodalangan. Chunki hazrati Alining kamoni va o'qi, birinchidan, muqaddas bo'lib, u tekkan shaxs omon qolmaydi, ikkinchidan, bu o'q shu qadar o'tkir, nishab va haybatliki, u tekkan odam hayotdan ko'z yumishi muqarrar:

Qizil gulni boyladim bilagimga,
Yor bo'lib yaramading tilagimga.
Yor bo'lib yaramasang tilagimga,
Alining o'qi tegsin yuragingga.

Demak, lapar ijodkorlarining, demakki, xalqning bevafo kishilarga nisbatan estetik munosabati o'ta aniq va keskin bo'lgan. Lapar bandidagi oxirgi misraning g'oyaviy-estetik munosabati izchil va shafqatsizdir.

Xalq laparlarida armon motivlari katta o'rin egallaydi. Chunki armon inson zotida mavjud bo'lgan faol tuyg'udir. Insonsiz armon bo'lmaganidek armonsiz inson ham yo'q.

Insonda armon tuyg'usining yuzaga kelishida, ko'pincha, jabrlanuvchining o'zi sababchi bo'ladi. Masalan, quyidagi to'rtlikda yoshlik shahdi bilan intizor bo'lib kelgan yorni qadrlamaslik oqibatida hijron qo'shig'ini kuylashga mahkum bo'lgan yorning dil armoni bayon etilgan:

Oy tushibdir jiyda maydon ustiga,
Yor kelibdir paxsa devor ustiga.
Yosh edim, nodon edim, bilmas edim,
Endi kelsa, nuri diydam ustiga.

Har bir narsani o'z vaqtida qadrlay olmaslik oqibatida umrbod ayriliq azobiga giriftor bo'lgan kishilar hayotda juda ko'p. Ular o'z baxtsizliklariga yoshlik, nodonlik va tajribasizlik oqibatida erishadilar. Ammo keyingi afsus o'zingga dushman deganlaridek, o'tgan o'tib ketadi, qolgan qolaveradi. Binobarin, laparda g'urur otiga qamchi urib, oxir oqibatda pushaymon bo'lib qolgan yorning nolasini aytishdan murod ne?! Murod shuki, bunday armonli misralarni kuylash bilan yoshlarga, muhabbat ko'chasiga endi oyoq bosgan yoshlarni ehtiyotkorlikka, mulohaza yuritib ish yuritishga, har bir qadamni o'ylab bosishga da'vat etishdan iborat. Zotan, xalq laparlarining tarbiyaviy ahamiyati ham shunda.

Inson qismati naqadar og'ir va chigal: gohida yaxshi orzu-tilaklar chiqib, o'rnini qayg'u-alam egallaydi.

Undan qochib qutilmoqning esa imkoni yo'q. Ayniqsa, ko'ngil bergan kishingdan uzoqlashishning iloji yo'q. Uni unutib ham bo'lmaydi, bosh olib uzoqlarga ketganda ham xotira deb atalmish

insonga xos xislat bir zumda yetib keladi. Quyidagi lapar bandida ana shu holat ifodalangan. Yor ko'yida ranju mashaqqatlar chekkan oshiq bevafodan ko'ngil uzib ketmoqchi, ammo u xotiradan qochib qutila olmaydi. Chunki u piyoda bo'lsa, xotira otliq misol uni quvib yetadi va uni o'zining otashida kuydiradi:

G'amim, ko'rganlarim mening yorug' dunyoda,
Sochlarimning sonlaridan ziyoda.
Agar undan qutilmoqqa urinsam,
G'amim – otliq, qocholmayman piyoda.

Demak, xalq laparlarida g'am-anduh motivlari ham o'ziga xos o'rin egallaydi. Bu narsa laparlarning inson hayoti, uning qismati bilan vobasta yaratilishidan dalolat beradi.

Insonning omadi yurishmasa, hamma vaqt, hamma joyda pand yeydi, ishi orqaga ketib, barchaning ko'ziga yomon ko'rinadi. Quyidagi laparda yorini yaxshi odam deb oxir-oqibatda pand yegan oshiq fojiasi ifodalangan. Uning baxtsizligi, omadsizligi butun hayotini, faoliyatini qamrab olgan:

Ey bog'larni sel surib selanda qolgan boshim-a,
Yaxshilarni yor deb armonda qolgan boshim-a.
Yaxshilarni yor desam, yaxshilar mendan qochar-a,
Toleimning yo'g'idan yongan chirog'im o'char-a.

Hayotda yomon odamlarga ko'ngil berib aldanib qolgan kishilar ko'p. Yovuz insonlar kishilarni aldab, seni sevib qoldim, deb yolg'on so'zlaydilar va oxir oqibatda tashlab ketadilar. Yolg'onning mana shunday qurboni bo'lgan ma'shuqa tilidan aytilgan quyidagi laparda gul ramziy obrazi orqali, aniqrog'i, uzilgan gul-yolg'onga qurbon bo'lgan ma'shuqaning dil dardi ifodalangan:

Qizil gul cho'lda bitibdi qoni yo'q,
Ul guldan uzgan odamning soni yo'q.
Yaxshilar bir gul uzipti o'ziga,
Yomonlarga uzgan gulning soni yo'q.

Lapardan anglashilib turibdiki, yolg'onchi-yomon odamlarning makriga ilingan, aldangan kishilar nihoyatda ko'p. Demak, yomon odamlarning o'zi ham ko'p. Xalq laparlarida bunday motivlarning kuylanishidan maqsad tinglovchilarga ular haqida xabar berish emas, balki ularni ogohlantirib qo'yish, hushyor torttirish. Toki boshqalar ham har qanday kishining sevaman deyishiga ishonib, aldanib qolmasin, bo'lajak yorning so'zi va ishini sinab ko'rsin.

O'zbek xalq laparlarida bunday misralar juda ko'p va ular tinglovchilarni yuksak axloqiy, ma'anaviy tarbiyasi uchun xizmat qiladilar. Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq laparlarida yagona bir mavzu yetakchilik qiladi. Bu-umrboqiy, hamisha navqiron ishq-muhabbat mavzusi. Chin sevgi, sadoqat, mehr-oqibat, bevafolik, hijron, armon, g'am-anduh, baxtsizlik kabi lirik motivlar bevosita sevgi mavzuining rang-barang qirralarini yoritishga xizmat qiladi.

Xalq laparlarida sevgi mavzuining yetakchi mavqega erishuvi janrning asosan ikki jinsga mansub yoshlar o'rtasida vujudga kelishi hamda ijro etilishi bilan bog'liqdir. Aks holda, mazkur mavzu lapar janrining yagona bosh mavzuyi miqyosiga ko'tarila olmagan bo'lardi.

Xalq laparlari ijtimoiy hayoti bilan, kishilarning turmush tarzi, ularning odamlarga, oilaga, mehnatga-keng ma'noda hayotga bo'lgan munosabati bilan yaqindan aloqada. Shuning uchun ham xalq laparlarida hayotdagi ijobiy voqea-hodisalarga hayrixohlik, ma'naviy axloqiy jihatdan go'zal insonlarni tarannum etish yetakchilik qilsa, ijtimoiy hayotdagi aldamchilik, tovlamachilik, qalloblik, dangasalik kabi illatlar hajv ostiga olinadi. Bu narsa lapar janrining ijtimoiy-estetik jihatdan faol janr ekanligini ko'rsatib turadi.

Darhaqiqat, laparning ikki shaxs tomonidan ijro etilishi tarzi ham hajviy mavzuni yaxshiroq ochishga keng imkoniyat beradi. Chunki ikki yoki uch shaxs o'rtasidagi dialog shaklida aytishuv salbiy xislatlarni ham ana shunday xislatlarga ega bo'lgan shaxslar tilidan, ham ularga muxolif bo'lgan shaxslar tomonidan fosh etishga imkon beradi.

Masalan, «Kelinlar qo'shig'i» laparlarida bir nechta kelinlar ayrim erkaklarda uchraydigan nuqsonlarni hajv ostiga oladilar. Birinchi kelin

o'z yorining qadriga yetmaydigan erlarni qoralab, aksincha, o'z yorini qadrlaydigan, uni sharaflaydigan vafodor erlarni ulug'laydi:

– Hayosi yo'q ba'zi er,
Yosh kelinni qari der.
O'zini bilgan yigit,
Suyganini pari der.

Ikkinchi bandda esa erini faqat boyligi, mol-dunyosiga qarab baholaydigan xotinlar ustidan kulinadi:

Aytsam, ba'zi opamlar,
Puli ko'pni er deydi.
Agar kamroq keltirsa,
Javobimni ber, deydi.

Ko'p hollarda erkaklar ortiqcha maishatga berilib, nafaqat o'zlari topgan-tutganlarini, hattoki, ro'zg'orim, uyim, bola-chaqam deb xotinlari tomonidan yig'ilgan pullarni ham behuda xarjlab yuborganlar. Bunday hollar ayniqsa, sho'rolar tuzumi davrida u yoki bu kolxoz-sovxozlarga kattalar, faollar kelganda ko'proq yuz beradi. Quyidagi lapar bandida ana shunday maishatlardan bezgan kelinning tilidan shikoyat qilinadi:

Aktivlar kirdi boqqa,
To'ydilar qovurdoqqa.
Erim tushgur landovur,
Pulim ketdi aroqqa.

Xalqimiz orasida ko'p xotin olish illati va bunday g'ayriaxloqiy ishlarga vijdonsiz erkaklargina ruju qo'yganligi sir emas. Chunki ishonib o'zini bir umrga baxsh etgan xotin ustiga yana xotin olish har qanday erkakning diliga mos kelmaydi. Buning uchun u or-nomusni, vijdonini oyoq osti qilishi, vijdon qiynog'ini his etmasligi lozim. Vijdoni pok, o'z so'zida turadigan erkak esa bunday tubanlikka bora

olmaydi. Quyidagi lapar bandida kelin tilidan vijdonini oyoqosti qilil xotin ustiga xotin olgan erkak qattiq qoralanadi:

Yoqay desam, ho'l o'tin,
Buralib chiqar tutun.
Vijdonsiz erkak olar,
Xotin ustiga xotin.

Yuqorida aytilib o'tilganiday, laparlardagi hajviy mavzula faqat dangasalik, ishyoqmaslik, maishatparastlik, molparastlik kab motivlar bilan chegaralanib qolmay, ba'zi hollarda insonlardagi tabiiy nuqsonlar ustidan ham kulinadi. Masalan, «Cho'tir va buqoq» lapar fikrimizning dalili bo'la oladi.

Laparda cho'tir buqoqning kamchiliklari ustidan kulib, uning bo'rtib turgan tomog'ini olti ming g'ishtni pishiruvchi ulkan xum donga o'xshatsa, cho'tirning yuzini esa ari uyasiga yoki chakichlangar patir yuziga qiyoslaydi:

Cho'tir: – Oxirat bozoriga –
Yuk bog'langan karvon, buqoq.
Olti ming g'ishtni pishirgan,
Betutun xumdon, buqoq.

Buqoq: – Arilarning uyasini –
Bet bu, deb aldar cho'tir.
Xuddi chakichlab chekilgan –
Patir, deb guldor, cho'tir.

Cho'tir va buqoq o'rtasidagi lapar aytishuv davom etar ekan, ular bir-birlarining nuqsonini groteskona bo'rttirishga intilishadi. Atoql nemis faylasufi Gegel groteskni uch narsada ko'radi:

a) tabiatning turli jabhalarini qo'shib, aralashtirib yuborish;

b) mubolag'ada chegara bilmaslik;

d) inson a'zolarini ko'paytirib yoki ularni haddan ortiq bo'rttirib yuborish.

Grotesk haqida ishimizning navbatdagi bobida batafsil fikr yuritamiz.

Mana shu nuqtayi nazardan, tahlil etayotganimiz laparga murojaat etsak, unda cho'tir va buqoq o'zlaridagi tabiiy nuqsonlarni haddan orttirib, boshqa tabiiy narsalarga qiyoslab tasvirlaganliklarining guvohi bo'lamiz. Mana shu narsaning o'zi laparning groteskli tasvirga asoslanganligidan dalolat beradi. Chunki navbatdagi bandlarda cho'tir buqoqni xurjunga solingan oshqovoqqa o'xshatsa, cho'tirning yuzini buqoq itlarning iziga va kungirador panjaraga o'xshatadi:

Cho'tir – Yelkasiga xurjun osgan,
Xurjunida oshqovoq.
Har biri chorak yetilgan,
Mirishkor dehqon, buqoq.

Buqoq: – Bu kecha qaylarda qolding,
Betlaring itning izi.
Panjara gulgun yuzingdan –
Ayladingmi or, cho'tir?

Cho'tir va buqoq bir-birlarini qay darajada hajv qilmasinlar, ularning so'zlarida samimiylik, hazilomuzlik bor. Shu bois ular bir-birlaridan ranjimaydilar. Chunki har ikkisida mavjud bo'lgan tabiiy nuqsonlar ustidan o'zgalar emas, balki ularning o'zlari kulmoqdalar. Demak, hajvda shaxsga tegish, ularni haqoratlash yo'q. Shu bois ham, lapardagi hajv o'tkir yumor, komiklik bag'ishlagan.

Xullas, hajviy lapardagi turli ijtimoiy illatlar, shaxsiy nuqson va kamchiliklar bevosita lapar aytuvchilar tilidan, ya'ni u yoki bu personajning vazifasini ado etayotgan shaxslar tomonidan aytiladi. Mana shuning uchun ham, hajviy laparlarning fosh etuvchilik vazifasi, komiklik tug'dirish imkoniyatlari boydir.

Demak, o'zbek xalq laparlarida keng tarqalgan mavzulardan biri hajv qilish bo'lib, u janrning hayotligini, ijtimoiy-estetik faolligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Xalq og'zaki ijodida asarning ijro o'rni va shakli, ko'p hollarda, janrning taqdirini, yashovchanligini belgilash sabab bo'ladi. Shu

boisdan xalq laparlarining ijro shakllari haqida ham fikr yuritish kerak bo'ladi.

Xalq og'zaki asarining ijro shakli uning jonli yashash tarzini belgilashga imkon beruvchi hodisadir. Chunki ijro aktining har bir shakli ana shu janrning muayyan tarixiy davrdagi yashash holatini anglatadi. Darhaqiqat, folklor janrining ijtimoiy hayot, kishilarning maishiy turmush darajasi, ana shu turmush tarzida muayyan janrning bajaradigan utilitar va estetik vazifalari davrlar o'tishi bilan o'zgarishlarga uchrab boradi. Mana shu nuqtayi nazardan qaralsa, o'zbek xalq laparlarining jonli yashash tarzi XX asrning 50-yillariga kelib keskin o'zgarishlarga uchradi. Bu davrga kelib hayotimizda radio, televideniye kabi ommaviy axborot vositalarining chuqur o'rin olishi xalq laparlarining jonli yashashiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Qiz uzatar to'ylarida qizlar bazmi yoki ilgarilari «lapar kechasi» deb atalmish marosim hozir ham saqlanib qolgan. Ammo bu marosimda xalq laparlarini ijro etuvchi yoshlar keskin kamayib, ularning o'rnini professional san'atkorlar egallab ola boshladi. Natijada, xalq laparlarining jonli ijrosi asta-sekin so'nib, uning o'rnini san'atkorlar tomonidan ijro etiladigan yallalar, qo'shiqlar hamda o'yin va tomoshalar egallab oldi. Mana shuning oqibatida xalq laparlarining ayrim namunalari, asosan, savol-javob tariqasida ijro etiladigan, muayyan darajada kuchli dramatizmga ega bo'lgan laparlar san'atkorlar repertuariga o'tib o'zlashdi.

Yuqoridagi hayotiy sabablarga ko'ra xalq laparlarining ijro shakllari ikkiga ajraldi:

1. Professional san'atkorlar repertuariga o'tgan xalq laparlari.

Bunday laparlar matni ilgari ommaviy ijro etilgan bo'lsa ham, biroq keyinchalik muayyan san'atkor repertuariga o'tgach, barqarorlashdi. Ulardan badihago'ylik yo'qolib, muayyan matn musiqa jo'rligida qat'iy bir xilda ijro etila boshlandi.

San'atkor repertuariga o'tib o'zlashgan xalq laparlari asosan ikki ijrochi tomonidan ijro etilishga mo'ljallanganligi sababli ularni ba'zan bir erkak va bir ayol, ba'zan esa bir shaxsning o'zi tomonidan ikki kishi tilidan ijro etila boshlandi. O'zbekiston xalq artisti Rahima

Mazohidova, marhuma Tursunoy Mamedova, Gulshod Otaboyeva kabi san'atkorlar xalq laparlari asosida o'zlariga xos repertuarlar yaratdilarki, ular ijro etgan laparlar sof xalqona laparlarga mustaqil variant sifatida baholanishi lozim. Darhaqiqat, variantlilikning yuzaga kelishi haqida professor T. Mirzayev quyidagilarni yozganida to'la haqlidir: «Variantlarning yuzaga kelishining obyektiv sababi, birinchidan, xalq og'zaki poetik ijodining tabiati bilan belgilansa, ikkinchidan tarixiy voqelik bilan izohlanadi. Folklorda variantlarning yuzaga kelishidagi obyektiv sababi birinchi planda turadi, chunki variantlilikning mohiyati ham ana shu orqali tushuntiriladi».

Variant va versiya kabi tushunchalar T. Mirzayev tomonidan keng izohlanganligi sababli bu o'rinda ularni qaytadan takrorlab o'tishning hojati yo'q.

Taniqli rus folklorshunosi K. V. Chistov ham chex olimi D. Xolining fikrlariga tayanib, variant yuzaga kelishi uchun folklor asari matnida yuzaga keladigan uch xil o'zgarishni qayd etadi. Bular: kombinatsiya (o'rin almashuv), kontaminatsiya (almashtirish) va konglobatsiya (eski va yangi unsurlarning qo'shilishi).

Yuqorida ko'rsatilgan qonuniyatlar nuqtayi nazaridan o'zbek xalq laparlariga nazar tashlasak, ularning proffessional san'atkorlar repertuariga o'tib o'zlashgan shakllarida ham, ommaviy ijrodagi shakllarida ham keng variantlashish mavjudligini ko'ramiz. Masalan, «qoshingni qaro deydilar» laparlarning sof xalqona varianti bilan R. Mazohidova ijrosidagi varianti o'zaro qiyoslanganda asar matnida asosan bandlarning o'rni almashganligi, ya'ni kombinatsiya yuz berganligini ko'ramiz. Agar «Gulyor» to'plamida e'lon qilingan lapar variantini kuzatsak, unda dastlab qosh, keyin ko'z, keyin yuz ta'riflanganligini ko'ramiz. R. Mazohidova variantida esa dastlab yuz ta'riflangan:

Yigit: – Yuzingni qizil deydilar,
Yuzi qizil ukam, yor-yor.
Ko'rsat yuzingni, men bir ko'ray,
Jonim ukam-a, yor-yor.

Qiz: – Yuzimni ko'rib nima qilasiz,
Siz akajonim, yor-yor,
Yana akajonim, yor-yor,
Bozordagi shirmoy nonni-
Ko'rmabmidingiz, yor-yor.

Ushbu banddagi kontaminatsion o'zgarishlardan yana biri xalq variantida yorning qizil yuzi qizil gulga o'xshatilgan bo'lsa, san'atkor repertuarida yorning qizil yuzi shirmoy nonga o'xshatilgan.

Agar xalq variantlarida yorning qoshi birinchi bo'lib, tavsiflangan bo'lsa, san'atkor variantida u ikkinchi bandda tavsiflangan. Ammo qoshga xos asosiy xususiyatlar har ikki variantda ham aynan bir xil:

Yigit: – Qoshingni qaro deydilar,
Qora qosh ukam, yor-yor.
Ko'rsat qoshingni men bir ko'ray,
Zolim ukam, yor-yor.

Qiz: – Qoshimni ko'rib nima qilasiz,
Siz akajonim, yor-yor,
Yana akajonim, yor-yor,
Qaldirg'ochning qanotini-
Ko'rmabmidingiz, yor-yor?

Ushbu banddagi variantlilikka xos xususiyat shundaki, xalq variantida qizga «jonim ukam» deb murojaat etilgan bo'lsa, san'atkor variantida yorning noz-qarashmasini, jabr-zulmini bo'rttirish maqsadida «zolim ukam» deb murojaat etiladi.

Laparlarning xalq variantida uchinchi bo'lib yorning ko'zi ta'riflangan bo'lsa, san'atkor variantida yorning sochi tavsiflangan. Soch tavsifi esa xalq variantida uchramadi. Shu boiz biz san'atkor ijrosidagi tavsifning o'zini keltiramiz, xolos:

Yigit: – Sochingni uzun deydilar,
Qora soch ukam yor-yor.
Ko'rsat sochingni men bir ko'ray,
Chilvir soch ukam-a, yor-yor.

Qiz: – Sochimni ko'rib nima qilasiz,
Siz akajonim, yor-yor,
Yana akajonim, yor-yor,
Soy bo'yidagi majnun tolni –
Ko'rmabmidingiz, yor-yor?

Ko'rinib turibdiki, yorning uzun va quyiga osilib turgan sochi soy bo'yida silkinib turuvchi majnuntolga qiyoslangan.

San'atkor repetuaridagi laparda yorning ko'ziga berilgan ta'rif oxirgi bandda berilgan bo'lsa, ommaviy ijrodagi laparda uchinchi bandda, ya'ni qosh tavsifidan keyin kelgan. Lekin har ikki variantda ham yorning ko'ziga berilgan ta'rif bir xil:

Yigit: – Ko'zingni shahlo deydilar,
Shahlo ko'z ukam, yor-yor.
Ko'rsat ko'zingni men bir ko'ray,
Zolim ukam-a, yor-yor.

Qiz: – Ko'zimni ko'rib nima qilasiz,
Siz akajonim, yor-yor,
Yana akajonim, yor-yor,
Tog'da ohu ko'zlarini,
Ko'rmabmidingiz, yor-yor?

Xalq laparlarining ikki ijro shaklini qiyoslash shuni ko'rsatadiki, ommaviy ijrodagi bir asar professional ijrochilar repertuariga o'tgach, muayyan o'zgartirishlarga uchraydi. Bu o'zgartirishlar eng avvolo bandlar o'rnini almashtirish, ya'ni kombinatsion xarakter kasb etadi. Bundan tashqari, ayrim misralarni qayta takrorlash evaziga lapardagi emotsionallikni kuchaytirishga erishilgan. Masalan, qizning javobidagi «siz akajonim, yor-yor» misrasi san'atkor ijrosida «yana akajonim, yor-yor» tarzida ikkinchi bor takrorlanadi. Har ikki variantni solishtirganda ayrim kontaminatsion farqlar ko'zga tashlanadi. Masalan, «jonim ukam» birikmasi «zolim ukam» tarzida o'zgartirilgan.

Xullas, ommaviy ijrodagi xalq laparlari professional ijrochi repertuariga o'tgach, muayyan o'zgartirishlar yuz beradi va mana shu narsa ularni mustaqil variant sifatida baholashga asos bo'ladi.

O‘zbek xalq laparlari sirasida shundaylari ham borki, ular faqat professional ijrochilar repertuari orqali turli joylarga tarqalgan va mustaqil mahalliy variant sifatida shakllangan. Masalan, «Suv bo‘yida turgan yigit» misrasi bilan boshlanuvchi lapar 30-yillarda boshlab san’atkorlar repertuariga o‘tib keng tarqalgan. Ushbu laparning Xorazm san’atkorlari repertuariga o‘tib, o‘ziga xos mustaqil variant kasb etganligi ma’lum. Masalan, uning namunalaridan biri professor S.Ro‘zimboyev tomonidan yozib olingan va quyidagichadir:

Qiz: – Suv bo‘yida turgan yigit,
Suvga nazar solgan yigit.
Bilakuzugim olgan yigit,
Olibsan, ber bilakuzugim.

Yigit: – Suv bo‘yiga borganim yo‘q,
Bilakuzugingni ko‘rganim yo‘q.
Ko‘rgan bersin bilakuzuging,
Olgan bersin bilakuzuging.

Laparlarning ommaviy ijrolardagi variantlarida yigit javobidagi misralar quyidagicha shaklda aytiladi:

Suv bo‘yida turganim yo‘q,
Bilakuzugingni olganim yo‘q.
Ko‘rganlar bersin bilakuzugingni,
Olganlar bersin bilakuzugingni.

Diqqat qilinsa, ommaviy ijrodagi lapar variantida yigit javobida mantiqiylik kuchli ekanligi ma’lum bo‘ladi. Chunki qiz suv bo‘yida turgan yigit deb murojaat etgan. Unga javoban yigit suv bo‘yiga borganim yo‘q desa, o‘zaro moslik buziladi. Haqiqatan ham oshiq yigit suv bo‘yiga borib, suvga boqib xayol surib turgan. Shu bois u qizga suv bo‘yida turganim yo‘q deb javob qaytarmoqda. Bu bilan u o‘zining qizga bo‘lgan muhabbatini, ishq savdosini yashirmoqchi bo‘ladi. Biroq bilakuzugi yo‘qolgan, ammo yigit uni olgani yo‘q. Yo‘qolgan pichoqning

sopi oltin deganlaridek, olgan bir kishi bo'lsa ham, gumon ming kishiga tushadi. Shuning uchun ham, yigit o'z javobida «ko'rganlar va olganlar» so'zlarini ko'plik shaklida qo'llagan. Bu orqali qizga oshiqu shaydo bo'lib yurgan yigitlarning ko'pligiga va ayni paytda qizning o'zi bilakuzukni ulardan biriga oldirganligiga achchiq qilib ishora qilgan. Har holda laparning ommaviy ijro shaklida qiz va yigit o'rtasidagi aytishuvda mantiqiy izchillik kuchliroq saqlangan.

Navbatdagi bandda esa qiz yigitga do'q-po'pisa qilishga o'tadi. Bu band esa laparning ommaviy ijro shakllarida, xususan, Farg'ona vodiysi shakllarida uchraydi:

Qiz: – Otangga aytib bildirtamon,
Tovoningdan tildirtamon.
Uch yog'ochga ildirtamon,
Olibsan, ber bilakuzugim.

Yigit: – Otamga aytib bildirtaguy,
Tovonimdan tildirtaguy.
Uch yog'ochga ildirtaguy,
Olgan bersin bilakuzuging.

Qancha dag'dag'a qilmasin biror ish chiqishga ko'zi yetmagan qiz nihoyat yaxshi so'z bilan, sovg'a-salom berishni va'da qilib yigitni iydirmoqchi bo'ladi. Chunki u bilakuzugni yigit olganligini aniq biladi. qizning yaxshi so'zi va sovg'alar berishi haqidagi va'dalarini eshitgan yigit bilakuzugni qaytarishga ko'nadi. Bu bilan laparda ikki sevishgan yoshning taqdiri qo'shilajakligiga ishora qilingan:

Qiz: – Qator-qator nor beraman,
Norga qo'shib zar beraman.
Qo'shib-chopib pul beraman,
Olibsan, ber bilakuzugim.

Yigit: – Bundan uyga borabering,
Choy-poylarni qilavering.
Qarib ko'nglim olabering,
Kissamdadur bilakuzuging.

Xullas, san'atkor repertuariga o'tgan lapar keng tarqalib, turli xududlarda ham mustaqil variantlashgan. Xorazm vohasida ijro etilib kelingan yuqoridagi lapar fikrimizning dalili bo'la oladi.

Xalq o'rtasida «Na qilg'aysan» deb aytiluvchi savol-javob shaklidagi lapar keng tarqalgan bo'lib, uning mustaqil bir varianti Xorazmda «Ne deysan» deb yuritiladi. Ushbu lapar yigit va qiz o'rtasida aytilib, yigitning har bir savoliga qiz topqirlik bilan javob aytadi. Masalan:

Yigit: – Men bog'ingga bog'bon bo'lib,
Bog'ingga kirsam, ne deysan?
Tar ochilgan gullaringdan.
Bir dona uzsam, ne deysan?

Qiz: – Sening o'zing bog'bon bo'lib,
Bog'chamga kirgan vaqtingda.
Men o'zim bir gul bo'lib,
Bog'da ochilsam ne deysan?

Yigit: – Sening o'zing bir gul bo'lib,
Bog'da ochilgan vaqtingda.
Mening o'zim bulbul bo'lib,
Shoxingga qo'nsam, ne deysan?

Yigit bulbul bo'lib gul bo'lib ochilgan qizning baxtiga erishmoqchi ekanligini «shoxingga qo'nsam, ne deysan» deb bayon qiladi.

Shunda qiz bunga rozi emasligini, agar bulbul shoximga qo'nmoqchi bo'lsa, u kaptar bo'lib uchib ketajagini, ya'ni yigitning qo'liga tushmayajakligini bildiradi:

Qiz: – Sening o'zing bulbul bo'lib,
Shoximga qo'ngan vaqtingda.
Men bir kichik kaptar bo'lib,
Havoga uchsam, ne deysan?

Laparning Qashqadaryo, Surxondaryo variantlarida xuddi shu motiv sal o'zgacharoq obrazlar vositasida, ya'ni qizning soy

chumchug'iga aylanib tutqich bermasligi shaklida, yigit tog' kaptariga aylanib ta'qib qilajagi shaklida ifodalangan:

Yigit: – Sen soy chumchug'i bo'lsang,
Soylarga qarab uchsang.
Men tog' kaptari bo'lib,
Orqangdan quvib borsam,
Yor, unda na qilg'aysan?

Laparning shunga o'xshash yana bir variantini folklorshunos O. Sobirov 1961-yilda Mardonqul Avliyoqul o'g'lidan, 1971-yilda esa Yusuf O'taganovdan yozib olgan. Bu variantdagi aytishuvda ham yigit va qiz turli qush, hayvon yoki o'simlik shakllaridagi obrazlarga aylanib, bir-birlarini ta'qib etadilar.

Laparning Xorazm variantida qizning kaptarga aylanib, uni quvajakligini bildiradi:

Yigit: – Sening o'zing kaptar bo'lib,
Havoga uchgan vaqtingda.
Men bir olg'ir lochin bo'lib,
Izingdan quvsam, na deysan?

B. Sarimsoqov keltirgan variant ham lochin va kaptar obrazlarining ishtiroki bilan yuqoridagi bandga o'xshashlik kasb etadi. Ammo bu variantning farqi shundaki, lochin obrazi olg'ir lochin tarzida, kaptar esa tog' kaptarini shunchaki quvmaydi, balki unga changal soladi. Masalan:

Yigit: – Sen tog' kaptari bo'lsang, yor,
Orqamdan quvib yursang.
Men olg'ir lochin bo'lib,
Changalga olib qolsam,
Yor, unda na qilg'aysan?

Yigit tomonidan berilgan javobdan keyin laparning Xorazm variantida qiz yovshon o'simligiga aylanib qutilajakligini aytadi. Yigit

qizga javoban tovshon kemiruvchisiga aylanib, yovshonning tomirini qirqajakligini bildiradi:

Qiz: – Sen olg'ir lochin bo'lib,
Izimdan quvgan vaqtingda.
Men bir katta yovshon bo'lib,
Qumlarga bitsam, ne deysan?

Yigit: – Sen bir katta yovshon bo'lib,
Qumlarga bitgin vaqtingda.
Men bir ulli tovshon bo'lib,
Dipingni qirqsam, ne deysan?

Mazkur laparning o'zga variantlarida bu obrazlar uchramaydi. Mana shu narsaning o'zi ko'rsatib turibdiki, laparning Xorazm varianti o'zgacha yo'nalishda ijodiy rivojolantirilgan. Shuning uchun ham quyidagi misralar boshqa variantlarda yo'q:

Qiz: – Sen bir katta tovshon bo'lib,
Dipimni qirqqan vaqtingda.
Men giyoh cho'pi bo'lib,
Qumlarga singsam, ne deysan?

Yigit: – Sen bir giyoh cho'pi bo'lib,
Qumlarga singgan vaqtingda
Men qo'ylarga cho'pon bo'lib,
Axtarib topsam, ne deysan?

Tinglovchi yigit va qiz o'rtasidagi aytishuvning shiddati, ular aylanmoqchi bo'lgan obrazlarning bir-biriga zidligi hamda bir-biriga kushanda ekanligidan hayron deb turganda, qiz o'zining hayratlanarli topqirligi bilan aytishuvni davom ettiradi:

Qiz: – Sen qo'ylarga cho'pon bo'lib,
Axtarib topgan vaqtingda.
Men bir boyning qizi bo'lib,
To'rda o'tirsam, ne deysan?

Sahroga yoyilib o'tlab yurgan qo'ylarning har qanday giyoh cho'pini topib yeyishi aniq narsa. Shunga qarab ma'shuqaning oshiq ta'qibidan qochib qutilishga imkoni qolmabdi, degan fikrga kelamiz. Ammo qizning boy qiziga aylanib, to'rda o'tirishi, cho'ponning esa unga yetishga chorasi yo'qligini yana bir karra his etamiz. Shunda yigit ham qiz savoliga yarasha javob qaytaradi:

Yigit: – Sen bir boyning qizi bo'lib,
To'rda o'tirgan vaqtingda.
Men bir boyning o'g'li bo'lib,
Sovchi yuborsam, ne deysan?

Yigitning javobidan keyin endi aytishuv nihoyasiga yetibdi, degan xayolga kelamiz. Ammo bu xayolni qizning topqirligi, hozirjavobligi puchga chiqaradi:

Qiz: – Sen bir boyning o'g'li bo'lib,
Sovchi yuborgan vaqtingda.
Mening o'zim kasal bo'lib,
Dard chekib yotsam, ne deysan?

Odatda, bemor yotgan qizga sovchi yuborilmaydi. Mabodo bilmasdan sovchi kelgan vaqtda ham sovchiga javob berilmaydi. Mana shu paytda yigit topqirlik bilan tabibga aylanadi va qizni ta'qib etishda davom etadi:

Yigit: – Sening o'zing kasal bo'lib,
Dard chekib yotgan vaqtingda.
Men bir katta tabib bo'lib,
Dardingni bilsam, ne deysan?

Laparning Xorazm varianti to'la mustaqillikka erishgan variant hisoblanadi. Chunki giyohga aylangan ma'shuqani cho'ponga aylanib topish, boyning qiziga aylangan ma'shuqani boyning o'g'liga aylanib

sovchi qo'ydirish, qattiq bemorga aylangan qizni katta tabibga aylanib davolash kabi motivlarni laparning boshqa mahalliy variantlarida uchrata olmaymiz. Shunga ko'ra laparning yechimi ham o'ziga xos va betakrordir. Ma'shuqaning ko'rpaga aylanishi, oshiqning shu ko'rpaga kirishi bilan lapar yechimi muvaffaqiyatli yakunlanadi. Ma'shuqa javobsiz qoladi, oshiq esa uning vasliga erishadi:

Qiz: – Sen bir katta tabib bo'lib,
Dorini bergan vaqtingda,
O'z-o'zimga duo o'qib,
Ko'rpaga singsam, ne deysan?

Yigit: – Sen o'zinga duo o'qib,
Ko'rpaga singgan vaqtingda,
Mening o'zim kuyov bo'lib,
Ko'rpangga kirsam, ne deysan?

Ushbu laparning professor B. Sarimsoqov keltirgan namunasida qiz va yigitning metamorfozik shakllari boshqacha yo'nalishda davom etadi. Masalan, ma'shuqa olg'ir lochin bo'lib, tog' kaptariga changal urmoqchi bo'lganda, oshiq mergan bo'lib, uni otib olmoqqa shaylanadi. Shunda ma'shuqa bog'da qizarib pishib turgan anorga aylanib qutulmoqchi bo'ladi. Oshiq esa bog'bonga aylanib, anorni uzib olmoqchi bo'ladi. Pishib turgan anorni bog'bon bo'lib uzib olish mohiyatan oshiqning ma'shuqa visoliga yetishganligidan dalolat beradi. Shunday yechim bilan lapar nihoyasiga yetadi. Chunki, ma'shuqa yigitning savoliga javob topa olmaydi:

Qiz: – Sen mergan ovchi bo'lsang,
Miltiqda otib olsang.
Men bog'da anor bo'lib,
Qizarib pishib tursam,
Yor, unda na qilg'aysan?

Yigit: – Sen bog'da anor bo'lsang,
Qizarib pishib tursang.

Men yurgan bog'bon bo'lib,
Bittalab uzib olsam,
Yor, unda na qilg'aysan?

Demak, «Ne deysan?» yoki «Na qilg'aysan?» deb savol-javob tarzida aytiluvchi xalq laparlari professional san'atkorlar repertuariga o'tib, ularning estetik didi, dunyoqarashi, so'zamolligiga qarab turli yo'nalishlarda rivojlantirilgan. Biroq mazkur laparning barcha mahalliy variantlarida ham yechim qizning javob topa olmasligi va ikki yoshning visoliga yetishuviga ishora qiluvchi javoblari bilan yakunlangan. Fikrimizning dalili sifatida O.Sobirov e'lon qilgan «Cho'pon bilan qiz» laparining yechimini keltirish mumkin:

Qiz: – Katta ajdarho sen bo'lsang,
Azroiling men bo'lib,
Joningni olsam, qaytasan?

Yigit: – Azroilim sen bo'lsang,
Xudoyi taolo men bo'lib,
Buyruq qilsam, qaytasan?

Qiz aylanmoqchi bo'lgan diniy-mifologik obraz Azroil bo'lib, uning changalidan hech bir banda, hech bir jonzot qutila olmaydi. Shunga ko'ra, yigit endi javob topa olmasa kerak deb o'ylash mumkin. Lekin, yigit mantiqan aytishuviga yakun yasovchi metamorfozik obrazga murojaat qiladi. Bu ollo taoloning o'zi edi. Faqat ollo-taologina barcha mavjudotning ustidan hokimi mutloq. Azroil ham xudoning hukmini ado etuvchi farishta. Shu bois qiz javob topa olmay qoladi va taslim bo'ladi. Uning taslim bo'lishi esa laparga o'ziga xos mantiqli yechim bag'ishlaydi.

Xullas, savol-javob shaklidagi laparlar san'atkorlar repertuarida ijodiy rivojlantirilib to'ylar, sayl va bazmlarda jonli ijro etilib kelinmoqda. Bundan shunday xulosaga kelish mumkin. Xalq laparlarini to'ylarda ijro etish an'anasi so'ngach, uning ayrim namunalari professional san'atkorlar yoki folklor ansambllari repertuariga o'tib

o'zlashib yashamoqda. Demak san'atkorlar yoki folklor ansambllari ayrim folklor asarlarining hozirgi paytda jonli ijrosini ta'minlash vositasiga aylanib qoldi.

Xalq laparlarining qizlar bazmida-lapar kechasida ijro etilmay qolishiga bir nechta sabablar bor.

Birinchisi-maishiy hayotimizga, marosim va sayllarimizga professional san'atning keng kirib kelishi. Mana shu jarayonda to'y marosimlardagi yor-yor, o'lan kabi lapar janri ham ijro etilmay qoladi.

Ikkinchisi-milliy marosimlarimiz va tantanalarimizdagi milliy an'analar, aytim, tomosha va o'yinlarimizning eskilik qoldiqlari deb tashviq qilish siyosati. Buning oqibatida ko'pchilik, yosh avlod qadimiy qo'shiq va laparlarimizdan kechib, professional san'atga yuz tutdilar.

Uchinchisi-xalq orasida lapar aytuvchi mohir ijrochilarning olamdan o'tishi va lapar aytish an'analarining sekin-asta unutila borishi.

Xulosa qilib aytganda, qizlar bazmida lapar aytish an'anasining so'nishi professional qo'shiqchilikning keng o'rin olishiga sabab bo'ldi. Bu jarayonda faqat professional san'atkorlar repertuariga o'tib o'zlashgan laparlargina saqlanib qoldi va mazkur janrning jonli ijroda yashashini ta'minladi.

2. Ommaviy ijro shaklida saqlanib qolgan laparlar.

Laparning ommaviy ijro shakli so'ngach, ilgari qizlar bazmida jonli ijro etilib kelingan laparlar turli to'plamlarda, folklorshunoslar tomonidan to'plangan manbalarda, arxivlardagina saqlanib qolgan.

Keng omma ijro etgan laparlar ijrosi an'anaviy boshlama band bilan boshlangan. Ana shundan keyin yigitlar va qizlar o'rtasida galma-gal turli mavzu hamda mazmundagi to'rtliklar aytilavergan. Ularda muayyan mavzuni izchil davom ettirish, savollarga javob qaytarish shart emas. Ishqilib lapar ijrosi paytida har bir tomon o'zi bilgan to'rtlikni tez fursatda ijro etib, lapar aytish jarayonini to'xtatib qo'ymasa bo'lgani. Mana shuning uchun ham ommaviy ijro etilgan xalq laparlari terma xarakteriga ega. Masalan, «Oq olma, qizil olma» to'plamiga kirgan aksariyat laparlar buning yorqin misoli bo'la oladi:

Yigit: – Qizlarjon tomga qo'yodir bo'zini,
Savdogarga ko'rsatodir o'zini.
Savdogar savdo qiladir mol uchun,
Yigitning topgan moli qizlar uchun.

Qiz: – Daryoning naryog'ida hayhaylagan,
Qamchining sopiga zar boylagan.
Qamchisini qayirib otga solgan,
O'z yorini yomonlab xatga solgan.

Navbatma-navbat aytilgan ushbu bandlar o'zaro na mavzu, na mazmun jihatidan bog'langan. Ular to'la mustaqil bandlardan iborat bo'lib, har ikki tomon ularni o'z vaqtida ijro etib, lapar kuylash jarayonini davom ettirishga xizmat qiladi, xolos. Bunday misollar «Gulyor» Farg'ona xalq qo'shiqlari to'plamida ham ko'plab uchraydi.

Qiz: – Tayg'inchoqqa ot solganda toyishadi,
Ustidagi egar-jabduq mayishadi.
Qiz tanlashga elimizga nega kelding,
Qalin uchun qovurg'ang qayishadi.

Yigit: – Poyga kuni chopganim ola pakki,
Elimizda maqtanib, qilding chakki.
Gapga chechan qizlar turib o'lan aytsa,
Unga javob topolmay yersan dakki.

Xullas, ommaviy ijro shaklidagi ijrochilik 60-yillardan boshlab asta-sekin so'na boshladi. Hozir esa bu shaklda ijro etiluvchi xalq laparlarini mutlaqo uchratib bo'lmaydi. Ammo folklorshunoslarimiz 20–50-yillar mobaynida ommaviy shaklda ijro etilgan laparlarning go'zal namunalarini yozib olib, ularning yaxshi namunalarini to'plamlarda e'lon qilganliklari sababli xalq laparlarining bunday ijro shakli ham mavjudligi haqida bahs yuritmoqdamiz.

Endilikda istiqlol sharofati bilan milliy qadriyatlarimizga keng yo'llar ochilayotgan bir paytda shoyadki to'ylarimizda lapar aytish

an'analari yana qaytadan tiklansa, xalq laparlari qizlar bazmini qizdirish, unga jo'shqinlik va quvonch bag'ishlash bilan birga katta tarbiyaviy vazifa ham bajaradi. Chunki lapar kuylash yigit va qizlarni o'zaro halol so'zamollik qilish mahoratini egallashlariga imkon beradi. Qolaversa, yigit va qizlar o'rtasidagi intiq munosabatlarni nozik ishoralar bilan ifodalashga imkon bergan. Demak, lapar aytish jonli an'anasi marosimga musiqiy-emotsional ruh bag'ishlash bilan bir qatorda katta ma'naviy, axloqiy-tarbiyaviy vazifa ham ado etadi.

Xalq laparlarining mavzu doirasi va ijro shakllari yuzasidan yuqorida aytilgan fikr-mulohazalar umumlashtirilsa, quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1. Xalq laparlari asosan yigit va qizlar tomonidan ijro etilganligi va nikoh to'ylarining qizlar bazmida aytilganligi sababli ularda ishq-muhabbat mavzuyi yetakchilik qiladi. Mana shu yetakchi va doimiy mavzu doirasida vafo-sadoqat, bevafolik, hijron, armon, visol quvonchlari, ayrilish tashvishlari, g'am-anduh kabi hayotiy mavzular kuylanadi. Bu mavzular goh yigit tomonidan, goh qiz tomonidan tilga olinadi.

2. Xalq laparlarida hajviy mavzular ham keng ishlangan. Kishilardagi tabiiy nuqsonlardan tortib, ularning xarakteriga xos ishyoqmaslik, dangasalik, andishasizlik, uyatsizlik, insofsizlik va yulg'ichlik kabi illatlar ustidan kulinadi. Bunday xajviy mavzular xalq laparlarining ijtimoiy-g'oyaviy vazifasini, ularning faolligini oshiradi va katta tarbiyaviy vazifa ado etadi.

3. Xalq laparlari uzoq tarixiy taraqqiyotni bosib o'tdi. Mana shu jarayonda uning ijro shaklida ham turlicha o'zgarishlar yuz berdi. Asrimizning 50–60-yillaridan boshlab xalq hayoti, to'y va boshqa marosimlariga, bayram hamda sayllariga professional san'at kirib keldi. Mana shuning oqibatida to'ylardagi, sayllardagi laparlar o'rnini professional qo'shiqchilik egalladi. Xalq o'rtasida keng ommaviy ijro etilib kelingan laparlarning ayrimlari professional artistlar hamda havaskor xonandalar ijrosiga o'tib o'zlashdi. Natijada, xalq laparlarining professional san'atkorlar ijrosidagi shakli vujudga keldi. Bunday ijrodagi laparlar musiqa jo'rligida ijro etilishidan tashqari nisbiy barqaror matnlarga asoslanadi va ijro jarayonida badihago'ylik uchramaydi. San'atkorlar

ijrosidagi laparlar ommaviy namoyishlar tufayli keng variantlashgan. Masalan, Xorazm kabi mahalliy variantlari yuzaga kelib, ularning har biri ham san'atkor yoki havaskor xonandalar tomonidan kuylanadi.

4. Xalq laparlarining ommaviy ijro etilgan shakllari ham mavjud bo'lib, ular hozir lapar kuylash an'anasi so'ngach, ijro etilmay qoldi. Lekin laparlarning matnlari turli to'plamlarda, folklor arxivlari va to'plovchilarning daftarida saqlanib qolgan.

JANR POETIKASI

Xalq laparlarining badiiyati nazariy jihatdan bu-janr poetikasi demakdir. Binobarin, xalq laparlarida voqelikning o'ziga xos tarzda aks etishi, obrazlar tizimi va obrazli ifoda vositalari, lirik konflikt va uning in'ikosi, she'riy shakl muammolari bevosita lapar janrining poetik xususiyatlarini tadqiq etishini tashkil etadi. Shuning uchun ham janr kategoriyasi folklor asarlari poetikasini yoritishda eng muhim va belgilovchi nuqta sanaladi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, istalgan matnning poetikasini tahlil qilish ana shu matn mansub bo'lgan janr badiiyatini yoritishga olib keladi.

O'zbek xalq laparlari badiiyati haqida so'z ketar ekan, eng avvalo, bir narsani-laparlar badiiyatini tadqiq etish tarixi haqida bir og'iz to'htalmay o'tib bo'lmaydi. Shu jihatdan qaralsa, o'zbek xalq laparlari haqida ozmi-ko'pmi mulohazalar bildirgan Elbek, F.Fitrat, M.Alaviya va B.Sarimsoqovlar mazkur janrning badiiyati haqida deyarli to'xtalmaganlar. Bunga sabab, birinchidan, ular mazkur janr haqida umumiy tarzda axborot berishni nazarda tutgan bo'lsalar, ikkinchidan, u paytlarda muayyan janrlar poetikasini tekshirish tajribasi hali folklorshunosligimizda u qadar keng urf bo'lmagan edi. Shu bois bizning xalq laparlari badiiyatiga oid fikr-mulohazalarimiz ana shu yo'ldagi dastlabki izlanishlar sifatida qaralishi lozim.

Ma'lumki, har bir janrning tasvir hamda ifoda imkoniyatlariga qarab real voqelik turli janrlarda turlicha nisbatlarda aks etadi. Bu narsa adabiyotshunoslikda umumiy tarzda janr imkoniyatlari deb yuritiladi. Xuddi shu jihatdan laparlarga murojaat etsak, mazkur janrning o'ziga xos qamrov imkoniyatlari mavjudligini ko'ramiz.

Eng avvalo, shuni aytish kerakki, lapar xalq lirikasining mustaqil janri bo'lib, u voqelikni shaxsning oniy kechinmalari orqali aks ettiradi. Lapar ikki shaxsning o'zaro muloqat (dialog)i shaklida ijro etilganligi sababli oniy kechinma miqyosi ham odatdagi lirik qo'shiqlar qamroviga nisbatan kengroq bo'ladi. Bundan tashqari, kechinma ko'p hollarda, o'zaro bir-biriga zid xarakterga ega bo'ladi. Ijrochilar bevosita so'z, xatti-harakat, mimika yordamida o'zlarining qalb kechinmalarini tomoshabinlar (tinglovchilar) oldida bayon etishlari bilan laparlar muayyan darajada dramatik turga o'xshab ketadi. Chunki so'zlar vositasida ifodalangan kechinmalar bevosita ijro paytidagi zamon bilan hamnafas yangraydi. Bu xususiyat ham drama turiga oid janrlarga xos xususiyat sanaladi.

Lapar ijrochilari (yigit va qiz, ayol yoki erkak) ijro paytida ilgaridan o'zlariga ma'lum bo'lgan, aytib yurgan matnlarni kuylaydilar. Ilgari, ya'ni lapar janri eng gullab-yashnagan davrlarda, lapar aytuvchilar vaziyatga moslab yangi-yangi lapar bandlarini badeha yo'li bilan yaratganlar. Shu yo'l bilan lapar janri har bir bazm yoki saylda, bayram va tantanalarda yangi-yangi namunalar bilan boyib borgan. Keyinchalik lapargo'ylarning kamayib ketishi, janr ijrosida ko'proq an'anaviy bandlarni kuylash, asta-sekin ijro jarayonida badehago'ylikning, demakki, ijodiylikning so'nishiga olib keldi. Mana shundan keyin lapar ijrochilari lapar kechalarida o'zlari bilgan an'anaviy namunalarga murojaat eta boshladilar. Masalan, quyidagi lapar bandi mavjud manbalarning barchasida aynan bir xil mazmun va shaklda keltiriladi:

Qiz: – Daryoning naryog'ida bir tup g'o'za,
U g'o'zaning tagida oltin ko'za.
Jon yanga, jonim yanga, arzim sizga,
O'ynashga ruxsat bering qora ko'zga.

Ushbu an'anaviy lapar misralarini qachonlardir ijodkor laparchi yaratgan. Keyinchalik bu misralar o'zga ijrochilar tomonidan yodlab olinib, muayyan vaziyat va sharoitlarda hech o'zgartirilmay kuylanaveradi. Keyingi davrlar laparchilik an'anasida yuzaga kelgan bunday holat bizga quyidagicha xulosaga kelish uchun asos bo'la oladi.

Birinchisi-lapar aytish bazmga emotsional ruh bag'ishlash barobarida yoshlar o'rtasida bir-birlariga o'z dillarini, dilda yashirinib yotgan orzu-armonlarini bayon etishga ham imkon beradi. Mana shundan kelib chiqsa, yuqoridagi lapar matni yigit va qiz o'rtasida axborot berish hamda uni qabul qilib olish vazifasini ado etadi.

Ikkinchisi-lapar aytuvchi shaxslar ijro paytida lirik axborotni bir-birlariga shunchaki yetkazuvchi va uni qabul qilib oluvchilargina emas. Ular ayni paytda o'zlarining dillaridagi tuyg'ularni ham tayyor matnlar vositasida ifodalovchilar hisoblanadilar. Chunki ular muayyan sharoit va vaziyat, qalb kechinmalarining da'vatiga qarab matn tanlaydilar. Tanlangan an'anaviy matn esa ijrochining his-tuyg'ulari bilan yo'g'rilib butunlay o'zgacha mohiyat, ohang va ta'sirchanlik kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan misralarga jiddiyroq ahamiyat bering. Unda o'z sevgan yigiti bilan uchrasha olmayotgan, dili hijron azobida qon bo'lgan qizning nolasi yashiringan. Darhaqiqat, o'zbek xonadonlarida qizning yurish-turishidan, xatti-harakatidan ota-ona va yangalar xabardor bo'lishgan. Yanga-akaning xotini esa ko'pincha qayni-singil bilan sirdosh bo'lgan. Xalqimizga xos bo'lgan ana shu milliy kalorit lapar misralarida o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham qayni-singil haddi sig'ib o'z yangasidan sevgan yigiti bilan visol damlariga yetishga ijozat so'ramoqda. Demak, lapar aytuvchilar ijro jarayonida o'z rolini sidqidildan ado etayotgan mohir aktyorlarga o'xshab ketsalar ham, biroq ijro etayotgan matnlarning o'z dardlariga, kechinmalariga mosligiga qarab ularga o'xshata olmaymiz. Ular ijro jarayonida har bir an'anaviy matnni ham ijodiy o'zlashtirib, unga o'zlarining qalb qo'rlarini to'kib, qaytadan hissiy idrok etib kuylaydilar. Shu bois ham lapar ijrosi paytida aytilgan har bir an'anaviy matn to'la ma'noda original matn sifatida jaranglaydi.

Quyidagi lapar matni oshiqi beqaror yigit tilidan butunlay betakror dil izhori sifatida yangraydi:

– Lapar aytib ishqingizda kuyaman, yor,
Laparni aytib-aytib bo'laman zor.
Laparni sizga ma'qul qilaman deb,
Doimo xalq ichida bo'laman xor.

Lapar misralaridan ma'lum bo'ladiki, oshiq yigit lapar aytib, o'z sevgisiga beparvo qizni maftun etaman deb el-xalq ichida kulgiga, ta'na-malomatga qoladi. Agar lapar ijrochisining tabiiy holati, kechinmalari va xatti-harakati lapar mazmuniga mos kelmasa, unday ijroning tinglovchilarga ta'siri, lapardagi misralar qatidan joy olgan otashnok mehr, dil harorati ko'ngildagidek bo'lmaydi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, laparda lirik qo'shiq, yor-yor, kelin salom kabi xalq lirikasi janrlaridan farqli o'laroq ijro jarayonida ijrochi va ijodkor shaxsiyati tamoman birlashib ketadi. Demak, laparlarda lirik qahramon obrazi faqat lirik ijrochi shaxsiyati orqali namoyon bo'ladi.

Xalq laparlarida voqelikni aks etishi miqyosi haqida gap ketganda, eng avvalo, janrning mavzu doirasidan kelib chiqib fikr yuritish lozim. Chunki mavzu doirasi xalq laparlarining mazmuniy qamrovini belgilovchi mezon hisoblanadi. Mana shu jihatdan qaralsa, laparlarda oshiq va ma'shuqa o'rtasidagi turli munosabatlar; vafodorlik va bevafolik, visol sururi va ayriliq azoblari, orzu-umid va cheksiz armon kabilar aksariyat laparlarning mazmuniy qamrovini tashkil etsa; hajviy laparlarda dangasalik, beodoblik, yolg'onchilik, nopoklik kabi ijtimoiy illatlarni tanqid qilish bilan birga tabiiy nuqsonlarga ega bo'lgan shaxslar o'rtasidagi komik xarakterdagi aytishuvlar kabi mazmuniy qamrov doirasini tashkil etadi. Yuqorida qayd etilgan hayotiy mazmun qamrovi janrning imkoniyatlari bilan shartlangan holda oniy kechinmalar sifatida ifodalanadi. Chunki xalq laparlarida keng epiklik, batafsil tasvir kabilar uchramaydi. «Yor, nimalar devdim sizga» lapari fikrimizning dalili bo'la oladi.

Laparda ma'shuqaning oshiq yigitga noz-adolari, da'vat va topshiriqlari, yigitning qizga bergan javoblari ifodalangan.

O'z sevgilisining barcha talabalarini so'zsiz bajarishidan mamnun bo'lgan qiz o'sma olib kelishi haqidagi iltimosni eslatish bilan lapar boshlanadi:

Qiz: – Yor, nimalar devdim sizga,
Yana nimalar devdim sizga,
O'smalar oling voya, yor, bizga.

Qizning talabidan mamnun bo'lgan yigit sevgilisining o'sma qo'yib, yanada go'zal va nazokatli bo'lishini aytib, uning talabini so'zsiz bajarajakligini bildiradi:

Yigit: – O'smalar qo'yvolib, qo'yvolib,
Uchirib kelasiz-a, yor, bizga,
Kuydirib kelasiz-a, yor, bizga.

O'z talablarining so'zsiz amalga oshishini bilgan qiz yoriga yana boshqa bir talab qo'yadi:

Qiz: – Yor, nimalar devdim sizga,
Yana nimalar devdim sizga,
Atlaslar oling voya, yor, bizga,
Atlaslar oling voya, yor, bizga.

Yigit: – Atlaslarni kiyvolib, kiyvolib,
Qilpillab kelasiz-a, yor, bizga,
Lovillab kelasiz-a, yor, bizga.

Mana shu tariqa lapar qizning yigitga qo'ygan talablarini bildirishi, ana shu talablarning bajarilishi tufayli ma'shuqaning yanada go'zal va atofatga to'lishini ifodalovchi oshiqning dil so'zlarini bayon etishdan ashkil topgan. Laparda aks etgan yigit va qizning o'zaro muloqoti, makon va zamoni o'zgarmaydi. Chunki lirik makon va zamon lirik qahramon echinmasi miqyosi doirasida amal qilish na faqat xalq lirikasi, balki ozma she'riyat uchun ham bir xilda amal qiluvchi qonuniyatdir.

Xalq laparlaridagi obrazlar tizimi ham o'ziga xos bo'lib, ushbu izimni oshiq, ma'shuqa, ularning ota-onasi, raqib (ag'yor), yalqov, nehnatsevar inson va tabiiy nuqsonga ega bo'lgan shaxslar tashkil tadiki, bu narsa janrning hayotiy qamrov doirasi bilan bog'liqdir. Chunki laparda aks etmagan hayotiy mavzu bilan aloqador obrazlarning anr tarkibiga kirishiga imkon bo'lmaydi.

Laparlardagi obrazlar tizimi haqida biz umumiy tarzda fikr yuritdik. slida har bir jamlovchi obraz o'z ichida turli-tuman xarakterdagi

obrazlarni qamrab oladi. Masalan, oshiq vafodor yoki bevafo bo'lishi mumkin. Ma'shuqa ham har xil bo'ladi. Ota-onalar obrazi ham xuddi shunday, ya'ni ikki yoshning sevgisiga xayrxoh yoki qarshi bo'lishi mumkin. Shu jihatdan qaralsa, xalq laparlaridagi obrazlar tizimining doirasi keng va rang-barangdir. Masalan, quyidagi lapar bandida o'z ma'shuqasini yor deyishga uyaladigan bevafo oshiq obrazi haqida so'z yuritilgan:

Yigit: – Daryoning u yuzida minoraman,
Yugurib borib minoraga suyolaman.
Ichi zarrin sirti kumush piyolaman,
Men seni yor degani uyolaman.

Quyidagi lapar bandida esa qizning yigitga turmushga chiqishdan norozi ona obrazi haqida kuylanadi:

Yigit: – Daryoning naryog'ida shaftolizor,
Shaftolizor tagida qizlar bozor.
Otangiz berar bo'lsa, biz xaridor,
Onangiz tillaridan xudo bezor.

Xulosa qilib aytganda, laparlardagi obrazlar tizimi o'ziga xos bo'lib, ularning barchasi lirik konflikt yechimida, lirik voqealar rivojida faol ishtirok etadilar. Shu bois xalq laparlari jo'shqin, tinglovchini maftun etadigan bir tarzda ijro etiladi.

Yuqorida lirik konflikt atamasini ishlatdik. Binobarin, laparlardagi konflikt va uning yechimi haqida qisqacha to'xtalib o'tish joiz ko'rindi.

Lapardagi konflikt yigit va qiz, yigit va qizning ota-onasi, yigit hamda qizga oshiq bo'lgan raqib, aldangan qiz va uning yori, mehnatsevar inson va yalqov shaxs, tabiiy nuqsonga ega bo'lgan shaxslar (masalan, cho'tir va buqoq) kabilar o'rtasidagi ziddiyatlardan tashkil topgan.

Ijrochilarning keskin ikki qutbga aloqadorligi, lirik konfliktning ana shu tomonlar o'rtasida keskin kechishi xalq laparlarining dialogik nutq shaklida ijro etilishiga sabab bo'lgan.

Nutqning ikki shaxs o'rtasida savol-javob, bahs-munozara tarzida kechishi tinglovchilarda mazkur janrga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Chunki ikki lirik obrazning dramatizmga to'la qalb kechinmalarini butun jo'shqinligi, ziddiyatliligi bilan ifodalash tinlovchilarning diqqat-e'tiborini, fikri-zikrini cho'lg'ab olishi tabiiy holdir. Shuning uchun ham, dialogik nutq shakli lapar janrining yetakchi kompozitsion usuli, bosh estetik tamoyili darajasiga ko'tarilgan.

Lapar ijrochilari bo'lmish yigit va qiz ayni paytda beqaror oshiq-mash'uqalar qiyofasida bir-birlari bilan aytishadilar. Bu aytishuvda yigit ma'shuqaning hajrida zoru sargardon yurgan oshiq sifatida sevgilisining vasliga erishish uchun lozim bo'lgan narsa va shartlarni majoziy yo'lda savol berish orqali ifodalaydi. Qiz ham berilgan savolga majoziy yo'l bilan javob berish orqali visolga erishish mutlaqo imkonsiz narsa ekanligini ma'lum qiladi. Mana shu tariqa xalq laparlarida andisha, hayo pardasiga o'ralgan ikki qalb o'rtasidagi jonli, haroratli muloqot yuzaga keladi.

O'zbek xalq laparlaridagi dialog hamma vaqt ham savol va javob tariqasida kechavermaydi. Ayrim laparlarda oshiq va ma'shuqa o'rtasidagi lirik muloqot dilkash bir hamdardlik, o'zaro mehribonlik kayfiyatlarini ham ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, Xorazm laparlaridan keltiriladigan quyidagi bandlar fikrimizning dalilidir.

Qiz: – Egnimda ko'ylagim gullari yitti,
Ko'pirda sevgilim keynimdan yetdi.
Ro'molim qaytarib yuzimdan o'pdi,
«O'pma» degan edim, qahr etib ketdi.

Yigit: – Botinkang o'kchasi saza beradi,
So'zlagan so'zlaring maza beradi.
Kelmay-kelmay bir keluvdim yoningga,
«O'pma» deganlaring azob beradi.

Sog'inch azobidan zada bo'lgan oshiq o'z yorini ko'prik ustida uchratadi va uning ro'molini qayirib yuzidan bo'sa oladi. Bundan o'zgalar xabardor bo'lib qolishidan xavotirlangan qiz yigitga «o'pma»

deydi. Mana shu birgina so'zdan xafa bo'lgan yigit sevgilisining rahmsizligidan zorlanadi. Lekin qiz ham yigitni intiqlik bilan kutgan, ammo o'zidagi bu holatni pinhon saqlaydi. Chunki haqiqiy ishq pinhona yonish, pinhona visol bilan maroqli.

Lapardagi holat, vaziyat ikki yoshning baxtli umr kechirishilariga, bir-birlariga vafodor bo'lishlariga xayrixohlik ruhi bilan sug'orilgan. Shu bois ular uchrashgan makon ramziy detal bilan aloqador. Chunki ko'prik bir-biridan ayri bo'lgan ikki qirg'oqni tutashtiruvchi, bog'lovchi vositadir. Binobarin, yigit va qizning uchrashuvi ko'prik ustida yuz beradi. Demak, ular bir-birlarini sevadilar, ayriliq azobidan esa zada bo'lganlar. Shunga qaramay ma'shuqa o'z oshig'iga «o'pma» deb e'tiroz bildiradi. Bu hukm oshiqqa, uning samimiy muhabbatiga qarshi aytilgan e'tiroz emas, balki xalqimizning milliy ruhiga xos ibo va andisha yuzasidan aytilgan so'z edi. Mana shuning uchun laparning navbatdagi bandida qiz o'z iqrorini, ichki kechinmasini bayon etib, har qanday visolning o'z o'rni, vaziyati bor, demoqchiday bo'ladi:

Qiz: – Qibla yonda bir bog'im bor anjirli,
Qachon borsam, darvozasi zanjirli.
Men seni sevaman, bilsang qanchalik,
Uyqu mazalimi, yor mazalimi?

Qizning aytgan so'zlariga, ginasiga e'tibor bering. Qibla tomonda, ya'ni xilvat bir joyda, kishilar ko'zidan ovloqroq joyda bir bog'i bor. qiz ana shu ovloq bog'da yigit bilan visolga borishni istaydi. Kun botib, qorong'ulik tushgach, yigitni o'sha bog'da kutadi. Ammo bundan bexabar, beparvo yigit uxlab qoladi. Yuqoridagi lapar bandida sevgilisiga intizor qizning ichki iqrori, dardi va yigitning beparvoligidan noligan «zori» ifodalangan. Shu bois bandning to'rtinchi misrasida u kesatib «uyqu mazalimi, yor mazalimi» deya savol beradi.

Visol onlarining lazzatini tatimagan, bunday onlarning shukuhidan yonmagan oshiq, albatta uyqu lazzatini afzal deb biladi. O'z kesatig'i bilan qiz «sen odamlar ko'p o'tadigan ko'prik ustida o'pib, meni barchaning oldida sharmanda qilma, agar farosating yetsa, tunda uyquni

tark etib, ovloq ana shu boqqa kel. Men ham seni sevaman, ammo bu sevgini hammaga oshkor etib, ta'na-yu malomatga qolishning nima hojati bor» demoqchi. Mana shundan so'ng yigit qizning dashnomini, uning nimaga ishora qilayotganini anglab yetadi:

Yigit: – Nomoshomda chiqqan oylar botmagay,
Shu yorimga kelgan davlat qaytmagay.
Kelmay-kelmay bil keluvdim bu elga,
To'qqiz oqshomgacha tonglar otmagay.

Mazkur bandda yigitning o'z xatosini anglab yetganligi, endi ana shu ovloq bog'da namozshomdan keyin visolga borajakligi va «to'qqiz oqshom» gacha, ya'ni tongga qadar bir bo'lajakligi nozik ishora bilan ifodalanmoqda.

Demak, laparga xos dialog usulidagi kompozitsiya, bir tomondan, obrazlarning ruhiy ahvolini, ichki kechinmalar dramatizmining tarangligini tinglovchilarga to'laroq yetkazishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, asarni oddiy bayonchilikdan qutqaradi. Bayonchilik esa lirik janrlar uchun xos xususiyat emas. Uchinchidan, har bir to'rtlik bandning o'zga shaxs tilidan ijro etilishi asarga nisbatan bo'lgan tinglovchilarning qiziqishini kuchaytiradi, ularning diqqatini lapardagi voqeaga, ruhiy kechinmalarga kuchliroq jalb etishga xizmat qiladi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, dialog lapar janri uchun faqat shakliy usul emas, balki janrning bevosita hayotiy, g'oyaviy-estetik vazifasini ado etishga xizmat qiluvchi muhim kompozitsion usuldir. To'rtinchidan, har bir to'rtlikning o'zga shaxs tomonidan ijro etilishi asardagi polifoniyaning (ko'p ovozlikning) kuchayishiga olib keladi. Polifoniya esa asar qahramonlarining hayotga, insonlarga bo'lgan munosabatlarini aniq va lo'nda ifodalashga xizmat qiladi.

Lapar o'tmishda qizlar bazmini shod-xurramlik bilan kechishini ta'minlagan, ularning fayzli o'tishini ta'minlashgagina xizmat qilgan janr bo'lib qolmay, u sevishgan dillarni nozik ishoralar bilan bog'lashga ham imkon bergan. Qiz va yigit o'rtasida aytilgan o'tli lapar misralari ularning qismatini, kelajagini bir umrga bog'lashga ham ko'maklashgan. Quyidagi laparda ana shunday holat kuzatiladi:

Yigit: – Bir ko'rib jamolingni,
Qalbim bo'ldi ming pora.
Nerdan duchor bo'libman,
Senday jilvali yora.

Qiz: – Sochim uchi jimalak,
Uchi mening qo'limda.
Oshiq yonmas bo'lama,
O'z yorining yo'linda.

Bir ko'rishdayoq oshiqi beqaror bo'lgan yigit o'z muhabbatini bayon etib, yorining visoliga yetishning chorasini topolmay qiynaladi. Biror najot topolmagach, taqdiridan noliydi va sevgilisidan ilinj qidiradi. Shunda ma'shuqa dadillik bilan o'z mehrini bildiradi. «Sochning jimalak uchi» detali va bu detalning qizning ixtiyori o'z qo'lida ekanligi, bu – «o'z-xohish-irodam o'z qo'limda agar sen arzisang, men sen bilan umrbod birga bo'lishim mumkin» deganidir. Biroq buning uchun oshiq ma'lum bir fursat sinovdan o'tishi, o'z mehri va sadoqatini bildirishi, qizning ishonchini oqlashi lozim. Agar oshiq yorning yo'lida intizorlik bilan yonmasa, uni kutmasa, bunday muhabbatning umri zavol topadi.

Qizning sevgi haqidagi so'zlaridan lol qolgan yigitning yuragiga shubha oralaydi, u qizning ko'ngil qo'ygan yori balki boshqadir, degan gumonga boradi. Qizning muhabbati faqat o'ziga qaratilganligiga to'la ishonch hosil qilishi uchun yigit o'smoqchilab savol bera boshlaydi:

Yigit: – Qoshing qorami, yorim,
Ko'zing olami, yorim.
Ko'ngildagi sevganing,
Bizday bolami, yorim?

Qizning muhabbatidan lol qolgan yigitning shubhalanishiga asosi bor. Chunki u qizdan bunday dalil iqrorni kutmagan edi. Mana shuning uchun yigitning yuragida bir-biriga zid kechinmalar dolg'alanadi. U qizga «sevganing bizga o'xshagan bolami» deb savol beradi. Aslida

ushbu so‘rov ostida «sening sevganing bizmi yoki boshqami» degan savol yotibdi. Ammo savolni shunday taxlitda ochiq aytishga unda jasorat yetishmaydi. Tahlikali xavotirda yonayotgan yigit qalbiga tinchlik, xotirjamlik bag‘ishlash maqsadida qiz nozik ishora bilan quyidagicha javob beradi:

– Qoshim qoradir, yorim,
Ko‘zim oladir, yorim.
Ko‘z ko‘nglimga o‘t solgan,
Sizday boladir, yorim.

Bu bilan qiz «mening yosh ko‘nglimga o‘t solgan siz o‘zingizsiz» demoqchi. Ammo bu iqrorni ochiq bayon etishga qizlik hayosi, ibosi yo‘l bermaydi. Shu bois u «sizday boladir» deya nozik ishora qiladi. Buni anglab yetgan yigitning notinch ko‘ngli o‘rniga tushadi.

To‘rt banddan iborat mana shu laparning o‘zidan anglashilib turibdiki, lirik qahramon qalb kechinmlarini, ruhiy dramatizmini to‘la va samimiy ifodalashda laparga xos dialogik shakldan qulayroq usul yo‘q.

Xullas, estetik jihatdan qaralsa, asarda o‘z nutqi bilan ishtirok etish va o‘z so‘zlari bilan o‘zligini namoyish etish jihatidan lapar janri dramatik turga yaqin tursa, ruhiy holatlarni qalb kechinmalarini samimiy va bevosita ifodalashi bilan lirik turga mansubdir.

Ikki adabiy turga xos xususiyatlarini o‘zida jam etganligi uchun ham lapar kuchli dramatizmga ega bo‘lgan dil yonishlarini butun harorati bilan ifodalay oladi. Bizningcha, lapar janriga xos bu sinkretizm, ya’ni qorishiqlik qadimiy hodisa bo‘lib, laparni dialogik nutq shaklisiz tasavvur ham qilib bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, dialog shaklidagi kompozitsion usul lapar janrining vujudga kelishi, jonli ijro etilishi, yashovchanligini ta’minlashdan tashqari janrning g‘oyaviy-badiiy qimmatini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qisqa qilib aytganda, dialog shaklidagi kompozitsion tuzilishsiz lapar janrining o‘zi ham yo‘q.

Laparlardagi obrazlilikning yuzaga kelishida turli-tuman ko‘chimlar, tasviriy va ifodaviy vositalarning o‘rni katta. Chunki inson ongi, uning badiiy tafakkur tarzi obraz yaratishning asrlar mobaynida shakllangan yo‘l

va usullaridan foydalanishga mahkum. Sababi uzoq o'tmishda yuzaga kelgan metafora (istiora), metonomiya, sinekdoxa, litota kabi ko'chimlar; tashbeh, sifatlash, mubolag'a, zidlantirish (tazod), ritorik so'roq kabi tasvir va ifoda usullari badiiy ijod amaliyotida obrazlilikni ta'minlovchi muhim vositalar sifatida ming bor sinovlardan o'tib kelmoqda. O'zbek xalq laparlari ham mana shu tajribalardan xoli emas.

Ma'lumki, metafora narsalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslangan poetik ko'chim bo'lib, hamma vaqt ikki predmet o'rtasidagi o'xshashlik orqali yuzaga kelsa ham, biroq o'xshatishlardan farqli o'laroq, metaforada faqat o'xshatilmishning o'zi keltiriladi. Masalan:

Salom ayting, osmondagi yulduzlar,
Uyqum kelmas eslab kecha-kunduzlar.
Bog'da bo'lsa, xabar bering, yulduzlar,
Shahlo ko'zim, qizil yuzli sho'x qizlar.

Yuqoridagi lapar bandida uchta metaforik obraz mavjud. Birinchisi – «Osmondagi yulduzlar» – eng go'zal qizlar ma'nosini ifodalaydi. Ikkinchisi, – «yulduzlar»-qizlar ma'nosini anglatadi. Uchinchisi- «shahlo ko'zim»- shahlo ko'zli sevgilim ma'nosini bildiradi.

Metaforaning laparda, umuman she'riy asarda, bajargan vazifasiga qarab aytish mumkinki, birinchidan, poetik obrazning ta'sirchanligi ortadi. Shuning uchun bo'lsa kerak nafaqat xalq laparlarida, balki xalq she'riyatida metaforik ko'chim keng istefoda etiladi. So'zdagi ma'no ko'chimlariga asoslangan ko'chimlardan yana biri metonimiya bo'lib, unda obraz narsalar o'rtasidagi o'xshashsiz ko'chimga tayanib yaratiladi. Mavjud atamashunoslikka oid izohli lug'atlarda ko'chimning mazkur turi haqida «metonimiyada biror narsa yoki voqea-hodisaning nomi boshqasiga ko'chiriladi, u boshqa nom bilan ifodalanadi, biroq bu nomlash predmet-narsalar o'rtasidagi o'xshashlikka emas, balki ular o'rtasidagi yaqinlikka, aloqadorlikka asoslanadi». Haqiqatan ham metonomiya obrazlilikni yuzaga keltirishda eng qulay vositalardan biri hisoblanadi. Masalan, quyidagi laparda muayyan joy nomini keltirish bilan parallelizmning birinchi misrasida ixchamlilikka erishilgan:

Nomdanakning usti dala, osti dala,
Ko'klam bo'lsa ochilar targ'il lola.
Sen o'zing yaxshi yigitni xushlaysan,
Ko'zingga ko'rinmaydi bizdek bola.

Agar joy nomi to'liq keltiriladigan bo'lsa, «Nomdanak degan qirning» deyilishi lozim edi. Biroq metonomiya talabiga ko'ra qir aytilmay, faqat «Nomdanak» oti keltirilgan xolos. Shunga qaramay bu joy nomini eshitganlar ko'z oldiga lolalar ochilgan qirlar kelaveradi. Ayrim laparlarda biror narsaning harakati bajaruvchi narsaning nomiga ko'chiriladi:

Qizlarjon, qiliqqinang qil yoradi,
Lablaringning shakari til yoradi.
Qoshlaring qozi bo'lib yurt so'rasa,
Kipriging jallod bo'lib bosh oladi.

Aslida, qil yoradigan qiliq ham, labning shirinligi ham, qosh va kiprik ham qizning o'ziga taalluqli. Lekin obrazning go'zalligi va noz-qarashmasini bo'rttirib ko'rsatish uchun metonimiyaga murojaat etilgan.

Xullas, metonomiya xalq laparlarida obraz yaratishning eng mahsuldor, eng ta'sirchan vositalaridan biri sanaladi. Obrazlilikni vujudga keltirishda ma'no ko'chimlaridan yana biri sinekdoxa ham katta o'rin egallaydi. Aslida sinekdoxa ham metonomiyaning bir ko'rinishidan iborat bo'lib, unda biror qism yoki bo'lak orqali narsaning to'liq, yaxlit holati anglatiladi.

Masalan:

Osmonda oy bordir, barmog'imda xol bordir,
Orqamga qaytib boqsam, qoshi qora yor bordir.
Qora qoshga yetaylik, qayrilma qoshga yetaylik,
Qora qosh qayrilmasa, dunyodan shundoq o'taylik.

Keltirilgan lapardagi «qora qosh», «qayrilma qosh» birikmalari orqali yorning to'liq va yaxlit obrazi yaratilgan.

Xullas, sinekdoxa xalq laparlarida obrazlilikni vujudga keltirishning eng unumli ko'chim turlaridan biri bo'lib xizmat qilgan.

Obrazning yorqin va aniq chiqishi, uning turli xislatlarini to'laroq tasvirlashda tashbeh (o'xshatish)larning ahamiyati beqiyos darajada kattadir. Shu bois xalq laparlarida o'xshatishlar keng istifoda etiladi. quyidagi laparda yorning ishq o'tida charaqlagan ko'zlari yonayotgan o'tga o'xshatilgan sevishgan yuraklarning harorati, muhabbatining kuch-qudrati cheksizligidan ham dalolat beradi:

Oq uyingga olma terdim, sanamadim jupmi, toq,
Ro'paramda o'ltiribdi qoshi qora, yuzi oq.
Qoshi qora, beti oqqa kim berar achchiq sharob,
Ko'zlari o'tday yonadir, qildi bag'rimni kabob.

Lapardagi o'xshatishlar faqat yorning husni-jamolini tasvirlashdagina qo'llanilmay, balki uning g'ururini, o'zini tutishini, xatti-harakatini tasvirlashda ham ishlatiladi. Quyida keltiriladigan lapar bandida yigitning mag'rur va erkin xatti-harakati, salomga egilib alik olmasligi, egilmasligi «tol xivichga» o'xshamasligiga tashbeh qilingan:

Qizil-qizil olma terdim tepa shoxidan egib,
Bir yigit o'tib borardir belbog'i yerga tegib.
Salom bersam, alik olmas tol xivichdek egilib,
O'stirgan onangga rahmat, o'lmagaysan ko'z tegib.

O'xshatish ma'shuqaning hijron azobida chekkan qiynoqlarini, rangining sarg'ayishini tasvirlashda juda ham qo'l keladi. Quyidagi laparda ana shunday holatni ko'ramiz:

Sarg'ayarman, sarg'ayarman sariq ipak rangidek,
Egilarman, bukilarman oshpichoqning bandidek.
Oshpichoq bandi kumush, bizning yor kelmas emish,
Bizning yor kelay desa, jo'ralari qo'ymas emish.

Oshpichoqning bandidek egilib-bukilish, sariq ipakdek sarg'ayish ayriliq dardining haddan ortiq ekanligini ifodalashga xizmat qiladi.

Ko'rinib turibdiki, o'xshatish obrazning ham ichki kechinmalarini, ham tashqi qiyofasini aniq tasvirlashda muhim rol o'ynagan.

Xullas, xalq laparlarida o'xshatishdan keng va o'rinli foydalanilgan. Eng muhimi shundaki, xalq laparlaridagi o'xshatishlarning barchasi o'ta hayotiy detallarga asoslangan. Bu narsa o'xshatilayotgan narsani tinglovchi ko'zi oldida tez jonlantirishga, obrazning ichki va tashqi qiyofasini aniq va oson tasavvur etilishiga yordam beradi.

Obrazdagi muayyan belgi, xususiyat va sifatni aniq ko'rsatib berish yoki ularni ta'kidlab, bo'rttirib aks ettirishda sifatlash (epitet) larning o'rni katta. O'zbek xalq laparlarida epitetlarning qo'llanilishi darajasi juda ham yuqori. Masalan:

Oq podsho podsholigini talashur,
Oq qo'lim kiftingga solsam yarashur.
O'ng qo'lim shona-shona, har qo'limda bir shona,
Ketaringda bera ketgan qizil olma nishona.

Mazkur banddagi «Oq qo'lim», «qizil olma» birikmalaridagi oq, qizil sifatlashlari narsaning belgi, xususiyatini aniq ifodalashga xizmat qiladi.

Quyidagi laparda esa sevimli yor obrazi «qizil gul» birikmasidagi «qizil» sifatlashi orqali ifodalangan:

Daryoning o'rtasidan yo'l solamiz,
Qizil gul novdasidan uy solamiz.
Qizil gul novdasi taram-taram,
Bizning yorning qoshlari qiygan qalam.

Ma'lumki, epitetlar narsa yoki shaxsning barqaror yoki beqaror belgilarini ifodalashiga qarab ikki xil bo'ladi. Shunga ko'ra, epitetlarni barqaror va barqaror bo'lmagan epitetlarga bo'lish mavjud.

Xalq laparlarida doimiy epitetlar ayniqsa ko'p istifoda etiladi. Bunga sabab shundaki, xalq lirikasidagi juda ko'p obrazlar an'anaviy tarakter kasb etib, ularga xos belgi-sifatlar ham barqarordirlar:

Qiz degan qip-qizil gul emasmi,
Oq deganing bir o'ttiz kun emasmi.

Qiz qizil gul bo'lganda, yigit-bulbul,
Avliyodek qizlarni tunamasmi?

Qizning qizil gulga mengzalishi, yigitning bulbulga o'xshatilish xalq lirikasi uchun, hattoki mumtoz she'riyat uchun ham an'anaviy sifatlash hisoblanadi. Shu bois xalq laparlarida obrazning tashqi va ichk qiyofasini aniq, ravshan va bo'rttirib tasvirlashda keng foydalaniladi.

Obrazlar o'rtasidagi ziddiyatlar, kelishmovchiliklar bevosita hayotiy qarama-qarshiliklarning in'ikosidan iborat bo'lib, ular tazoc (antiteza) deb ataluvchi badiiy usul vositasida ifodalanadi. Xalc laparlarida tazodning turli-tuman ko'rinishlari mavjud.

Inson vafodor, andishali, kamtar, oriyatli, odobli yorga duch kelsa u o'zini eng baxtli deb hisoblashi mumkin. Lekin yomon inson bilar qo'shilgan umr yashashga ham arzimaydi. Quyidagi lapar bandida yaxshi va yomon kishilarga yor bo'lishning afzalligi va nosozligi faqat tazod vositasidagina o'z ifodasini topgan.

Oting bozor deganda, oting bozor,
Tol-tolgina sochingni taroq yozar.
Yaxshi bilan o'ynashsang, ko'ngling bozor,
Yomon bilan o'ynashsang, ko'ngling ozor.

Yaxshi bilan yomon o'rtasidagi ziddiyat azaliy ziddiyatdir. Shuning uchun ham xalq laparlarida yahshi yor haqida, uning fazilatlari haqida cheksiz faxr-iftixor bilan so'z yuritilsa, yomon yorga duch kelgan taqdirlardan achinish, kuyinish bilan so'zlanadi:

Qizil gul harchand ochilsa, norcha bor,
Yaxshini bosgan izi hurmoncha bor.
Yaxshi bilan bir lahza o'ynab-kulsang,
Yomon bilan qirq yilgi umrcha bor.

Ba'zi laparlarda yigit va qiz obrazlari laparning dastlabki bandlarida oq yoki qora uzum obrazlariga majoziy tarzda qiyoslanadi. Biroq laparning keyingi misralaridan shu narsa oydinlashadiki, qiz va yigit o'rtasidagi mojaroga aralashib bo'lmaydi. Chunki oq uzum, qora

uzumni uzib bitta tog'araga tashlaganlaridek, mojaro sababkorlari ham bir-biriga qarindosh, ya'ni xolavachcha. Ular hozir urishsalar, bir fursatdan so'ng yana apoq-chapoq bo'lib ketaveradilar. Ularning qaysi biri oq, qaysi biri qora ekanligini bilib olish qiyin, chunki oqlik va qoralik har ikkisi o'rtasida tez-tez almashinib turadi. Ammo bunday laparlarda qo'llanilgan tazodlar yigit va qiz o'rtasida sodir bo'lib turadigan konfliktlarni umumiy tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi:

Oq uzum, qora uzumni uzdilar,
Shirasini tog'araga suzdilar.
Kimning o'g'li, kimning qizi dedilar,
Ikkalasi xolavachcha dedilar.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq laparlarida yaxshi va yomon obrazlari, ularning xatti-harakati, qilmishlari o'rtasidagi ziddiyatlar tazod vositasida yorqin ifodalanadi. Bundan tashqari, inson xarakteriga xos yuksaklik va pastlik, saxiylik va baxillik, qo'li ochiqlik va nokaslik kabi xislatlar ham tazod vositasida ifodalanganki, ular laparlardagi hayotiylikni orttirib, tinglovchilarning kuylanayotgan asarga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Xalq laparlarida obrazlarni jonli, bo'rttirib tasvirlashda mubolag'aning ham o'rni bor. Mubolag'a muayyan narsadagi u yoki bu xususiyatni, belgi va sifatni o'ta kuchaytirib, orttirib tasvirlashdan iborat. Bevosita mubolag'a vositasi orqali ijodkor tasvirlanayotgan bir narsani boshqalardan ajratib, alohida ta'kidlab ko'rsatishga, uni maqtash yoki masxara qilishga erishadi. Masalan, quyidagi lapar bandidan yorning go'zalligi, qoshlarining qoraligi, kipriklarining uzun va uchliligini kamonning o'qiga qiyoslab mubolag'a qilingan. Bu mubolag'a esa go'zal yor xajrida o'limga ham rozi bo'lib yurgan oshiqning tang holi, ma'shuqaning go'zalligi esa oshiqning o'ldirishga qodir vosita ekanligini badiiy ifodalashga xizmat qilgan:

Qoshlaring qorasiga qotgin meni,
Oshiqlar bozorida sotgin meni.
Oshiqlar bozorida olmasalar,
Kiprigingdan o'q qilib otgin meni.

Savol-javob tariqasida ijro etiladigan xalq laparlarida, ayniqsa nozik o'xshatishlarga asoslangan mubolag'alar ko'p istifoda etilgan Masalan, oshiq yorning qoshi qandayligini bilmoqchi bo'lganda ma'shuqa qoshining qiyiqligini qaldirg'ochning qanotiga o'xshatadi yorning ko'zini ko'rish istagini bildirganda u ohu ko'ziga ishora qiladi yorning sochi majnun tolga qiyoslanadi; yorning yuzi esa qizil gulga o'xshatiladi. Mana shu o'xshatishlarning barchasi faqat mubolag'a qilish orqali vujudga kelgan.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, xalq laparlarida mubolag'a ma'shuqaning husni-jamoli, noz-qarashmasi, xatti-harakati xislatlarin bo'rttirib tasvirlashga, shu orqali oshiq va ma'shuqa o'rtasidagi sevginin qudrati, ishq va vafodorlikning chek-chegarasi behad ulkanligin ta'kidlashga erishiladi. Shuning uchun ham mubolag'alar xalq laparla-ridagi badiiylikni kuchaytirishga, lapar misralarining ta'sirchanligin orttirishga faol xizmat qiluvchi tasviriy vosita sanaladilar.

Xalq laparlarida ritorik so'roq ham o'rni bilan qo'llanilgan. Ritorik so'roq esa fikrni so'roq shaklida tasdiqlashdan iborat bo'lib, u hech qachon javob talab qilmaydi. Chunki so'roqning o'zi tasdiqni ifodalab turadi va ifodaga kuchli hissiylik, yorqinlik va ta'sirchanlik bag'ishlaydi.

Ritorik so'roq qo'llanilgan laparlarda o'ziga xos ohang mavjud bo'ladi. Masalan, quyidagi laparda ma'shuqa yuzidagi xolning kattaligi va go'zalligi bevosita ritorik so'roq shaklidagi tasdiqdan anglashilib turibdi:

Ko'cha-kuying loy bo'lipti,
O'tgani joy bormikan?
Oq yuzingga xol tushipti,
O'pgani joy bormikan?

Birinchi ritorik so'roqning o'zi «Loy bo'lgan ko'cha-kuydan o'tgani joy bor» deya javobni anglatib turgan bo'lsa, ikkinchi ritorik so'roq esa «ha, o'pgani joy bor» javobini bildirib turibdi. Chunki har qanday loy ko'chadan ham o'tishning imkoni bor bo'lginidek,

har qanday xoli bor yuzdan ham o'psa bo'ladi. Demak, keltirilgan banddagi ritorik so'roqning vazifasi ifodani qiziqarli, ta'sirchan bayon etishdan iborat.

Dunyoda hech qachon o'lgan odam tirilib kelgan emas, agar o'lgan tirilib kelganda yig'lab qolgan odamning o'zi bo'lmasdi. O'limning ana shu dahshati, uning chorasizligini ifodalovchi quyidagi lapar bandida ritorik so'roq shaklidagi intonatsiya orqali ifodalangan:

O'ldi-o'ldi deganda o'lgan bormi?
O'lgan odam tirilib kelgan bormi?
O'lgan odam tirilib kelgan bo'lsa,
Ikki ko'zi jovdirab qolgan bormi?

Xullas, ritorik so'roqlar laparlarga o'ziga xos ruh, alohida ohang bag'ishlashi, so'roq shaklida tasdiq ma'nosini ifodalashi bilan nozik qochirmalar, kesatish va piching qilishiga imkon tug'dirishi bilan katta uslubiy ahamiyat kasb etadi. Ana shu xususiyatlari bilan ritorik so'roq xalq laparlarida keng o'rin tutuvchi stilistik vosita darajasiga yetgan.

O'zbek xalq laparlarida ayrim so'zlarni, gap yoki ayrim tovushlarni takrorlash orqali ma'lum bir fikrni ta'kidlab aytish, bo'rttirib tasvirlash maqsadida takror san'ati ham keng qo'llaniladi.

Ayrim laparlarning birinchi misrasidagi ba'zi so'zlar takrorlanib, o'sha so'z ma'nosini ta'kidlashga va ikkinchi misra uchun qofiyalashga imkon tug'dirish uchun xizmat qiladi. Masalan:

Anoyidir deganda, anoyidir,
Kovush-mahsi qizlarga binoyidir.

Yoki:

Buvishingdan deganda, buvishingdan,
Oyog'ingda qalayi kovushingdan.

Ayrim lapar bandlarining ikkinchi va uchinchi misralaridagi ayrim so'z yoki so'z birikmalari yoki butun gaplar takrorlanib, ular ifodalagan ma'noni ta'kidlab, bo'rttirib ifodalashga xizmat qiladilar:

Olti qizning ichida oting Anor,
Naqsh olmadek yuzingdan qonlar tomar.
Naqsh olmadek yuzingdan o'pich bersang,
O'z tengimni ichida ko'nglim qonar.

Yoki:

Narigi tog'da qor yog'sa, bunda qirov,
Aql bilan hushimni oldi birov.
Aql bilan hushimni olsa birov,
Yetsa-molim, yetmasa-jonim garov.

Xullas, takror san'ati muayyan fikrni ta'kidlab, bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qiluvchi muhim stilistik usullardan biri sifatida xalq laparlarida ko'p qo'llaniladi.

Yuqoridagi qisqacha qaydlardan ma'lum bo'ladiki, xalq laparlarida obraz va obrazlilikni vujudga keltirishda turli-tuman ko'chimlardan, tashbeh, tazod, sifatlash (epitet), mubolag'a, takror kabi ko'plab tasviriy hamda ifoda vositalaridan foydalaniladi. Bevosita ana shunday usul va vositalar tufayligina laparlar yuksak badiiylikka erishadilar.

Endi laparlarning strofik (band) tuzilishi haqida ham ikki og'iz to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi.

O'zbek, umuman turkiy xalqlar, og'zaki she'riyatida to'rtlik shaklidagi band tuzilishi juda qadimdan buyon ko'p uchraydigan she'riy shakl hisoblanadi. Buning bosh sababi shundaki, to'rt misradan iborat bandda ritmik-sintaktik va psixologik parallelizmlar vositasida fikrni aniq va lo'nda ifodalash imkoniyati bor. Chunki to'rt misra o'zaro ritmik jihatdan bir-birini ta'kidlab turadi. Misralarning qofiyalanish, ya'ni ohangdor qilishning imkoniyati boy bo'ladi. Mana shu bois xalq laparlarining she'riy tuzilishi asosida ham akademik V. M. Jirmunskiy ta'kidlab ko'rsatgan ritmik-sintaktik parallelizmlar yotadi.

To'rtlik misralarning sintaktik jihatdan bir xilda, teng hajmda takrorlanib kelishi har qanday ifodani ham she'riy ritmga solishi tabiiy.

To‘rtlik shaklidagi band tuzilishining eng qulay fikr ifodalash imkoniyati bevosita tematik-psixologik parallelizmlar orqali bayon etish hisoblanadi.

Psixologik parallelizmlar juda uzoq o‘tmishdan buyon dastlab xalq she’riyatida, keyinroq yozma poeziyada ko‘p qo‘llanilib kelinadi. Akademik A.N.Veselovskiy parallelizmlarning tarixini qadimgi kishilarning animistik tasavvuriga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Bu ta’kiddan shu narsa ma’lum bo‘ladikim, psixologik parallelizmlar ijodkorning insonga xos biror xislatini, xatti-harakatini tabiatdagi shunga o‘xshash xislat yoki harakatga shunchaki qiyoslashidan iborat emas. Ibtidoiy inson hamma vaqt tabiat va inson o‘rtasida uzviy ruhiy bog‘lanish mavjud: inson va tabiiy narsa o‘rtasidagi o‘xshashlik tasodifiy emas, balki qonuniy hodisadir deb o‘ylagan. Mana shuning uchun ham xalq she’riyatida parallelizmlar juda ko‘p va o‘rinli istifoda etilgan.

Badiiy asarning parallelizmga asoslangan qurilishi adabiyotshunoslikda amebey kompozitsiya deb yuritiladi. O‘zbek xalq laparlarining deyarli barchasi parallelizmli, ya’ni amebeyli qurilishga ega:

Dalada yakka terak yaydog‘asi,
Men bo‘lay yolg‘iz og‘am sadog‘asi.
Qo‘y bo‘lsin, qo‘chqor bo‘lsin sadog‘asi,
Men bo‘lay boshidagi sarjig‘asi.

Tep-tekis yaydoq dalada yakka terak eng ardoqli narsa sanaladi. U kishiga panoh, mo‘ljal makoni. Shu bois bu terakka dalaga yo‘li tushgan har bir kimsa sig‘inadi va najot ko‘zi bilan boqadi. Muhabbat sahrosi ham poyonsiz hudud bo‘lib, unda inson faqat yolg‘iz o‘zi sevgan kishisiga suyanib yashaydi. Sevilgan va sevgan inson muhabbat sahrosida ham panoh, ham dalda, ham hayotiy mo‘ljal. Demak, daladagi yolg‘iz terak bilan ishq sahrosidagi yolg‘iz og‘aning o‘rtasida juda ko‘p jihatlardan o‘xshashlik, ruhiy yaqinlik mavjud. Ko‘rinib turibdiki, yolg‘iz og‘aning qadr-qimmati, ma’shuqa hayotida tutgan o‘rnini chuqur his etishda psixologik parallelizm asosiy rol o‘ynamoqda.

Quyidagi lapar bandida xalqimiz urf-odatlarining nihoyatda murakkab va qiyinligi, ularni to'la amalga oshirish har kimning ham qo'lidan kelmasligini chuqurroq ifodalash uchun el ichidan qiz tanlashga chiqqan kimsalarning holati toyg'onchoqqa ot solgan kishiga o'xshatiladi. Darhaqiqat, toyg'onchoq muzda ot qanday qiyin vaziyatga tushsa, qiz tanlashga chiqqanlar ham ana shu otga o'xshagan holatda bo'ladilar. Kichik bir e'tiborsizlik, ehtiyotsizlik ularning maqsadini puchga chiqarishi hech gap emas. Laparda qiz tanlashday vazifaning o'ta qiyin ekanligini muz ustida ot yurishiday qiyin va mas'uliyatli ekanligi faqat psixologik parallelizm vositasidagina aniq, lo'nda va chuqur ifodalash mumkin.

Toychoqqa ot solganda toyishadi,
Ustidagi egar-jadbuq mayishadi.
Qiz tanlashga elimizga nega kelding,
Qalin uchun qovurg'ang qayishadi.

Psixologik parallelizmlarning ikki uzvli, ko'p uzvli va inkor etuvchi turlari mavjud. Yuqorida biz ikki qismli parrallelizmlarning ayrim namunalarini ko'rib o'tdik. Birinchi misolda yolg'iz terak obrazi bilan yolg'iz og'a (yor) obrazi, keyingi laparda esa toyg'onchoqdagi ot va qiz tanlashdek qiyin ishga bel bog'lagan shaxs obrazi qiyoslangan. Quyidagi laparda esa uchta obraz: suv ichgan jo'xorining poya bo'lishi, boshga soya bergan oq qalpoq va o'z suyganiga berilmagan qiz obrazi. Poya bo'lish uchun suv quyish kerak, soya berish uchun qalpoq kerak, qiz bolaning baxtli yashashi uchun uni suyganiga berish kerak. Demak, uchta mustaqil obrazning o'xshashligi psixologik parallelizmga asos bo'lgan:

Jo'xoriga suv quysang, poya bo'lur,
Oq qalpog'im boshimga soya bo'lur.
Qiz bolani bermasa suyganiga,
Suymagani qo'lida zoye bo'lur.

Xullas, xalq laparlarida psixologik parallelizm fikr bayon etishning muhim vositasi sifatida juda ko'p qo'llanilgan. Bu narsa xalq laparlarining amebey qurilishi qadimiy hodisa ekanligidan, binobarin, xalq laparlarining ham ildizlari juda qadimiy ekanligidan dalolat beradi.

O'zbek xalq laparlari turkiy xalqlar she'riyatida qadimdan yetakchilik qilib kelgan barmoq tizimida yaratilib kelinadi. Barmoq tizimi esa misralardagi hijolarning miqdoriy tengligiga asoslanadi. Shu tufayli barmoq tizimida vaznlar rang-barangligi mavjud. Masalan, quyidagi lapar bandi o'n bir hijoli vaznda yaratilgan:

Etigingning poshnasidan taniyman – 11
Qadamingga harna borim sanayman. – 11
Har o'tganda bir bor kirib ketmasang, – 11
Kecha-kunduz xuni biyron yig'layman. – 11

O'n bir hijoli ushbu lapar misralari esa 4-4-3 nisbatdagi turoqlardan tashkil topgan. Mana shunday turoqlardan tashkil topgan o'n bir hijoli vazn o'zbek xalq laparlarida ko'p uchraydi. Ammo 4-3-4 nisbatdagi turoqlardan tashkil topgan o'n bir hijoli vazn ham halq laparlariga xos vazn hisoblanadi:

Yuqoridan kelaman ot o'ynatib, – 11
Qushxonangga tushaman yor yo'qotib. – 11
Qushxonangning eshigi archamidi, – 11
Oyimlarning kiygani parchamidi. – 11

O'zbek xalq laparlarida o'n ikki hijoli vazn ham ko'p qo'llaniladi va ular 4-4-4 nisbatidagi turoqlardan tashkil topgan:

Daryolarning ul yuzida ko'rdim sizi, – 12
Chin muhabbat o'ti bilan suydim sizi. – 12
Chin muhabbat o'ti bilan suysam sizi, – 12
Yoshligimda ko'z ochib-o, ko'rdim sizi. – 12

Xalq laparlarining vazni haqida so‘z borar ekan, eng avvalo shuni alohida ta’kidlash lozim. Lapar dastlab an’anaviy band bilan boshlanadi va shu banddan keyin ijro etiladigan band ham xuddi ana shu vaznda bo‘lishi lozim. Biroq keyinroq ana shu an’ana buzilgan.

Masalan, M.Alaviya to‘plab nashr ettirgan laparlar an’anaviy boshlamasining o‘zida ikki xil vazn ishtirok etgan. Masalan, bandning dastlabki ikki misrasi o‘n bir hijoli vaznda bo‘lsa, keyingi ikki misrasi o‘n besh hijoli vazndadir:

Laparning avval boshi marmar toshi, – 11
Chit ro‘molni ho‘l qilgan ko‘zning yoshi. – 11
Chit ro‘moli xosa-yo, qo‘limda chinni kosa-yo, – 15
Qizlar lapar aytganda yigitlar quloq solsa-yo. – 15

Qizlar tomonidan aytilgan an’anaviy boshlama lapar bandining keyingi o‘n besh hijoli vazn bilan aytilgan ikki misrasi yigitlar tomonidan aytilgan band uchun asosiy vazn o‘lchovi vazifasini ado etadi:

Lapar aytsang, to‘yda aytgin, suluv qizlar qocharo, – 15
Ochilmagan gul g‘unchani bulbul kelib ocharo. – 15
Ey bulbul, muncha sayraysan tog‘i toshni uydirib, – 15
Issiq, sovuq suv ichasan moy yuraging kuydirib. – 15

O‘n besh hijoli vazn esa ko‘pincha 4-4-4-3 nisbatidagi turoqlardan tashkil topgan.

O‘zbek xalq laparlarining vaznini kuzatish shuni ko‘rsatadiki, ayrim lapar bandlari ikki xil vaznning muayyan tartibda takrorlanib kelishidan tashkil topgan.

Masalan:

Tom boshida o‘ltiribdir, – 8
Bo‘tako‘zlik bir juvon. – 7
Olma bersam, noz qiladir, – 8
Bo‘yni oltindek juvon. – 7

Sakkiz va yetti hijoli vazn barmoq tizimida juda keng tarqalgan bo'lib, ular yengil va o'ynoqi maromga ega. Har ikki vaznning bir bandda ma'lum tartibda qo'llanilishi esa laparga yengil marom, o'ynoqi ohang bag'ishlagan. Xullas, o'zbek xalq laparlari uchun yetakchi she'riy vazn barmoq tizimi bo'lib, uning yetti, sakkiz, o'n bir, o'n ikki va o'n besh hijoli namunalari keng istifoda etilgan. Biroq har bir vazn turining ichki turoqlanish nisbati turlicha variantlarga ega. Masalan: yetti hijoli vazn 4-3 yoki 3-4 ; sakkiz hijoli vazn 4-4; o'n bir hijoli vazn 4-4-3 yoki 4-3-4; o'n ikki hijoli vazn 4-4-4; o'n besh hijoli vazn 4-4-4-3 yoki 4-4-3-4 kabi. Bir xil vaznning ichki turoqlanish nisbatidagi kombinatsiyalar laparlarning ijro maromini rang-baranglashtirib, tinglovchilarni zerikarli bir xillikdan qutqaradi.

Xalq laparlarining ohangdor chiqishi, tinglovchilarga yoqimliligi faqat ularning ritmik uyg'unligi va vazndagi mutanosiblikkagina bog'liq emas. Laparlardagi ohangdorlik ulardagi qofiya tabiati, qofiyalanish tartibiga ham bog'liqdir.

Ma'lumki, qofiya she'riy misralar oxiridagi tovush tarkibi jihatidan bir-biriga uyg'un so'zlarning qo'llanishidan iborat. Shu bois xalq laparlaridan qofiyalar tabiatiga alohida ahamiyat beriladi.

Eng avvalo, laparlardagi qofiyalanish tartibi haqida. Qofiya faqat misralarni ohangdosh so'zlar bilan tugashidan iborat bo'lib qolmay, balki u misralarning o'zaro birikib, bandlarning tashkil topishida ham yetakchi rol o'ynaydi.

Xalq laparlarining band (strofik) tuzilishi asosan to'rtlik shaklidan iborat ekanligi yuqorida qayd etilgan edi. To'rtlik bandlardagi misralarning qofiyalanish tartibini kuzatish shuni ko'rsatadiki, barcha bandlarning qofiyalanish tartibi bir xil emas. Ularni shartli ravishda quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin.

1. Xalq laparlaridagi aksariyat qofiyalanish tartibi a-a-b-a shaklida bo'lib, bu tartibda turkiy xalqlar poeziyasida juda qadimdan keng istifoda etilib kelinadi. Ushbu tartibning uzoq davrlar mobaynida keng qo'llanilishiga sabab, birinchidan, bandning yuksak darajada ohangdorlikka erishishi, ikkinchidan, band doirasida fikr ifodalash imkoniyatining kengligidir. Masalan:

G‘amim ko‘rganlarim mening yorug‘ dunyoda, – a
Sochlarimning sonlaridan ziyoda. – a
Agar undan qutulmoqqa urinsam, – b
G‘anim otliq, qocholmayman piyoda. – a

Band misralari so‘ngidagi «dunyoda, ziyoda, piyoda» so‘zlari laparga o‘ziga xos evfoniya bag‘ishlagan.

2. Band misralari o‘zaro a-a-a-a tartibida qofiyalangan. Bunday qofiyalanish tartibi laparga o‘ta darajada yuksak ohangdorlik bag‘ishlaydi. Ammo to‘rtala misrasi ham o‘zaro qofiyalangan laparlar u qadar ko‘p emas:

Tovush quydim tovushqonning o‘ziga, – a
Xushtor bo‘ldim shu yigitning ko‘ziga. – a
Bizni ko‘rdi, parda tutdi yuziga, – a
Jon tasadduq har bir aytgan so‘ziga. – a

To‘rtala misrasi ham o‘zaro yagona qofiya bilan birlashgan laparlar ohangdorligi yuqori bo‘lsa ham, biroq ularning fikr ifodalash imkoniyati a-a-b-a shaklida qofiyalangan bandlardagidek yuqori bo‘lmaydi. Chunki to‘rtala misralarga yagona qofiya topish ijro jarayonida qiyindir. Barcha misraning yagona qofiyaga ega bo‘lishi o‘z-o‘zidan poetik fikrni istagancha erkin ifodalashga monelik qiladi. Chunki, M. Yu. Lermontov aytganidek, qofiya va vazn o‘rni kelganda fikrni bo‘g‘adi.

3. Xalq laparlarida ko‘p uchraydigan qofiyalanish tartibi a-a-b-b shaklida bo‘lib, bunday tartibda ham o‘zining ohangdorligi va ifoda imkoniyatining boyligi bilan ajralib turadi. Masalan:

Zebixon otlandi, ketdi soy bilan, – a
Qo‘lida chinni piyola choy bilan. – a
Chinnini soylarga urmay sindirur, – b
Bevafo ko‘nglini qachon tindirur. – b

4. Xalq laparlarining ayrim bandlari a-b-b-a tartibda, ya’ni o‘rama qofiya shaklida tuzilgan bo‘lib, bunday shaklning ham o‘ziga yarasha

ohangdorligi va ifoda imkoniyatlari mavjud. Bu o'rinda shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, xalq epik va lirik she'riyatida hamma vaqt ham mustaqil so'zlar qofiyalanavermaydi, ba'zan bir so'zning oddiy takrori ham qofiya vazifasini o'taydi. Masalan, quyidagi band qofiyasida ana shunday holatni kuzatish mumkin:

Qizil guling hovlingda, – a
Men taqmadim davringda. – b
Men taqmasam davringda, – b
Sabil qolsin hovlingda. – a

5. Lapar bandlarining ko'pchiligi a-b-a-b, yani kesma qofiya asosida vujudga kelgan. Kesma shaklda qofiyalanish hamma xalq she'riyatida ancha qadimiy bo'lib, uning ham o'ziga yarasha ohangdoshlik va ifoda imkoniyatlari mavjud:

Zar to'ningni nega kiyding, – a
Zarvaroq to'ning turib. – b
Kishi yorin nega suyding, – a
Gul g'unchadek yoring turib. – b

Xullas, o'zbek xalq laparlarining besh xil qofiyalanish tartibi mavjud bo'lib, ularning barchasi ham turkiy xalqlar poeziyasida u yoki bu darajada sinovdan o'tgan. Shu bois yuqoridagi qofiyalanish tartibining beshalasi ham yozma she'riyatda, xususan, hozirgi o'zbek poeziyasida keng istifoda etiladi.

O'zbek she'rshunosligida qofiya tarkibini tekshirishda ikki nazariy yo'nalish hukmronlik qiladi. Birinchisi-mumtoz qofiya nazariyasi. Bu nazariya asosan mumtoz she'riyatdagi monorim qofiya asosida ish ko'radi. Monorim qofiya esa qofiyalanuvchi so'zlardagi yagona tovush-raviy mosligiga asoslanadi. Raviy deb so'zning o'zak yoki negizi oxiridagi uyg'un bo'lgan yagona tovushga aytiladi. Masalan: gul-kul-bulbul so'zlardagi oxirgi tovush «l» raviy sanaladi.

Ikkinchi nazariya barmoq tizimidagi she'riyat asosida amal qiladi va unda qofiyalanuvchi so'zlardagi yagona tovushning uyg'unligi

hisobga olinadi. Ana shu tovush tirgak deb yuritiladi. Ushbu nazariy asosan rus she'rshunosligi tajribalari asosida vujudga kelgan, hatto tirgak tovush atamasi ham rus she'rshunosligidagi «oporniy zvuk» atamasining aynan tarjimasidan-kalkasidan iborat.

O'zbek xalq laparlari barmoq tizimiga mansub bo'lganligi uchun biz ham laparlar qofiyasining tarkibini bevosita ikkinchi nazariy qoidalari asosida tekshirishni lozim topdik. Mazkur nazariya talablarig ko'ra o'zbek xalq laparlaridagi aksariyat qofiyalar to'la qofiyani tashki etadi. To'la qofiya esa dastlabki tovushlardan boshqa unli va undosl tirgaklarning aynan takrorlanishiga asoslangan ohangdosh so'zlardan iborat. Masalan:

Qiz ekansan, bilmadim qarog'ingdan,
Qo'ygan xinang ketmagan tirnog'ingdan.
O'z kuyganim o'zimga yetmasmidi,
Sen kuydirib borasan bir yog'ingdan.

Keltirilgan banddagi «qarog'ingdan-tirnog'ingdan-bir yog'ingdan» so'zlari qofiyalangan bo'lib, har uchala so'z uchun «-g'ingdan» tovushlari tirgaklik vazifasini o'tagan.

O'zbek xalq laparlarida o'rni bilan och qofiya ham uchraydi Bunday qofiya esa «norto'la qofiya» deb yuritiladi. Etilishida bir-biriga mos keluvchi, ammo aslida turli tovushlar tirgak bo'lib keluvch ohangdosh so'zlar norto'la qofiya-och qofiya deb ataladi.

Masalan:

Bozordan sotib oldim sariq munsak,
Sarg'ayib yurgan yorim yuzin ko'rsak.
Belimda bir tillalik belbog'im bor,
Suyunchi deb kelganga shuni bersak.

Yuqoridagi laparda «munsak-ko'rsak-bersak» so'zlari norto'la qofiyani tashkil etadi. Chunki birinchi bo'g'indagi «u»-«o'»-«e» tovushlari turli unli tovushlardan tashkil topgan. Shunga qaramay ijroda qofiyalanuvchi so'zlar ohangdorlik tug'diradilar.

O‘zbek xalq laparlarida so‘z takrorlariga asoslangan qofiyalar ham keng qo‘llaniladi. Masalan:

Toqatim yo‘q endi sizga lapar aytsam,
Ko‘nglim yo‘qdir endi sizga lapar aytsam.
Bu Chimkentda ko‘rmadim sizdek parizodni,
Hech bir rahm etmadingiz yig‘lab yotsam.

Mazkur bandning birinchi va ikkinchi misralarida maxsus qofiya yo‘q, ammo shunga qaramay har ikki misra ham ohangdoshlik bilan tugaydi. Bunga sabab har ikki misradagi «endi sizga lapar aytsam» so‘zlarning aynan takrorlanib kelishidadir. Chunki aynan bir so‘zlarning misra oxirida takrorlanib kelishi ma’lum darajada ohangdoshlik tug‘dirish va qofiya vazifasini ado etishi she’rshunoslikda juda qadimdan e’tirof etilib kelinadi.

Xullas, o‘zbek xalq laparlari milliy tilimizning rang-barang tovush uyg‘unligiga asoslangan qofiyalarga boy bo‘lib, bunday qofiyalar, ularning tarkibi va tartibi doim lapar tinglovchilarga yuksak ohangdoshlik, barkamollik bag‘ishlab keladi.

O‘zbek xalq laparlarining badiiyati bo‘yicha bildirgan barcha mulohazalarimiz bizga quyidagicha umumlashmalarga kelishga asos beradi:

1. Lapar xalq lirikasining mustaqil janri bo‘lib, unda ham voqelik muayyan shaxslarning oniy kechinmalari asosida aks etadi. Janr asosan ikki tomonga mansub shaxslar o‘rtasida ijro etilganligi sababli ijrochilar kechinmasidagi ziddiyatlar janrining konfliktini tashkil etadi. Laparlar dialog shaklida aytilganligi uchun ijro jarayoni kuchli dramatizmga boy kechadi.

2. Ijro jarayonida lapar aytuvchilar ma’lum axborotni uzatish va qabul qilib oluvchi shaxslargina bo‘lib qolmasdan, balki o‘zlarining nozik dil izhorlarini ham ustalik bilan bir-birlariga izhor etuvchi lirik asarning bevosita ishtirokchilari sanaladilar. Bundan tashqari, dialogik muloqat laparlarda kuchli polifonik munosabat mavjudligidan dalolat beradi. Chunki lapar aytuvchi har bir shaxs voqelikka o‘zining betakror munosabatini ifodalaydi.

3. Laparlardagi obrazlar tizimi ham u qadar keng qamrovli emas Ular oshiq, ma'shuqa, ularning ota-onasi, raqib kabilardan iborat Hajviy, yumoristik laparlarda esa dangasa, ishyoqmas, mehnatseva shaxs, tabiiy nuqsonlarga ega bo'lgan kishilar (buqoq, cho'tir, cho'loq kal va h.k.) dan iborat.

4. Laparlarda obraz va obrazlilikni yuzaga keltirishda so'zning turli-tuman ma'no ko'chimlari: metafora (istiora), metonimiya, sinekdoxa, tashbeh (o'xshatih), epitet (sifatlash), tazod (antiteza), mubolag'a, ritorik so'roq, takror kabi badiiy tasvir hamda ifoda vositalari ishtirok etganlar.

5. Xalq laparlari asosan to'rtlik shaklidagi band tuzilishiga ega bo'lib, bunday band tuzilishi ritmik-sintaktik hamda psixologik parallelizmlar asosida vujudga kelgan. Ritmik-sintaktik, psixologik parallelizmlarga asoslanish esa mazkur janrning tarixiy ildizlari qadimiy ekanligidan dalolat beradi.

6. O'zbek xalq laparlarining ritmik xususiyati, vazn tuzilishiga kelganda shuni alohida ta'kidlash kerakki, mazkur, o'n bir, o'n ikki, o'n besh hijoli barmoq vaznlari asosida yaratiladi.

7. Xalq laparlari o'zbek tilining tovush boyligi va tovlanishlariga asoslangan qofiyalanishning turli-tuman tartib hamda tarkiblarini o'zida qamrab olgan.

XALQ TERMALARI VA QO‘SHIQLARIDAN NAMUNALAR



* * *

Oshib keldim elingga,
Tilla kamar belimda.
Sen vafodor yor bo‘lsang,
Gullar to‘shay yo‘lingga.

* * *

Ro‘molimni olibsan,
Bir hiyolga boribsan.
U hiyoling kam hiyol,
Uvolimga qolibsan.

* * *

Qizil gul taram-taram,
Davlatim yoru jo‘ram.
Davlat bo‘lsa topilar,
O‘lmasin yorim jo‘ram.

* * *

Oshib keldim oq toshdan,
Savdogar bo‘ldim yoshdan.
Savdogari qurisin,
Ayrildim qalam qoshdan.

* * *

Jiyda guli gul emas,
Taqsam chakkamda turmas.
Kishi yori yor bo‘lmas,
Bir kun yoningda turmas.

* * *

Qoshing orasi cho‘tir,
O‘sma qo‘ymay tek o‘tir.
O‘z kuyganing ozmidi,
Sen kuydirmay tek o‘tir,

* * *

Mehmonxonang shopili,
Beliga tushar kokili.
Kokillari silkillab,
O‘ynab berar shekilli.

* * *

Mehmonxonang past ekan,
Ichi to‘la xas ekan.
Xas ham bo‘lsa mayliga,
Bo‘z yigitlari oz ekan.

* * *

Bedananing dalasi,
Yoz ochilar lolasi.
Bunday toza bo‘larmi,
Bo‘lung‘urning bolasi.

* * *

Uka sizga yo‘l bo‘lsin,
Do‘ppingiz qutlug‘ bo‘lsin.
Suyub ekan paxtangiz,
Chakkangizga gul bo‘lsin.

* * *

Ot mindim ola-qashqa,
Sakraydi tog‘u-toshga.
O‘yinchining maqomi,
Kechagidan bir boshqa.

* * *

Eshik oldi har tollar,
Har shoxida marjonlar.
Bizga oshiq bo‘lganlar,
Har ko‘chada sarsonlar.

* * *

Mundan bordim besh-beshga,
Sigir oldim o‘n beshga.
Suti, qaymog‘i sizga,
O‘ynab bersangiz bizga.

* * *

Mehmonxonang o‘chog‘i,
Supachada po‘chog‘i.
So‘rasam indamaysiz,
Nima bo‘ldi kechagi.

* * *

Olmani otdim otganga,
Sim karovatda yotganga.
Achchig‘ingiz kelmasin,
Hazil qilib o‘tganga.

* * *

Oq kaptarim don yeydi,
Ko‘k kaptarim don yeydi.
Xippi bo‘lgan yigitlar,
Qo‘lini yuvmay non yeydi.

* * *

Echki boqdim enishga,
Oldi tushdi qamishga.
Xippi bo‘lgan opajon,
Pul yubordik kelishga.

* * *

Uka oting ko‘kmidi,
Ko‘k bedasi yo‘qmidi.
Muncha zimdan qaraysan,
Hech ko‘rganing yo‘qmidi.

* * *

Hovlichangdan o‘taman,
O‘rtasidan yo‘l solib.
Buncha menga tikilasan,
O‘ng chakkangga gul taqib.

* * *

Echki boqdim jarma-jar,
Xotin oldim darbadar.
Xotin qurg‘ur batqovoq,
Osh ichada besh tovoq.

* * *

Dayravodda nelar bor,
O‘rdak bilan g‘ozlar bor.
O‘rdak o‘lib g‘oz qolsin,
Dushman o‘lib do‘st qolsin.

* * *

Osmonda oying bo‘lsa,
Choynakda choying bo‘lsa.
Oldingda yoring bo‘lsa,
Piyolang o‘ynab tursa.

* * *

Jugarini yuldirma,
Poyasiga bildirma.
Shu boboni o‘ynatsang,
Kampiriga bildirma.

* * *

Mundan borsam yotibsan,
Gul yostiqqa botibsan.
Gul yostiqni ko‘tarsam,
Guldan toza yotibsan.

* * *

Men boray borganimcha,
Engimni solganimcha.
Engimni solgan joydan,
Ochilsin guli g‘uncha.

* * *

Qoshing boru, qoshing bor,
Qosh ostida ko‘zing bor.
Bo‘yginangday aylanay,
Shirin-shirin so‘zing bor.

* * *

Ko‘kon yo‘li o‘rama,
Qovunlari to‘rlama.
Shaharlikdan uylansang,
Sochi kalta ulama.

* * *

Qoshing qiyolaysanmi,
Choynak, piyolasanmi.
Yugurib-yugurib o‘ynasang,
Bizdan uyalasanmi.

* * *

Bedana bo‘lib uchdim,
Sholi poyaga tushdim.
Peshonamdan aylanay,
Bog‘bon bolaga tushdim.

* * *

Tom ustida beda bor,
Maydasini elab ol.
Beshariqda besh qiz bor,
Satangina saylab ol.

* * *

Besh qubida beshta tol,
Beshovi ham bizning tol.
Karavotning ustida,
Ko‘k choy ichgan bizning yor.

* * *

Olma oqib keladi,
Behi qalqib keladi.
Ko‘ngil bergan yorginam,
Hurday balqib keladi.

* * *

Osmondagi oy bo‘lsam,
Jumlai olamni ko‘rsam.
Ko‘ngil bergan yorimni,
Kunda-kunda bir ko‘rsam.

* * *

Olti oy boqdim qo‘yingni,
Bir ko‘rmadim bo‘yingni.
Bir ko‘rganda bo‘yingni,
Berar edim to‘yingni.

* * *

Qoshingni andozasi,
Namangan darvozasi.
Qoshingni bir qoqib qo‘y,
Joningni sadag‘asi.

* * *

Qizil guling bo‘layin,
Tuflichangga to‘layin.
Hammaning ko‘zi senda,
Ko‘z tumoring bo‘layin.

* * *

Nihol ekdim husain,
Uch-uchini kesayin.
Hihol hosil berganda,
Yor kelganda uzayin.

* * *

Bir yorim bor to‘lin oy,
Yorginamni bir maqtay.
Og‘izlari uymoqday,
Ikki yuzi qaymoqday.

* * *

Eshik oldi gul hovuz,
Gul tergani kelganmiz.
Gulni bahona qilib,
Yor ko‘rgani kelganmiz.

* * *

Eshik oldi muzgina,
Muzda o‘ynar qizgina.
Kimning yori bo‘lasan,
Chit ko‘ylakli qizgina.

* * *

Ariq bo‘yida yalpiz,
Qo‘ynimda ola tarvuz.
Bizning yordan xat keldi,
Qanday boramiz yolg‘iz.

* * *

Ro‘molingni uchini,
Tugmaganga tugdirding.
Mehnat qilib tokzorda,
Sevmaganni sevdirding.

* * *

Chumchuqlar chirqillaydi,
Shom bo‘lganga o‘xshaydi.
Darvoza taqillaydi,
Yor kelganga o‘xshaydi.

* * *

Daryoga bordim kechgali,
O‘tirdim suv ichgali.
Bizning yordan xat keldi,
Qanotim yo‘q uchgali.

* * *

Ko‘klam o‘tib yoz keldi,
Dehqon ishi soz keldi.
Hisobchida bir gap bor,
Bizga oylik oz keldi.

* * *

Gul bargini tuyaman,
Qo‘limga xina qo‘yaman.
Laganbardor ukamning,
Otini chatoq qo‘yaman.

* * *

Kadi ekdim ko‘rikka,
Pushtasidan gul chiqdi.
Beshikdagi o‘g‘limga,
Tok ochdi deb pul chiqdi.

* * *

Ariq bo‘ynida qo‘zi,
Qo‘zining qora ko‘zi.
Shu bobongni mast qilgan,
Momongning shirin so‘zi.

* * *

Bulung‘urning yo‘llari,
Yo‘llarida gullari.
Boboylarga yarashgan,
Kampirlarning bo‘ylari.

* * *

Shundan bordim bolg‘ali,
Elga nazar solgali.
Ko‘nglim sig‘ib yoqtirsa,
Mehnatkash yor olgali.

* * *

Kaltepada ko‘pkari,
Mehmonxonang cho‘pkari.
Shu bolaning dastidan,
Telpaklarim teskari.

* * *

Osmondagi bo‘z to‘rg‘ay,
Bo‘zlamasang ne bo‘lg‘ay.
Jindakkina jonimni,
Qiynamasang na bo‘lg‘ay.

* * *

El omonu, el omon,
Tinch va farovon zamon.
Baxtimizni kuylay deb,
Bulung‘urdan kelaman.

* * *

Jamoamiz sohibkor,
Olma, uzum koni bor.
Ishchilarning mehnati,
Bog‘ni qildi hosildor.

* * *

Boqqa kirdim oralab,
Olma uzdim saralab.
Chollar o‘yin tushganda,
Kampir qarar mo‘ralab.

* * *

Men do‘konda turaman,
Xaridordan uraman.
Xaridordan yulmasam,
Qandaygina yuraman.

* * *

Pastga ekdim sholini,
Baland ko‘tar polini.
Eson bo‘lsak ko‘rarmiz,
Poraxo‘rning holini.

* * *

Oykar tokning balandi,
Kulishing muncha g‘alati.
G‘alati bo‘lsa maylga,
Boboylarning davlati.

* * *

Ariq bo‘yi muzlama,
Qo‘y go‘shtini tuzlama.
Uyingda yoring turib,
Begonani ko‘zlama.

* * *

Eshik oldi pardevor,
Pardevorning gardi bor.
Uylanmagan yigitning,
Yuragida dardi bor.

* * *

Eshik oldida juft terak,
Juft terakka suv kerak.
Uylanmagan yigitga,
Bir munosib yor kerak.

* * *

Tomorqaga tarvuz ek,
Azot bersang o‘sadi.
Satanglikning qurboni,
Sumbul sochni kesadi.

* * *

Oziqli ot xorimas,
Qatiq ichgan qarimas.
Amalparast ukamlar,
Otasini tanimas.

* * *

Avtobuschi ukamning,
Mo‘ylovlari burama.
Chiptachiga pul bersang,
Qaytimini so‘rama.

* * *

Bozor borsang bozi bor,
Dumi tushgan tozi bor.
Tozilarni o‘ynatgan,
Bir kashmiri qozi bor.

OSMONDA OY CHIQSA

Ko‘kda yulduz ko‘rinmaydi,
Quyosh borib botguncha.
Tez-tez kelib hol so‘rsangchi,
Uyda yolg‘iz yotguncha.

Oy chiqsa oydin bo‘lur,
Kun chiqsa kunduz bo‘lur.
Shu yorimning qoshlari,
Telpakka qunduz bo‘lur.

Yiroqdagi suv to‘lqini,
Ko‘rinadi yaltirab,
Kelar yo‘ling poylab chiqsam,
Tun otguncha qaltirab.

Bordim daryo kechgani,
O‘tirdim suv ichgali.
Yorimdan kelsa xabar,
Qanotim yo‘q uchgali.

DO‘PPI TIKDIM

Qoshing qaromi, qaro?
Qorong‘i bo‘ldi havo.
Hamma dardga bor davo,
Oshiqlikka yo‘q davo.

Do‘ppi tekdim to‘r gullik,
Gullari turlik-turlik.
Shu turganlar ichida
Mening yorindir ko‘hlik.

SARIQ GUL

Sandiq to‘la sariq gul,
Taqsam ado bo‘lmaydi.
Sevgan yorim dardini,
Aytsam ado bo‘lmaydi.

G‘o‘zapoya o‘tini,
Achchiq ekan tutuni.
Hech kimga solmasina,
Ayriliqning o‘tini.

Qoshim qaro demanglar,
O‘sma qo‘yib kelganman.
Yorni yomon demanglar,
O‘zim tanlab tekkanman.

Qoshim qarosi o‘sma,
Nomahram, yo‘lim to‘sma.
Agar yo‘limni to‘ssang,
Qoshimdan ketar o‘sma.

GULNOR

Amu to‘lg‘onib oqar, gulnor,
Yelkanni shamol qoqar, gulnor.
Shul elatda bir qiz bor, gulnor,
Vah-vah, yuragim yoqar, gulnor.

Shubhalarda yurmasin, gulnor,
O‘zidan ko‘p ko‘rmasin, gulnor
Yigit degan nomimni, gulnor,
Ayting, yerga urmasin, gulnor.

DOIRANI CHALING, JON MOMO

Doirani chaling, jon momo,
O‘yinga tushsin qiz bola,
Qiz bolaning sochiga,
Yarashibdi chuchmoma.

Somsa yopdim yalpizdan,
Omonlig‘-e, somonlik.
Yuz navro‘zni o‘tkazgan,
Momolarga beraylik.

Navro‘z kuni, qizlarjon,
O‘sma bargin teraylik.
Sochga taqib gul-marjon,
Qoshga o‘sma qo‘yaylik.

NAVRO‘Z «YOR-YORI»

Gul navro‘z chechagida,
Belanchak bor, yor-yor.
Belanchakning boshida,
Kelinchak bor, yor-yor.

Kelinchakning yo‘liga,
Gullar sochay, yor-yor.
Shu navro‘zda suyganimga
Ko‘nglim ochay, yor-yor.

Shunda olam munavvar,
Bo‘lg‘usidir, yor-yor.
Sevishganlar sho‘x quvnab,
Kulgusidir, yor-yor.

HAMAL

Hamal, hamal derlaro,
Labingda asal derlaro.
Azaldan-azal derlaro,
Hamal oy go'zal derlaro.

Hamal qizi hur qizoy,
Qoshi qaro qunduzoy.
Yonoqlari qirmizoy,
Tezroq jamol ko'rgizoy.

Hamal, hamal derlaro,
Tilingga asal derlaro.
Azaldan-azal derlaro,
Hamal oy go'zal derlaro.

Hamal qizi hur qizoy,
Labginasi qirmizoy.
Kelgin kecha-kunduzoy,
Tezroq ko'rsat gul chiroy.

Hamal hamal qilsino,
Toshni tamal qilsino.
Nasibamiz bersino,
Gapiga amal qilsino.

SORI TO‘N

Tegirmonning shaqshaqasi taroshadur,
Bek akamga a’lo to‘nlar yaroshadur.
A’lo to‘nning jiyaklari sori bo‘lur,
To‘n kiyganning nomus bilan ori bo‘lur.

Og‘am to‘ni – ko‘zim to‘ri,
Tiklab, tiklab tikay uni.
Yorim to‘ni – jonim to‘ni,
Jonim berib tikay uni.

Tegirmonning aylantirar charxi bordur,
To‘n kiymagan, yor quchmagan zordur, xordur.
Har qatimin silab-siypab paxta yoydim,
Zar yoqali to‘n kiyganni jondin suydim.

O‘ngga qabog‘im uchdi,
Yorim esimga tushdi.
Chapga qabog‘im uchdi,
Jonim esimga tushdi.

KO‘CHA BOG‘I

Qoshingning qorasiga,
Xol bo‘lay orasiga.
Muncha rahming kelmaydi,
Birovning bolasiga.

Qoshing bilan imlaysan,
Zulfing bilan dog‘laysan.
Menda nima qasding bor,
O‘ldirmoqqa chog‘laysan?

KEL EY, SHONIM

Kel ey, shonim hoy, hoy,
Kel, mani shonim hoy, hoy.
Birgina jonim senga qurbon,
Jo‘rajonim, hoy, hoy.

Ariq labida dapsan,
Dapsanga suvlar sepsam.
Diydoringizni ko‘rib,
Qaymoq yeganday bo‘lsam.

Boysun tog‘ning shamoli,
Yelpir kimning ro‘moli.
Ro‘moliga yarashib,
Hilpiraydi tumori.

SIZNING AYBOH...

Sizning ayvon bizning ayvon emasmi?
O‘rtasida chinni ravon emasmi?
Kelasizu-ketasiz bir so‘z demaysiz,
Bu hammasi yurakda armon emasmi?

Tog‘da archa ming yil umr ko‘rarmu?
Shoxi sinsa, zargar kumush qilarmu?
Zargarning bilgani archa bo‘lurmi?
Bilib qo‘ygan ko‘ngil judo bo‘lurmi?

Sen go‘zalni izlab cho‘llarni kezdim,
O‘shal kezgan cho‘llar bo‘ston bo‘lurmi?
Sening joning mening jonim emasmi?
Mening jonim senga qurbon emasmi?

TUL BOBO

Har kun kelaymu, dadajon?
Yo‘q, yo‘q.
Palov qilaymu, dadajon?
Yo‘q, yo‘q.
Choyni damlaymu, dadajon?
Yo‘q, yo‘q.
O‘choq yoqaymu, dadajon?
Yo‘q, yo‘q.
Holimni qara, ulijon?
Xo‘p, xo‘p.
Aftimga qara, ulijon?
Xo‘p, xo‘p.
Dardimni aytay desam, andisha bor,
Ko‘nglingdan so‘ra, ulijon.

Qo‘yni so‘yaymu, dadajon?
Ilik qoqaymu, dadajon?
Ko‘rpa to‘shaymu, dadajon?
Yostiq qo‘yaymu, dadajon?

Aftimga qara, ulijon,
Yoqamga qara, ulijon,
Taxmonga qara, ulijon,
Chakmonga qara, ulijon.

Suvlar sepaymu, dadajon?
Qirga chopaymu, dadajon?
Loylar tepaymu, dadajon?
Kampir topaymu, dadajon?

Ha ... a ... a ...

Dadajon, qarang, qarang shu qizgina barno ekan,
Qomati qamish ekan, ko‘zginasi shahlo ekan,
Sovchi bo‘lay, asta so‘ray, rozi bo‘lsa olib beray.

Singiljon, qarang, qarang dadam hali qari emas,
Azroilni hurkitar, berisi ko‘p, nari emas,
O‘ylab ko‘ring, sinab ko‘ring, yoqsa agar rozi bo‘ling.

Akajon, qarang, qarang dadangiz qari ekan.
Og‘zida bir tishi yo‘q, beri emas, nari ekan.
Nari turing, tayyor bo‘ling, Azroildan hushyor bo‘ling.

Ulijon, qara, qara bu juvonmarg asov ekan,
Uylansam o‘ldiradi, xotin emas qassob ekan,
Buni yo‘qot, mollarni sot, og‘zingni yop, boshqani top.

Dadajon, qarang, qarang momoginam janon ekan,
Labidan bol tomadi, har so‘zi dono ekan,
Sovchi bo‘lay, asta so‘ray, rozi bo‘lsa olib beray.

Momojon, qarang, qarang dadam hali qari emas,
Rozi bo‘ng to‘ylar qilay, berisi ko‘p, nari emas,
O‘ylab ko‘ring, sinab ko‘ring, yoqsa agar rozi bo‘ling.

Ulijon, qarang, qarang dadangiz qari emas,
Yuzidan nur yog‘ilar, berisi ko‘p, nari emas,
O‘ylab ko‘rdim, sinab ko‘rdim, dadangizga rozi bo‘ldim.

Ulijon, qara, qara momoginang pari ekan,
Farishta misol ekan, xotinlarning zo‘ri ekan,
Balli ulim, o‘choqni qoz, qo‘ylarni so‘y, qozonni os.

YALLA, JONIM YALLA

Boqqa kirgim keladi, yalla jonim yalla,
Gullar tergim keladi, yalla jonim yalla.
O'zim sevgan yorimni, yalla jonim yalla,
Kunda ko'rgim keladi, yalla jonim yalla.

Gul hovuzim bo'yida, yalla jonim yalla,
Xush bo'y gullar o'sibdi, yalla jonim yalla.
Xushbo'y gullarni uzdim, yalla jonim yalla,
Yor yo'limni to'sibdi, yalla jonim yalla.

Boqqa kirgan ham o'zim, yalla jonim yalla,
Gullar tergan ham o'zim, yalla jonim yalla.
Shunisiga hayronman, yalla jonim yalla,
Yorga o'tmaydi so'zim, yalla jonim yalla.

BOYSUNCHA TANOVAR

Soching uchi qo'ng'iroq,
Yor, menga qilma firoq.
Yor, agar qilsang firoq,
Boray desam, yo'l yiroq.

Dutor chalib o'tirsam,
Tori uzilib ketdi.
Yorim esimga tushib,
Ko'nglim buzilib ketdi.

Atirgulning tagida,
Yor, seni ko'rib qoldim.
Ko'rmasam bo'lar ekan,
Ishqingda kuyib qoldim.

BORMAYMAN, DEDI

Yur, desam, bog‘ sayliga,
Ul yor bormayman, dedi.
Arzim aytib kuylasam,
Takror bormayman, dedi.

Jonu dil birlan so‘rab,
Ming tavoze’ aylasam,
Nozlanib, achchiqlamib,
Zinhor bormayman, dedi.

Ming xijolatga qo‘yib,
Rangimni etdi za’faron.
Hajrida bo‘ldim netay,
Bemor, bormayman, dedi.

Bu hayotda o‘rtog‘ingman
Misli yo‘lingda chiroq.
Xalq ishiga bo‘lsangiz
Tayyor, borgayman, dedi.

YOR DEDIM

Yor dedim, ado bo‘ldim,
G‘amga mubtalo bo‘ldim.
Bir ko‘rib, jamolingga
Oshiq-beqaror bo‘ldim.

Osmonda g‘ozim-g‘ozim,
Xasta bo‘lgan ovozim.
Xasta bo‘lgan ovozga
Bir piyola may lozim.

O‘LAN

Yigit:

O‘lan, yor-yor, aytishuvlar xalqning joni,
Qishlog‘imiz keksalari o‘lan koni.
Bir oz katta olib aytsam sizga do‘stlar,
Shu qoraqosh, mayiz nusxa mani jonim.

Qiz:

O, xo aka man mayizga o‘xshadimmi,
Sizga aytay o‘ylab qo‘ygan bir shartimni.
O‘lan aytib siz olsangiz gar ko‘nglimni,
Shuning bilan forig‘ aylang siz dardimni.

Yigit:

Navoiylik yigit so‘zi yolg‘oni yo‘q,
Ketmonining otashidek yuragi cho‘g‘
Borar bo‘lsam ostonanga o‘lan aytib,
Dugonalar qalbi kular sho‘x-sho‘x.

Qiz:

Muhabbatning bog‘larini oralamang,
Yolg‘on so‘zlab yuragimni yaralamang.
Dardingizga quloq solmay ketar bo‘lsam,
Qo‘shnilarga bevafo deb qoralamang.

Yigit:

Kashta tikkan qo‘lingizga uymoq bo‘lay,
Dasturxoningizga tortiq quymoq bo‘lay.
Navoiyning erka qizi rostin aytsam,
Ne kuylarga solding meni suymay o‘lay.

Qiz:

Qo‘ylar boqib charchamaysiz qirlar tomon,
Sog‘inchlardan ado bo‘ldim holim yomon.
Cho‘pon yigit g‘ururingiz tog‘u-toshga
Tashlab bir pas kelib keting qolay omon.

Yigit:

Kiprigingiz osmonlarga narvon bo‘lar,
Sochlaringiz majnuntolga armon bo‘lar.
Sizdek qizni xor aylagan yigit borki,
Ikki dunyo ishq bog‘ida sarson bo‘lar.

Qiz:

Navoiyning Barchinlari kimdan kam,
Ibo to‘la ko‘zlarini etmangiz nam.
Sizni baxtli etmoq uchun yoningizga,
Qo‘ylaringiz boqmoq uchun boray o‘zim.

Yigit:

Ketmon urib toliqmagan qo‘lingizdan,
Paxta terib charchamagan belingizdan.
Navoiyning xirmoniga xirmon qo‘shib,
Boray aka degan shirin tilingizdan.

Qiz:

Otingizda olib keting Alpomishim,
O‘zgalarning gapi bilan yo‘qdir ishim.
Sizni aslo birovlarga berolmasman,
Siz muhabbat bo‘stonida yolg‘iz kishim.

Yigit:

Sigir sog‘ib obod eting ro‘zg‘orni,
Oltinlarga alishmaydi o‘z orini.
Sevsang agar shunday qizni sevgin do‘stim,
Yori uchun sadqa qilar u borini.

Qiz:

Siz yurgan ul ko‘chalardan gullar unar,
Siz borsizki hovlimizga qushlar qo‘nar.
Rostin aytsam tan beraman boshim egib,
Qaysi yurtning yigitida qirqta hunar.

Yigit:

Bu chamanning qizlariga ko‘z tegmasin,
Nomardlarga aziz boshini egmasin.
Jo‘ram senga shaharlik qiz topdim, deydi,
Siz turganda shaharlik qiz boshidan qolsin.

Qiz:

Bardoshingiz tog‘lar bilan talashadi,
Hamma sizga havas bilan qarashadi.
Ey bek yigit, yuragimni yoqib-yoqib,
Bo‘yingizga ne kiysangiz yarashadi.

Yigit:

Shu so‘zlaring menga yoqib ketdi,
Bir ehtiros yuragimni chertib ketdi.
Qulog‘ing bir tishlab qo‘yay vaqt o‘tmasin,
Bu onlarni yurakkinam bedor kutdi.

YORIM KETAMAN, DEYDI

Yorim ketaman, deydi,
Ketkizgani qo‘ymayman.
Yo‘llariga chim bosib,
O‘tkizgani qo‘ymayman.

Ketsang, ketaver, yorim,
Ketsang, nima parvoyim?
Shu jonim eson bo‘lsa,
Qaytib kelar sevgonim.

Samarqandning soyiga
Tushdi tillo uzugim.
Qachon kelar ekanlar
O‘shal ko‘zi suzugim?

Kelsa, kela qolsinlar
O‘shal ko‘zi suzugim.
Jonimning sadag‘asi
Mening tillo uzugim.

Ketsang, ketaver, yorim,
Ketsang, nima parvoyim?
Shu jonim eson bo‘lsa,
Qaytib kelar sevgonim.

Ko‘hi Qofdan keladi
Sharsharaning ovozasi.
Nomunosib yor uchun
Bo‘ldim jahon ovorasi.

QARG‘ALAR

Qarg‘alar uchsa, qaraylik
Marg‘iloning yo‘liga.
Hidi kelsa, mast bo‘laylik
Handalakning bo‘yiga.

Handalak, bo‘ylikkinam sen
Unda zor, men bunda zor.
To‘tiqushning bolasidek
Ikkalamiz intizor.

Intizorlik torta-torta
Tanda toqat qolmadi.
Yo‘lchibindek sarg‘ayib,
Ucharga toqat qolmadi.

Yo‘lchibinning holini
Yurgan yo‘lovchidan so‘rang.
Biz faqir bechoralarni
Aqli raso yordan so‘rang.

Biz g‘arib bechorani
Aqli raso yor bilmasa,
Ko‘z yoshim daryo bo‘lib
Oqqan baliqlardan so‘rang.

HAY, YOR-YOR, AYLANAY

Otma mani toshlar bilan, hay, yor-yor, aylanay,
Uchib ketay qushlar bilan, hay, yor-yor, aylanay.

Qushlar ketsa, men ketmayman, hay, yor-yor, aylanay,
Ko‘zing to‘lsin yoshlar bilan, hay, yor-yor, aylanay.

Qo‘y kelmaydi qo‘zi bilan, hay, yor-yor, aylanay,
Bir-birining izi bilan, hay, yor-yor, aylanay.

Bir-birining izini ko‘r, hay, yor-yor, aylanay,
Hamsoyaning qizini ko‘r, hay, yor-yor, aylanay.

SOCHLARI TAROQ

Men o‘rgilay sochi taroqlaridan,
Yoqut ko‘zli sirg‘a quloqlaridan.
Oshiq qilur ko‘zlariga kifoya,
Baland turgan bodom qovoqlaridan.

Ko‘kragida qator-qator gavharlar,
Rayhon bo‘ylik, hidlik quchoqlaridan.
Yor ko‘rganda qizib yuzim qizardi,
Uyalaman so‘rab o‘rtoqlaridan.

YORGINAM

Qoshing asli qarodir,
O‘sma qo‘yganing yolg‘on.
Sening uchun men kuygan,
Menga kuyganing yolg‘on.

Osmonda uchta o‘rdak,
Uchalasi ham birdak.
O‘lturgan xaloyiqlar
Ochilgan qizil guldak.

Osmonda pilpillaydi,
To‘rg‘ay, desam, bedana.
Labingdagi xolingni,
Sepkil, desam sedana.

BEVAFO YOR

Qora sochim o‘sib, qoshimga tushdi,
Ne savdolar mening boshimga tushdi.
Borib ayting o‘shal suygan yorimga,
Judolikning zahri oshimga tushdi.

Tomga piyoz eksam, o‘soman, deydi,
Yorga bino qo‘ysam, ketoman deydi.
Ketma, yorim, ketma jonim beroman,
Tilimning uchida novvot beroman.

Seni – unda, meni – bunda yaratdi,
O‘rtamizda oqar daryo yaratdi.
Oqar daryo ekan – oqdi-yu ketdi,
Bevafo yor ekan – yoqdi-yu ketdi.

MANI YORIM QO‘QONDA

Mani yorim Qo‘qonda,
Panjarali do‘konda.
Hali kelsa ko‘rasiz,
Qo‘shu ko‘zi muqomda.

Naqarot

U yonga tashlab o‘yna,
Bu yonga tashlab o‘yna.
Sunbul sochi jingalak,
Yon boshga tashlab o‘yna.

Qizil gul shona-shona,
Qo‘limda angishvona.
Angishvona demanglar,
Sevgan yordan nishona.

Naqorat

Olma desam, olmaysan,
Behi desam, yemaysan.
Qaysi boyning qizisan,
Ayttirvorsam kemaysan?

Naqarot

Doirangning qasqoni,
Ipi bormi osgoni?
Yoshligingda o‘ynab qol,
Yoring bormi to‘sgoni?

Naqarot

SHODA-SHODA MARVARID

Daryodan oqib kelodi
Shoda-shoda marvarid.
Ro‘paramda o‘tirar,
Qoshi qaro barno yigit.

Qoshi qaro barno yigit,
Hargiz ololmaysan meni.
Kokilim qimmatbaho,
Tashlab ketolmaysan meni.

Bog‘dagi barra piyozdek,
Qoshlaringdan aylanay.
Yangi chiqqan maysadek,
Kipriklaringdan aylanay.

Tikilib turgan kiyikdek
Bo‘ylaringdan aylanay.
Oppoq-oppoq marvariddek,
Tishlaringdan aylanay.

XUMORIM

Sen mening xumorimsan,
Bo‘ynimda tumorimsan.
Qorong‘i kechalarda
Yondirgan chirog‘imsan.

Aka, oting samanmi?
Yuklaganing somonmi?
Menga muncha qaraysan,
Shirin so‘zing omonmi?

ANDIJON BORAY DEDIM

Andijon boray dedim, borolmadim,
Ko‘zida nimasi bor – qarolmadim.
Shunchalik mushkul ekan ko‘ngil degan,
Ko‘nglini olay, dedim, ololmadim.

Andijon bog‘larida yurgum kelur,
O‘shal yorni doimo ko‘rgum kelur.
Nahot, shuncha bo‘lsa agar ko‘rgiligim,
Loaqal, tushlariga kirgim kelur.

Andjon yo‘llarida qoladi ko‘zim,
Yorni kutib, yor yo‘lida qoldi ko‘zim.
Ko‘rganim qay baloyu dard ekan,
Boshima bu baloni soldim o‘zim.

OSMONDAGI YULDUZ

Osmondagi yulduzni
Sanab yetoman, dema.
Yuraklarim kuydirib,
Tashlab ketoman, dema.

Yorim yetgan yerlarga
Men ham bormay qolmayman.
Yo‘llariga ko‘z tutib,
Sog‘inchidan tolmayman.

Uyim oldi katta bog‘,
Rayhon ekoman, deyman.
Yorimga sovg‘a qilib,
Do‘ppi tikoman, deyman.

NOVVOYLAR QO‘SHIG‘I

Yigitlar:
Andiringdan, yangajon,
Mandiringdan, yangajon.
Kulcha yopib, non yegan
Tandiringdan, yangajon.

Zardevolu palaging,
Un elagan elaging,
Xamiringni mushtlagan,
Og‘rimasin bilaging.

Yanga:
Andirimmi, qaynog‘a,
Mandirimmi, qaynog‘a?
Archa – o‘tin qizitgan,
Tandirimmi, qaynog‘a?

Yigitlar:
Qatlama, patir,
Chappati chotir.
Gijdayu mujda,
Ko‘mmayu qotir.
Pishir, pishir, yangajon,
Pishir, pishir, ko‘pkon non!

Undan o‘tin, yangajon,
Mundan o‘tin, yangajon.
Pushtagini qoldirmay.
Nonni yopgin, yangajon.

OG‘A DOROM

Og‘a Dorom, ro‘molingda gulbodom,
Xo‘jik Dorom, belbog‘ingda gulbodom,

Sori ipak to‘rni so‘lg‘oni qurg‘oy,
Orqama tashlasam – yozilib turg‘oy.
Oshiqlikning ma’nisini bilganda,
O‘rgatib – o‘rgatib qochqoni qurg‘oy.

Bog‘ yona chiqmadim – gullarni ichi,
Hamma yor ichinda bizning yor kichi.
Ullisinda, kichchisinda na gap bor,
Yonina borsangiz – jannatning ichi.

QOSHGINANGNI QAROLIGI

Qoshginangni qaroligi yagonalardek,
Ko‘zginamni termultirdi begonalardek.
Ko‘zginamni termulgani uvol emasmi?
Mani jonim doim sanga qurbon emasmi?

Qoshginangni qaroligi olamga mashhur,
Qizil olma otay – qo‘yningga yashir.
Otgan qizil olmam qo‘yningda tursin,
Mani aytgan so‘zim yodingda tursin.

LA'LIXON

La'lixon, hayda, qo'yingni boqaman,
Lablaringda pista-bodom chaqaman.
Lablaringda pista-bodom chaqmasam,
Eshigingda chashma bo'lib oqaman.

La'lixon aylandi-ketdi soy bilan,
Qo'lida chinni piyola choy bilan.
Chinnini nodonga bermang – sindirar,
Beaql yor qachon ko'ngil to'ldirar?

La'lixonning bog'i bor, bog'boni yo'q,
La'lixonning dardi bor, darmoni yo'q.
La'lixon, bog'ingga bog'boning bo'lay,
La'lixon, dardingga darmoning bo'lay.

OSHIQ-MA'SHUQ

Boqqa kirdim, olma terdim,
Olmasining nori yo'q.
Qishlog'ingni shuncha kezdim,
Manga loyiq yori yo'q.

Bo'yingiz muncha uzun,
Belingiz bir qilcha yo'q.
Biz sizni yaxshi ko'ribmiz,
O'zgalar bir pulcha yo'q.

Dunyoda na ish yomon?
Yaxshi ko'rganlik yomon.
Yo mening mehrimni olg'ay,
Yo sizga qo'shg'ay, jonon!

FARG‘ONANI YO‘LI SOZ

Farg‘onani yo‘li soz,
mayda, mayda, mayda.
Yo‘lida o‘ynaydi g‘oz,
mayda, mayda, mayda.
Qizlari qo‘qon gilos,
mayda, mayda, mayda.
Yigitlari ishqivoz,
mayda, mayda, mayd.

Mayda, mayda, mayda,
Oramijonim qayda?
Hammani yori sheyda,
Bizni qalam qosh qayda?

Bedona pirillaydi,
mayda, mayda, mayda.
Bedona chirillaydi,
mayda, mayda, mayda.

Yor, seni ko‘rganimda,
mayda, mayda, mayda.
Yuragim jig‘illaydi,
mayda, mayda, mayda.

ALLA

Senga qo‘ydim yaxshi ot, alla,
Yaxshi niyatdur murod, alla.
Yurtu elga suyansang, alla,
Senga bo‘lg‘usi qanot, alla.

Osmonda uchgan qushlar, alla,
Sekin chiqar tovushlar, alla.
Meni solma qayg‘uga, alla,
Bolam to‘ysin uyquga, alla.

Alla, desam, bor bo‘lgin, alla,
Menga nomus-or bo‘lgin, alla.
Katta bo‘lgan chog‘ingda, alla,
Xalqqa vafodor bo‘lgin, alla.

Ulg‘ay bolam, gul Vatanda, alla,
Botir bo‘lib o‘sgil, qo‘zim, alla.
Seni ko‘rib bu chamanda, alla,
Yayrab-quvonay, yulduzim, alla.

YALLO, YALLO DEMAGIN

Yallo, yallo demagin,
Ko‘zi shahlo demagin.
Sen bo‘lmasang, yo‘limda
O‘zga ra’no demagin.

Bu yo‘ldan o‘tganim bor,
Qo‘lingdan tutganim bor.
Qaqshatmagin meni, yor,
Xudoga aytganim bor.

Yallo, yallo demagin,
Ko‘zi shahlo demagin.
Bevafoga uchrab sen,
So‘ng pushaymon yemagin.

Bu yo‘ldan o‘tganim bor,
Azobin tortganim bor.
Toshlar otma, tosh otma,
Xudoga aytganim bor.

Yallo, yallo demagin,
Ko‘zi shahlo demagin.
Ishqsiz dunyo – dunyomi?
Sevgi ado demagin.

Bu yo‘ldan o‘tganim bor,
Yoningga qaytganim bor.
Ko‘nglimni etib tor-tor,
Xudoga aytganim bor.

Yallo, yallo demagin,
Ko‘zi shahlo demagin.
Sen bo‘lmasang, yo‘limda
O‘zga ra’no demagin.

SHISHANI ZARGARGA BERDIM

Shishani zargarga berdim,
Kechalar chekdim firoq.
Bir qo'limga sham olibman,
Bir qo'limga shamchiroq.

Shamchiroqning yonganidan,
Yonmagani yaxshiroq.
Bevafo yor bo'lganidan,
Bo'lmagani yaxshiroq.

Ko'kkina kaptar kelodi,
Bo'yni yerga qayrilib.
Men nechun toqat qoliyin
Sevganimdan ayrilib?

Ko'kkina kaptar kelodi
Kunda-shunda ko'rgani.
Oyda-yilda bir kelarman
Oy yuzingni ko'rgani.

Yoz kuni ayvonda yotdim,
Oy manim ustimdadir.
Seskanib o'rnimdan tursam,
Oq bilak bo'ynimdadir.

Oq bilakka qo'sh bilakuzuk,
Sadqai xoling bo'lay.
Oq yuzingga oynayu ham
Durrai toling bo'lay.

IKKI BULBUL SAYRASHADI

Ikki bulbul sayrashadi
Tog‘u toshlarda yurib.
Chanqasa suvlar ichadi
Bog‘u bo‘stonga kirib.

Yov ekansan, bilmadim,
Nodon ekansan, bilmadim.
Kashmiri tiling bilan
Aldor ekansan, bilmadim.

Men bu yerga kelmas erdim,
Yora keltirdi meni.
O‘tga solsa, kuymas erdim,
Yora kuydirdi meni.

Qop-qarodir qoshingiz,
O‘n to‘rtda bordir yoshingiz.
O‘n to‘rtda bo‘lsa yoshingiz,
O‘zim bo‘lay yo‘ldoshingiz.

Gulni gul dermu kishi,
Gulni tikoni bo‘lmasa.
Yorni yor dermu kishi,
Yorni vafosi bo‘lmasa?

Olmali boqqa kirib,
Shaftolini yermu kishi?
O‘zini yori turib,
O‘zgani yor dermu kishi?

KIRDIM QALANDAR BOG'IGA

Bir chilim tamoki deb,
Kirdim qalandar bog'iga.
Bir qizil gulni uzib,
Qoldim qiyomat dog'iga.

Gulni gul dermu kishi,
Gulning tikoni bo'lmasa?
Yorni yor dermu kishi,
Yorning vafosi bo'masa?

Bir go'zal bog' ichinda
Uchrashaylik ikkimiz.
Toza bitgan navniholdek
Chirmashaylik ikkimiz.

Men seni yorim desam,
Yoningda yoring bor ekan.
Ikki yuzing olmadek,
Chakkangda noring bor ekan.

Oq ilon, oppoq ilon,
Oydinda yotgoning qani?
Meni-ku yomon deding,
Yaxshini topgoning qani?

Bir chilim tamoki deb,
Kirdim qalandar bog'iga.
Bir qizil gulni uzib,
Qoldim qiyomat dog'iga.

YOLVORMA, JONIM

Har go‘zalni go‘zal dema,
Go‘zal seni demaguncha.
Yolvorma, jonim, yolvorma,
To o‘zi yolvormaguncha.

Yolvorib yoningga kelsa,
Tovlanib yoningda tursa,
Endi yoring bo‘ldim desa,
Sen dema, ul demaguncha.

Go‘zal ko‘p jafo qilur,
Ming noz ila ado qilur,
Seni suysa, u yor qilur,
Sevma, seni sevmaguncha.

YORIDAN AYRILGAN YIGIT

Chinnini zargarga bersam,
Marvarid qilmaymikan?
Chin ko‘ngilni yorga bersam,
Mehribon bo‘lgaymikkan?

Oq qog‘ozday yarqiraydi
Yangi yor olgan kishi.
Za’faronday sarg‘ayadi
Yordan ayrilgan kishi.

Yordan ayrilgan yigitning
Yori men bo‘lsammikan?
Ko‘ksiga boshim qo‘yib,
Birga jon bersammikan?

O‘YNA, LOLA

O‘yna, o‘yna, hay lola, o‘yna!
O‘ynamasang, yor qayda, o‘yna!

Qoshing asli qarodir, o‘yna,
O‘sma qo‘ganing yolg‘on, o‘yna,
Sening uchun men kuygan, dod-ey,
Sening kuyganing yolg‘on, o‘yna.

Qora qoshing pilikmi, o‘yna,
Qora ko‘zing yirikmi, o‘yna,
Seni suyib yurganlar, dod-ey,
So‘rab ko‘rgin – tirikmi, o‘yna.

Qoshingni qarosiga, o‘yna,
Xol bo‘lay atosiga, o‘yna.
Nega rahming kelmaydi, dod-ey,
Birovning bolasiga, o‘yna.

QOSHING QAROSI

Qoshing qarosi olamga mashhur,
Qizil olma beray – qo‘yningga yashir.
Bergan qizil olmam qo‘yningda tursin,
Menga bergan va’dang ko‘nglingda tursin!

Qoshingni qarosi yuvsa ketarmi?
Seningdek toza gul bog‘da bitarmi?
Seningdek toza gul bog‘da bitganda,
So‘rab borsam – bog‘bon menga sotarmi?

JIGARPORA

Qoshing bilan ko‘zing par-par yonadi,
Oshga kashnich bilan rayhon soladi.
Kashnichning tilini rayhon biladi,
Bolasining tilini onasi biladi.

Qoshingning qorasi yuvsa ketarmi?
Seningdek toza gul bog‘da bitarmi?
Seningdek toza gul bog‘da bitganda,
So‘rab borsam – bog‘bon menga sotarmi?

Meni ketdi, deb chekma qoshingni,
Quraydek ko‘zingdan to‘kma yoshingni.
Quraydek ko‘zingdan to‘ksang yoshingni,
Olarman-ketarman aziz boshimni.

QIZIL GULNING DONASI

Qizil gulni eksang, xirmoni bo‘lmas,
Yaxshiga borganning armoni bo‘lmas.
Yomon bilan kuyib-yonb yurguncha.
Yaxshi bilan davron sursang o‘lguncha.


O‘ylana-o‘ylana o‘ylar etarman,
Havasman bo‘yingga qachon yetarman.
Qizil gulning donasiman, bo‘yingdan,
Gulzoringga eksang, unib bitarman.

Qizil gul yonida yurasim kelar,
Qizil gul bog‘ina kirasim kelar.
Qizil gulli bog‘larda yor yurganda,
Yonida qo‘l berib, yurasim kelar.

DUXTARI SAMAN




15
Qizlar:
X.
Lab - la - ri da may da xo li bor.
17
X.
1. f
2. p
20
Yigitlar:
X.
Men - ga bo - qib kel - may - di - yo,
23
X.
Yax shi lar ni bil may di yo.
25
f
Yigitlar:
X.
dux ta ri sa - man do na do - na,
27
Qizlar:
X.
Lab - la ri da may da xo li bor.
29
p
Yigitlar:
X.
Dux - ta ri sa - man do na do - na,



Naqarot

Duxtari saman dona-dona,
Lablarida mayda xoli bor.

Bunda bordim qarshigayo,
Ot boyladim roshigayo.

Naqarot

Menga boqib kelmadiyo,
Yaxshilarni bilmaydiyo.


Naqarot


Duxtari saman dona-dona,
Lablarida mayda xoli bor.

KASHTA TIKDIM SANAMA




17
X.
O‘t - lar yon - di ta - na ma.
19
X.
Tik - may de - sam u - ri shar
21
X.
qa - rab tur - gan e - na ma
23
X.
qa - rab tur - gan e na ma.
25
Jonli
X.
O‘r -ma - gim - ni o‘ - ra yo
27
X.
29
Men gu li ga qa - ra yo.
X.
O‘r mak - gi - nam o‘r - sin deb


31
X.
En - di sen - dan so‘ - ra yo.
33
X.
Yo‘r - ma tik dim i lib i lib
34
X.
To mo - sho ay lan giz i lib
35
X.
Rax - mat dey di ko‘r - gan ki shi
36
X.
Har gu li ga hay - ron bo‘ lib
37
X.
O‘r-ma- gim - ni o‘ - ra yo
39
X.
Men gu - li - ga qa ra yo



Kashta tikdim sanama,
O‘tlar yondi tanama.
Tikmay desam urishar,
Qarab turgan enama.

Naqarot

O‘rmagimni o‘rayo,
Men guliga qarayo.
O‘rmakginam o‘rsin deb,
Endi sendan so‘rayo.


Yo‘rma tikdim ilib-ilib,
Tomosho aylangiz ilib.
Raxmat deydi ko‘rgan kishi,
Har guliga hayron bo‘lib.

Naqarot


O‘rmagimni o‘rayo,
Men guliga qarayo.
O‘rmakginam o‘rsin deb,
Endi sendan so‘rayo.


SHAQILDOQ




15
X.
17
X.
20
X.
Shaq shaq shaq sha - qil - do - qing - dan
23
X.
Sha- qil - da - g'an bar - mo - qing - dan
qay - ro - qing - dan
26
X.
Ba - land e - kan - da bo'y - la ri
29
X.
Ba - land e - kan - da uy - la - ri
32
X.
O' shauy - danmung ke la - dir Laz - giva qay-
35
X.
roq kuy la ri Shaq shaq shaqshaq


37
X.
sha - qil - do - qing - dan
Sha - qil-da-g'an
40
1.
2.
X.
bar - mo - qing - dan
qay - ro qing - dan
43
X.
47
1.
2.
X.
50
X.
Boq - ma - sam qan doq bo' la - di
53
X.
Qa - ra - sam gu - noh bo'la - di
56
X.
Boq - ma - sam qan - doq bo' la - di do - o


59
X.
Qa ra-sam gu-noh bo‘ la-di
62
X.
Go‘ zi g‘-zi-ma tush-gan-da Yu-ra-gim o‘y-
65
X.
noq bo‘-la-di
Shaq shaq shaq
68
X.
sha-qil-do-qing-dan
Sha-qik-da-g‘an
71
X.
bar-mo qing dan
qay-ro qing dan
74
X.
76
X.
79
X.


81
X.
84
X.
Yu-rak gi-nam-da a gi-na
87
X.
Bu qan-da-yin qiy-noq gi-na
90
X.
Yu-rak-gi-nam-da a-do-gi-na a...
93
X.
Bu qan-da-yin qiy-noq-gi-na
96
X.
Voy ma ni a-do qi-la-dir Qo' ling-da-gi
99
X.
qay-roq gi na
101
X.
Shaq shaq shaq sha-qil-do-qing-dan



Shaq-shaq-shaq shaqildoqingdan,
Shaqildag'an barmoqingdan.
Shaq-shaq-shaq shaqildoqingdan,
Shaqildag'an qayroqingdan.

Baland ekan-da bo'ylari,
Baland ekan-da uylari.
O'sha uydan mung keladir,
Lazgi va qayroq kuylari.

Naqarot

Boqmasam qandoq bo'ladi,
Qarasam gunoh bo'ladi.
Go'zi-go'zima tushganda,
Yuragim o'ynoq bo'ladi.


Naqarot

Yurakginamda adogina,
Bu qandayin qiynoqgina.
Voy mani ado qiladir,
Qo'lingdagi qayroqgina.


YOPPASIGA HAMMA




Kim ning so zi so z bo'l- ma - sa
san' - a ti da yo z bo'l-masa
gul bog' lar ni ke zib kiy - sin
uch kun gi na o z bo'l-masa
ol - ma yu - zi o l bo' ladi


qal bi bo'l - sa lo l bo' ladi
bol a - ri - dek meh nat qil - gan
kuy - la - ga - ni bo l bo' - ladi
Yop -yop yop - pa - si - ga ham-ma
1.
tu - ti - na - di to-g'a ji-uan am-ma
San' - at gu li
gul ma kon ga bo-ring An - di - jon - u Mar-g'i-
lon-ga san' - at gu li
gul ma - kon ga bo-ring An - di - jon - u Mar-g'i -


lon - ga
Yop - yop yop - pa - si - ga
ham - ma
tu - ti - na - di to - g'a ji - yan
am - ma


Yop-yop yop-pa-si-ga
ham-ma
tu-ti-la-di to-g'a ji-yzn
1.
2.
am ma
San' at gu li gul ma kon ga
bo-ringAn-di-jon-u Mar g'i-lon-ga
San' at gu li gul ma kon ga
bo-ringAn-di-jon-u Mar g'i-lon-ga
Yop-yop yop-pa-si-ga ham ma
tu-ti-la-di to-g'a ji-yan am-ma



Kimning sozi soz bo‘lmasa,
San’atida yoz bo‘lmasa,
Gulbog‘larni kezib kiysin,
Uch kungina oz bo‘lmasa.

Olma yuzi ol bo‘ladi,
Qalbi bo‘lsa lol bo‘ladi.
Bolaridek mehnat qilgan,
Kuylagani bol bo‘ladi.

Naqarot

Yop-yop yoppasiga hamma,
Tutinadi tog‘a – jiyan, amma.
San’at guli – gul makonga,
Boring Andijonu Marg‘ilonga.

Havas ekan yetmoq yo‘li,
Elga xizmat etmoq yo‘li.
Halol yo‘ldan boshlangaydir,
Nurli qo‘shiq aytmoq yo‘li.

Bilganim shul yo‘q o‘zgasin,
Izlamanglar tirnoqdan kir
Barchamiz ham birday banda,
Har ish bo‘lsa xudodandir.

Naqarot

Yop-yop yoppasiga hamma,
Tutinadi tog‘a – jiyan, amma.
San’at guli – gul makonga,
Boring Andijonu Marg‘ilonga.

QOSHLARI QORA




A-ta-la-si-ning mo yiyo‘q dir su-pa-si-ningchan giyo‘q dir
Pul gi na-si yir tiq ' - kan a-jabhan go - ma larko‘r dim
O‘l dir-sin o o‘l dir-sin o qosh-lari qo-ra o‘l dir-sin
qo-ra chi nor ol-di - da-yo bu-rama co-chi o‘l dir-sin
Qa - lamqa lam qo shi ga yo to‘ldir mado‘p pi bo shi ga yo
E - shi gi-gabosh qo‘u samo cha-qir-may di qo-shi-ga-yo



Buxor bordim, buxor bordim,
Ajab gulzor ekan ko'rdim.
Machit usti madrasa-yo
Kosib to'la bozor ko'rdim.

Naqarot

O'ldirsino o'ldirsina,
Qoshlari qaro o'ldirsin.
Qora chinor oldida-yo,
Burama sochi o'ldirsin.

Atalasining moyi yo'qdur,
Supasining changi yo'qdur.
Pulginasi yirtiq ekan,
Ajab hangomalar ko'rdim.

Naqarot

Qalam-qalam qoshiga-yo,
To'ldirma do'ppi boshiga-yo.
Eshigiga bosh qo'ysamo,
Chaqirmaydi qoshiga-yo.

Naqarot

O'ldirsino o'ldirsina,
Qoshlari qaro o'ldirsin.
Qora chinor oldida-yo,
Burama sochi o'ldirsin.

O‘ZIMGA


Allegro
Kiy ga-nim da at-las ko‘y-lak eg-nim-ga
Zor bo‘-lib boq-mangma ni ko‘-zim-ga
Kiy-ga nim-da at-lasko‘y-lak eg-nim ga
Zor bo‘-lib boq-mangma ni ko‘-zim-ga
Tursam gar ko‘-cha-da yo-nim-ga kel-mang


xi-jo - lat tor - ta-man boq-mangyu-zim - ga
Chiq sam gar ko'-cha ga yo nim ga kel - mang
hi-jo - lat tor - ta man boq - mang yu - zim ga
O'zim - ga O'zim - ga ma ni o'zim - ga
1.
mah - li-yo bo' - lib - ay boq - mang o'zim - ga
2.
ga


Tov lan-sa sir- g'am ning zum-radko'z-la-
ri Rangta-la-shar sa-mo-ning yul-duz la-ri
Tov lan-sa sir- g'am- ning zum radko'z-la-
ri Rangta-la-shar sa- mo ning yul-duz la-ri
Yu zim dan u-yo lar hay-ron o'z-la-
ri hi-jo-lat tor-ta-man boq-mangyu zim-
ga Yu zim dan u-yo lar hay-ron o'z-la
ri hi-jo lat tor-ta man boq-mangyu zim-
ga


O‘- zim -ga O‘-zim ga ma ni o‘zim-
ga mah - li - yo bo‘-lib ay boq -mang o‘-zim
1.
2.
ga ga
Bo-g‘im-da bor bit ta
ki-chik yo‘ - lak - cha gul zor - ga el ta - di
bo‘ -yi bo‘lak - cha Bo-g‘im-ga bor bit ta


ki-chik yo'lak - cha gul zor - ga el - ta di
bo' - yi bo' - lak - cha
8 TAKT USUL
Gap la-rim ni bo'l - mang yuz la- ri g'un- cha
xi-jo-lat tor - ta man boq mang yu zim - ga
O'zim-ga O'- zim - ga ma ni o'zim - ga
1.
2.
mah-li-yo bo'lib-ay boq - mang o'-zim - ga



Kiyganimda atlas ko‘ylak egnimga,
Zor-zor bo‘lib boqmang mani ko‘zimga.
Tursam gar ko‘chada yonimga kelmang,
Xijolat tortaman boqmang yuzimga.

Naqarot

O‘zimga, o‘zimga, mani o‘zimga,
Maxliyo bo‘lib boqmang o‘zimga.

Tovlansa sirg‘amning zumrad ko‘zlari,
Rang talashar samoning yulduzlari.
Yuzimdan uyolar hayron o‘zlari,
Xijolat tortaman boqmang yuzimga.

Naqarot

O‘zimga, o‘zimga, mani o‘zimga,
Maxliyo bo‘lib boqmang o‘zimga.

Bog‘imda bor bitta kichik yo‘lakcha,
Gulzorga eltadi bo‘yi bo‘lakcha.
Gaplarimni bo‘lmang yuzlari g‘uncha,
Xijolat tortaman boqmang yuzimga.

Naqarot

O‘zimga, o‘zimga, mani o‘zimga,
Maxliyo bo‘lib boqmang o‘zimga.


SHIRIN JONIM




Qi-zil ol-ma oq ol - ma shi-rin jo - nim
jo-ni - mey Shi- ri-ni be - li tol ma shi-rin jo - nim
jo-ni mey Se-ni iz-lab yor de - dim Shi-rin jo - nim
jo-ni- mey o'z-ga - ga na zar sol - ma shi-rin jo-nim jo-
ni mey shi-rin shi-rin jo-ni - mey shi-rin jo nim
jo-ni- mey shi-rin shi - rin jo-ni - mey shi-rin jo nim


jo - ni - mey
Ol ma sot - ga - ni chiq sam shi rin jo - nim
jo-ni mey Qi zi-li-ni tan lay - di shi rin jo - nim
jo-ni mey Ol ma sot - ga - ni chiq sam shi rin jo - nim
jo ni mey Qi zi- li- ni tan lay di shi rin jo - nim
jo-ni mey Dun yo da i shim yo'q - day shi rin jo nim


jo-ni - mey Qal-bim se-ni iz- lay- di shi rin jo-nim
jo-ni mey shi rin shi rin jo-ni mey
shi rin shi rin jo-ni mey
shi rin shi rin jo-ni mey shi rin jo - nim
jo-ni mey shi rin shi - rin jo-ni mey shi rin jo nim
jo-ni mey shi rin shi rin jo-ni mey shi rin jo - nim
jo-ni mey shi rin shi rin jo - ni - mey shi rin jo nim
jo-ni mey shi rin shi rin jo-ni mey shi rin jo nim



Olma otdim daryoga, shirin jonim, jonumey.
Qalqiydi-yu cho‘kmaydi, shirin jonim, jonimey.
Seni yorimni dardlari, shirin jonim, jonimey.
Yuragimdan ketmaydi, shirin jonim, jonimey.

Naqarot
Shirin-shirin jonimey, shirin jonim, jonimey.
Shirin-shirin jonimey, shirin, jonim, jonimey.

Qizil olma oq olma, shirin jonim, jonimey.
Shirini beli tolma, shirin jonim, jonimey.
Seni izlab yor dedim, shirin jonim, jonimey.
O‘zgaga nazar solma, shirin jonim, jonimey.

Naqarot
Shirin-shirin jonimey, shirin jonim, jonimey.
Shirin-shirin jonimey, shirin, jonim, jonimey.

Olma sotgani chiqsam, shirin jonim, jonimey.
Qizilini tanlaydi, shirin jonim, jonimey.
Dunyoda ishim yo‘qday, shirin jonim, jonimey.
Qalbim seni izlaydi, shirin jonim, jonimey.

Naqarot
Shirin-shirin jonimey, shirin jonim, jonimey.
Shirin-shirin jonimey, shirin, jonim, jonimey.

OZOD VATAN

Shoshilmay





He-e-eyyy!!!
Ozod vatan bag'rida, yayrab yasha hur, o'zbek.
Jumla jahon xalqiga, yorug' yuzing dur, o'zbek.
O'zbek, o'zbek, hoy o'zbek, yorug' yuzing dur, o'zbek.

Shavkatlidur tarixining, ibratlidir ma'rifining.
Dovrug' doston ta'rifing, senga baxt shirin, o'zbek.
O'zbek, o'zbek, hoy o'zbek, senga baxt shirin, o'zbek.

Yigitlari shunqor sor, kurash ko'pkarisi bor.
Samandur ko'k boychibor otlari uchqur, o'zbek.
O'zbek, o'zbek, hoy o'zbek, otlari uchqur, o'zbek.

«FOLKLOR MUSIQA IJROCHILIGI» FANIDAN TEST SAVOLLARI

I VARIANT

1. **Folklor ijodiyotining o'ziga xos xususiyatlari nima?**
   A) Jamoatchilikda
   B) Ommaviylikda
   C) Uyatchanlikda
   D) Variantlilikda

2. **Folklorning asosiy vazifalarini ayting?**
   A) Amaliy
   B) Estetik
   C) Keng ommaga eshittirish
   D) Yuqoridagilarning barchasi

3. **Folklor atamasi kim tomonidan ilmga kiritilgan?**
   A) Gets
   B) Bayron
   C) Pushkin
   D) U. Temson

4. **Folklor deganda nimani tushunasiz?**
   A) San'at
   B) Falsafa
   C) Xalq pedagogikasi
   D) Xalq donishmandligi, xalq bilimi

5. Folklordan sanatning qaysi turlari va janrlari ajralib chiqqan?

A) Musiqiy teatr sanati

B) Arxitektura

C) Rassomchilik

D) Amaliy san'at

6. Askiya janrining o'ziga xos xususiyati nimada?

A) Hazil

B) So'z o'tkirligi, achchiq kinoya

C) Badehago'ylik qilish

D) So'z ketma-ketligi

7. Folklor qo'shiqlari janrlarini ko'rsating?

A) Qadimiy

B) Yil fasllari

C) Zamonaviy

D) Marosimiy

8. Marosimiy folklor janrlarini ko'rsating?

A) Diniy

B) Oilaviy

C) Bahorgi

D) Afsun, jodu

9. Etnografik ansambllar repertuarida qaysi janrlar asosiy hisoblanadi?

A) Xalq qo'shiqlari

B) Musiqiy va an'anaviy xalq qo'shiqlari

C) Milliy marosim va an'analar asosidagi xalq qo'shiqlari ijrosi

D) Qadimiy musiqa asboblar jo'rligidagi ijro

10. O‘zbekistonda birinchi oliy musiqa o‘quv yurti qachon tashkil etilgan?

A) Turkiston xalq konservatoriyasi – 1918- yil

B) Samarqand musiqa va xoreografiya ilmiy-tadqiqot instituti – 1928- yil

C) Toshkent Davlat konservatoriyasi – 1936- yil

D) O‘zbekiston xoreografiya bilim yurti – 1938- yil

11. Milliy cholg‘ular bo‘yicha yosh sozandalar respublika tanlovlarining boshlangan yilini ko‘rsating?

A) 1970-yil

B) 1971-yil

C) 1972-yil

D) 1975-yil

12. Cholg‘ular bo‘yicha dastlabki darslik qachon nashr etilgan?

A) 1961-y. G»ijjak darsligi

B) 1933-y. O‘zbekiston musiqa cholg‘ulari

C) 1963-y. Rubob darsligi

D) 1952-y. Doira darsligi

13. O‘zbekiston san’atkorlari orasida ilk bor «akademik» unvonini kim olgan?

A) S. Yudakov

B) M. Leviyev

C) Yu. Rajabiy

D) Tamaraxonim

14. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi unvonini olgan soz yasovchi usta kim?

A) Namanganlik usta Ro‘zmat Isaboyev

B) Xorazmlik usta Matyusuf Xarratov

C) Toshkentlik usta Usmon Zufarov

D) Toshkentlik usta Sirojiddin Muhitdinov

15. Buxoro Shashmaqomi kim tomonidan notaga olingan?

A) V. Belyaev
B) V. Mironov
C) Yu. Rajabiy
D) V.Uspenskiy

16. «Alpomish», «Oshiq G'arib» asarlari qaysi janrga mansub?

A) Opera
B) Balet
C) Qo'shiq
D) Doston

17. O'rta asr mutaffakkirlaridan musiqa ilmiga katta hissa qo'shgan alloma nomini ko'rsating?

A) Al-Xorazmiy
B) Ahmad Farg'oniy
C) Alisher Navoiy
D) Al-Farobiy

18. «Eorotologiya»so'zining lug'aviy ma'nosini ayting?

A) Tomoshalar haqidagi fan
B) Bayramlar haqidagi fan
C) Xalq og'zaki ijodi haqidagi fan
D) Urf-odatlar haqidagi fan

19. «Mizonssena» deganda nimani tushunasiz?

A) Aktyorlarni sahnada joylashishi
B) Qarama-qarshiliklarning plastik harakatga ko'chirish
C) Sahnada joylashishning sxemasi
D) Sahnada harakat qilish

20. «Rejissor» so'zining lug'aviy ma'nosini ayting?

A) Tashkilotchi
B) Yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi

C) Boshqaruvchi
D) Tarbiyalovchi

21. «Rejissura» san'ati qachon paydo bo'lgan?
A) XV asrda
B) XVI asrda
C) XVIII asrda
D) XIX asrda

22. Sahnalashtirish uslubining asosini nima tashkil etadi?
A) Drama
B) Roman
C) Senariy
D) Hikoya

23. «Bayram» so'zining lug'aviy ma'nosini ayting?
A) Xursandchilik
B) Shodiyona
C) Insonlar xursandchiligining yig'indisi
D) Tomosha

24. «Kompozitsiya» so'zining lug'aviy ma'nosini ayting?
A) Ketma-ketlik
B) Bir-butun, yaxlitlik
C) Uzviylik
D) Doimiylik

25. Sahnalashtirish deganda nimani tushunasiz?
A) Badiiy obrazli holatga keltirish
B) Sahnaviy xatti-harakatni yuzaga keltirish
C) Teatr uslublaridan foydalanish
D) Badiiy obrazni vujudga keltirish

26. «Avj» deganda nimani tushunasiz?

A) Ulash
B) Yuqori nuqta
C) O‘tish
D) Davom ettirish

27. «Folklor qo‘shiqlari» (2003-y.) kitobining muallifi kim?

A) R.Hamidov
B) O‘.Toshmatov
C) S.Hayitboyev
D) H.Jo‘rayev

28. «Misteriya» qanday janr?

A) Ommaviy
B) Tarixiy
C) Maishiy
D) Diniy

29. «Tugun» deganda nimani tushunasiz?

A) Qarama-qarshilikni boshlab beruvchi nuqta
B) Kelishmovchilik
C) Do‘stlik
D) Ko‘rolmaslik

30. «Avonssena» so‘zining ma’nosini ayting.

A) Sahnaning orqasi
B) Sahnaning o‘rtasi
C) Sahnaning yoni
D) Sahnaning oldi

31. «Fabula» deganda nimani tushunasiz?

A) Voqealarning ketma-ket bayoni
B) Voqealarning rivojlanishi
C) Voqealarning davomiyligi
D) Voqealarning yuqori cho‘qqisi

32. Nechta intervallar bor?

A) 3 ta
B) 12 ta
C) 4 ta
D) 8 ta

33. Nota yozuvi nechta chiziqda yoziladi?

A) Bitta
B) Ikkita
C) Beshta
D) To'rtta

34. O'zbekiston Respublikasi madhiyasining musiqa muallifi kim?

A) S. Yudakov
B) M. Ashrafiy
C) M. Burxonov
D) M. Bafoyev

35. «O'zbekiston – Vatanim manim» qo'shiqlar tanlovi birinchi marotaba nechanchi yilda o'tkazilgan?

A) 1991 -yil
B) 1998 -yil
C) 1996 -yil
D) 1994 -yil

36. O'zbekiston yoshlari madhiyasining musiqa muallifi kim?

A) F. Alimov
B) Sh. Yormatov
C) N. Morunkova
D) A. Mansurov

II VARIANT

1. «Bulbuligo'yo» xalq folklor-etnografik ansamblining badiiy rahbari kim?

A) Yunus Rajabiy
B) Imomjon Ikromov
C) Rahmatulla Mo'minov
D) Faxriddin Sodiqov

2. Katta ashula qaysi viloyat mahalliy musiqiy uslubiga kiradi?

A) Surxondaryo
B) Qashqadaryo
C) Farg'ona
D) Xorazm

3 Mavrigi nomi bilan aytiladigan turkumlar qaysi viloyat mahalliy musiqiy uslubiga kiradi?

A) Xorazm
B) Qashqadaryo
C) Farg'ona
D) Buxoro

4. Birinchi professional lapar ijrochisi kim?

A) Halima Nosirova
B) Shahodat Rahimova
C) Mehri Abdullayeva
D) Tamaraxonim

5. «Otmagay tong» ashulasining musiqasini kim yaratgan?

A) Saidjon Kalonov
B) Nabijon Xasanov
C) Komiljon Jabborov
D) To'xtasin Jalilov

6. «O‘rtar» ashulasining musiqasini kim yaratgan?

A) R. Tursunov
B) M. Tojiboyev
C) H. Jo‘rayev
D) M. Ahmedov

7. «Bahor valsi» kuyining musiqiy muallifi kim?

A) G‘anijon Toshmatov
B) Muhammadjon Mirzayev
C) Sayfi Jalil
D) Sulton Hayitboyev

8. Lirik «Soprano» ovoz tembriga ega xonanda ayollardan kimlarni bilasiz?

A) Komuna Ismoilova
B) Munojot Yo‘lchiyeva
C) Sanobar Karimov
D) Habiba Oxunova

9. Lirik «Tenor» ovoz tembriga ega xonandalardan kimlarni bilasiz?

A) Kamoliddin Rahimov
B) Xayrulla Lutfullayev
C) Hasan Rajabiy
D) Eson Lutfullayev

10. «Bariton» ovoz tembriga ega xonandalardan kimlarni bilasiz?

A) O‘lmas Saidjonov
B) Eson Lutfullayev
C) Mahmudjon Yo‘ldoshev
D) Kamoliddin Rahimov

11. «Ey, sarvi ravon» ashulasining musiqiy muallifi kim?

A) Faxriddin Sodiqov

B) Muxtorjon Murtozayev
C) G'ulomjon Hojiqulov
D) Saidjon Kalonov

12. Xorazm olti maqomini kim nota matniga tushirgan?
A) Komiljon Otaniyozov
B) Sulton Hayitboyev
C) Matniyoz Yusupov
D) Hojixon Boltayev

13. «Farg'ona tong otguncha» ashulasining musiqiy muallifi kim?
A) To'xtasin Jalilov
B) Muxtorjon Murtozayev
C) G'anijon Toshmatov
D) Saidjon Kalonov

14. Olti jildlik «O'zbek xalq musiqasi» kitobining muallifi kim?
A) Matniyoz Yusupov
B) Fayzulla Karomatov
C) Mahmud Ahmedov
D) Yunus Rajabiy

15. Tanbur sozi ijrosida o'ziga xos maktab yaratgan sozanda kim?
A) Jo'rabek Saidaliyev
B) Orif Qosimov
C) Turg'un Alimatov
D) Mahmud Yunusov

16. «Maqomlar masalasiga doir» kitobining muallifi kim?
A) Fayzulla Karomatov
B) Matniyoz Yusupov

C) Mahmud Ahmedov
D) Ishoq Rajabov

17. « To'ylar muborak» ashulasining musiqiy muallifi kim?
A) Faxriddin Sodiqov
B) Fattohxon Mamadaliyev
C) To'xtasin Jalilov
D) Orifxon Hotamov

18. Antik davr musiqa madaniyati (qadimgi Gretsiya) o'z rivojida nimaga asoslangan?
A) Fransiya musiqa madaniyatiga
B) Xitoy musiqa madaniyatiga
C) Misr musiqa madaniyatiga
D) Rus musiqa madaniyatiga

19. Hozirgi zamon nota yozuvi qayerda va kim tomonidan yaratilgan?
A) Rossiyada P. Chaykovskiy
B) Italiyada Gvido
C) O'zbekistonda T. Sodiqov
D) Polshada F. Shopen

20. Turkiston xalq konservatoriyasi qachon ochilgan?
A) 1890- yilda
B) 1900- yilda
C) 1928- yilda
D) 2001- yilda

21. O'zbek og'zaki an'anasidagi kasbiy musiqa janrlarini ko'rsating.
A) Lapar, terma
B) Simfoniya
C) Kasbiy janrlar yo'q
D) Katta ashula, doston, maqom

22. Katta ashulaning asosiy xususiyati nimada? Bu janr qayerda rivojlangan?

A) Kuychangligi. Toshkentda
B) Takrorlanishi. Xorazmda
C) Ansambl jo'rligida ijro etilishi. Buxoroda
D) Jo'rsizligida. Farg'ona vodiysida

23. Buxoro maqomlarining boshqacha nomini ayting?

A) Chormaqom
B) Shashmaqom
C) 12 maqom
D) 24 maqom turkumi

24. Folklor musiqa ijrochiligida nechta mahalliy uslub mavjud?

A) 4 ta
B) 7 ta
C) 3 ta
D) 5 ta

25. Folklor musiqa ijrochiligi kitobining muallifi kim?

A) T. Mo'minov
B) N. Qosimov
C) H. Jo'rayev
D) B. Sarimsoqov

26. «Xalq» unvoniga ega bo'lgan folklor-etnografik ansamblining nomini ayting?

A) Boychechak
B) Chashma
C) Boysun
D) Gullola

27. Xalq laparlarining nechta asosiy xususiyatlari bor?

A) 4 ta
B) 7 ta

C) 3 ta
D) 2 ta

28. O‘lchovlar necha turga bo‘linadi?
A) Uch
B) Besh
C) Yetti
D) Ikki

29. Folklor musiqa ijrochilik san’atidagi mustaqil janrlarni ko‘rsating?
A) Ertaklar
B) Miflar
C) Lapar, o‘lan, yor-yor
D) Udumlar

30. Ilk tashkil etilgan folklor-etnografik ansambllarining nomini ko‘rsating?
A) Boychechak, Chashma
B) Gulyor, Yor-yor
C) Shalola, Anor
D) Bog‘ishamol, Tomosha

31. Folklor cholg‘ularining nomlarini ko‘rsating?
A) Rubob prima, skripka
B) Sibizg‘a, chanqovuz
C) Dutorbas, dutor alt
D) Kontrabas, fleyta

32. «Folklor-etnografik ansambllari» kitobining muallifi kim?
A) T. Mirzayev
B) M. Jo‘rayev
C) N. Qosimov
D) S. Yo‘ldosheva

33. Nechta alteratsiya belgilari bor?

A) 2 ta
B) 8 ta
C) 4 ta
D) 5 ta

34. Skripka kaliti yana qanday tovush nomi bilan aytiladi?

A) Do kaliti
B) Sol kaliti
C) Si kaliti
D) Fa kaliti

35. Templar necha turga bo'linadi?

A) Uch
B) Besh
C) Olti
D) Sakkiz

36. O'zbek folklori asoschilarining nomlarini ayting?

A) H. Zarif, M. Alaviya
B) Sh. Turdimov, M. Jo'rayev
C) N. Qosimov, A. Musaqulov
D) S. Yo'ldosheva, S. Alimov

III VARIANT

1. Qaysi asrda sharq musiqasi madaniyati tarixda boy meros qoldirdi?

A) IX–XII asrda
B) XII–XIII asrda
C) XIII–XIV asrda
D) XIV–XV asrda

2. Nota yozuvi qaysi asrda yaratilgan?

A) XIII asrda
B) XIV asrda

C) XV asrda
D) XVI asrda

3. Musiqa yozuvini yaratishga kim harakat qilgan?
A) Ogahiy
B) Al-Xorazmiy
C) Al-Buxoriy
D) Abu Nasr Forobiy

4. Allomaning qaysi asarida keltirilgan jadvali diqqatga sazovordir?
A) «Kitobul musiqiy al-kabir»
B) «Turkiy»
C) «Devoni hikmati»
D) «Nuh to'foni»

5. Abu Nasr Forobiyning jadvali cholg'u asboblari va sozandalar mashg'ulotlari uchun mo'ljallangan necha qismdan iborat?
A) 3 qismdan
B) 4 qismdan
C) 5 qismdan
D) 6 qismdan

6. Abu Nasr Forobiyning musiqiy estetik qarashlarini kim davom ettirib, yuqori pog'onaga ko'tardi?
A) Abu Ali ibn Sino
B) Abu Rayhon Beruniy
C) K. Xo'jandiy
D) M. Koshg'ariy

7. O'sha zamonning mashhur musiqa olimi kim edi?
A) V. A. Uspenskiy
B) Safiuddin al-Urmaviy

C) Komil Xorazmiy
D) Al Buxoriy

8. Al-Urmaviyning nota sistemasi qaysi sozga moslashgan edi?

A) «Ud»
B) «Uch»
C) «Ulug'la»
D) «Maqta»

9. Xorazmda yashab ijod etgan qaysi olim, shoir va bastakorni bilasiz?

A) Al-Xorazmiy
B) Komil Xorazmiy
C) Al-Urmaviy
D) H. Dehlaviy

10. O'zbek musiqa ijodini to'plagan va notaga tushirishda katta xizmat qilgan qaysi musiqashunoslarni bilasiz?

A) Uspenskiy, Romanovskiy, Akbarov
B) Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino
C) Al-Urmaviy, al-Xorazmiy
D) Al-Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy

11. O'zbek musiqashunosligining otasi, bastakor, akademik nomini ayting.

A) M. Yusupov
B) M. Leviyev
C) Y. Rajabiy
D) F. Karomatov

12. 1955–59-yillarda nashr qilingan 5 jilddan iborat bo'lgan to'plamning nomini ayting.

A) «O'zbek xalq musiqasi»
B) «Tojik xalq musiqasi»

C) «Turk xalq musiqasi»
D) «Shashmaqom»

13. Xorazm musiqasining yaratilishida qaysi bastakor-sozanda va xonandaning xizmati katta?
A) Y. Rajabiy
B) M. Yusupov
C) Al-Xorazmiy
D) Al-Buxoriy

14. Xorazm tanbur chizig'i nechanchi asrda qaysi bastakor, shoir, musiqashunos tomonidan ixtiro etilgan?
A) Muhammadniyoz Pahlavon Muzabog'il
B) Otajalol Nosir o'g'li Otag'iyoz Abdu G'ani
C) Matniyoz Yusupov
D) Safiuddin al-Urmaviy

15. O'zbek xalqining taniqli san'atkorlari asrlar davomida qaysi janrga yondashib asarlar yaratishgan?
A) Nota yozuviga
B) Xalq og'zaki ijodiyotiga
C) Poetikaga;
D) Musiqaga

16. 1924-yili kim tomonidan Buxoro shashmaqomi yozib olingan?
A) Otajalol Nosir o'g'li Otag'iyos Abdu G'ani
B) Muhammadniyoz Pahlavon Muzabog'il
C) Romanovskaya
D) Uspenskiy

17. 1929-yili Romanovskaya kimdan bir qancha xalq kuylarini yozib olgan?
A) Abdusoat Vahobovdan
B) Komil Xorazmiydan

C) Muhammad Ali Qobulidan
D) Usta Vohid Olimovdan

18. Qaysi yilda Samarqandda musiqa va xoreografiya ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etulgan?

A) 1925- yilda
B) 1926- yilda
C) 1928- yilda
D) 1930- yilda

19. «Navro'z taronalari» nomli o'quv qo'llanmasining mualifi kim?

A) O'. Toshmatov
B) F. Karomatov
C) M. Yusupov
D) X. Xursandov

20. Musiqa asarining mazmuni va xarakteri nimaga chambarchas bog'liq bo'ladi?

A) Temp
B) Lenta
C) Nota
D) Takt

21. Tempning aniq belgilari qanday vosita yordamida belgilanadi?

A) Notalashishi
B) Xalq og'zaki ijodi
C) Metronom
D) Magnit lentasi

22. Surxon vohasida bo'lib o'tadigan qaysi Xalqaro folklor festivalining nomini bilasiz?

A) «Boysun bahori»

B) «Qalbim chechagi»
C) «Yoz ifori»
D) «Mehnat bayrami»

23. Asarni musiqiy tahlil qilish bilimlarini egallashda nimaga alohida e'tibor berish kerak?
A) Kuy qo'shiqni yozib olishga
B) Eshitish qobiliyatiga
C) Texnika vositasiga
D) Yozib olishga

24. «Oq olma, qizil olma» kitobi kim tomonidan yozilgan?
A) M.Alaviya
B) Yu. Rajabiy
C) H. Hamidov
D) A. Odilov

25. «O'zbek xalq musiqasi» asari necha jilddan iborat?
A) 1–3
B) 1–4
C) 1–5
D) 1–7

26. «Qo'shiq va san'atkor» nomli kitob kim tomonidan yozilgan?
A) H . Hamidov
B) X. Lutfullayev
C) R. Tursunov
D) O. Matyoqubov

27. Hozirgi kunda xalq kuy va qo'shiqlari kimlar tomonidan qayta nashr etilmoqda?
A) Musiqashunoslar, kompozitorlar, bastakorlar
B) Ustozlar, shogirdlar

C) Jo‘rnavozlar
D) Shoir, davlat arboblari

28. «Yallama yorim» qo‘shig‘i qaysi qo‘shiq turiga mansub?
A) Xalq qo‘shig‘i
B) Lirik qo‘shiq
C) Mumtoz qo‘shiq
D) Klassik qo‘shiq

29. Xalq qo‘shiqlarini yozib olishda nimaga alohida e’tibor qaratish kerak?
A) Shevasiga
B) Notasiga
C) Uslubiga
D) Tempiga

30. «Nota yozuvi tarixidan» asari kim tomonidan qachon nashrdan chiqqan?
A) I. Rajabov 1960- y.
B) Yu. Rajabiy 1995- y.
C) H. Hamidov 1996- y.
D) S. Taxalov 1983- y.

31. Dostonlarni notaga olishda nimaga alohida e’tibor qaratish kerak?
A) Jo‘rnavozlikka
B) Kuy o‘zgaruvchanligiga
C) Maqom yo‘llariga
D) Janr namunalariga

32. Notaga yozib olingan kuy, qo‘shiq va ashulalarining musiqiy tahlili ishning nimasini belgilaydi?
A) Sifat darajasini
B) Asarning mazmunini
C) Notaga yozib olishini
D) Ohang yo‘nalishini

33. Ashula va qo‘shiqlarning xususiyatlarida farq bormi?

A) Bor

B) Yo‘q

C) Ularda xususiyat yo‘q

D) Bilmayman

34. «Yor-yor» o‘zbek xalq qo‘shig‘i qaysi yo‘nalishda notalashtirilgan?

A) Toshkent–Sirdaryo

B) Jizzax–Navoiy

C) Surxondaryo–Qashqadaryo

D) Farg‘ona–Toshkent

35. «Muchal to‘yi» nomli kitobning muallifi kim?

A) O‘. Hoshimov

B) A. Oripov

C) Sh. Turdimov

D) S. Yo‘ldosheva

36. Xonandalar ovozi necha turga bo‘linadi?

A) Ikki (alt, saprano)

B) Besh (Bas, soprano, alt, bariton, tenor)

C) To‘rt (Bas, tenor, alt, soprano)

D) Uch (Bas, alt, tenor)

XULOSA

Ma'lumki, borliqda ortiqcha, keraksiz narsaning o'zi yo'q. Binobarin, borliqdagi barcha mavjudotning o'z o'rni, o'ziga xos vazifasi bor.Biroq ana shu narsalarning hammasi tarixiylik deb ataluvchi oliy hakam ixtiyoridadir. Mana shu nuqtayi nazardan qaralsa, janr ham tarixiy kategoriya hisoblanadi. Chunki, u cheksiz davomiylikka ega bo'lgan vaqtning muayyan nuqtasida, muayyan makonidagi kishilarning talab va ehtiyojlari tufayli vujudga kelib, ma'lum davrlarda ana shu talab va ehtiyojlar so'nishi bilan iste'moldan tushib qoladi.

O'zbek xalq laparlari folklorimizning mustaqil janrlaridan biri bo'lib, u o'zining tarixiylik ildizlari bilan ancha qadimiydir. Bu qadimiylik janrning ijro o'rni-bevosita marosim bilan aloqadorlikda yaratish va ijro etilish, ijro tarzi-ikki jinsga mansub shaxslar o'rtasida aytishuv shaklida voqe bo'lishi, o'z tarkibida so'z va musiqa uyg'unligi, xoreografik hamda dramatik turga xos xususiyatlarning mavjudligi-folklorga xos sinkretizm-ning ishtirok etishi bilan to'la tasdiqlanadi.

Barcha janrlarda bo'lganidek, tarixiy taraqqiyot natijasida xalq laparlari ijrochilari tarkibida, ijro o'rni va shakllarida ham katta o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, asrimizning 60-yillaridan boshlab to'y marosimlarimizga professional san'atkorlarning kirib kelishi, qolaversa, xalq ijrochilari repertuariga ham professional qo'shiqchilarning ko'plab o'tishi asta-sekin qizlar bazmida xalq laparlarining ijro etilmay qolishiga sabab bo'ldi. Buning ustiga, vaqt o'tishi bilan lapar ijrochilarining tobora kamayib borishi ham janrning ommaviy ijro tarziga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O‘zbek xalq laparlarining ilk tadqiqotchilari Elbek, M.Alaviyalarning bergan ma’lumotlariga qaraganda, janrning ijro doirasidagi torayishi hattoki, 30-yillarning oxirlaridan boshlab sezila boshlagan. Biroq bu torayish ijtimoiy-siyosiy hayotdagi turli-tuman voqealar oqibatida yanada chuqurlashdi va jadallashdi. Ikkinchi jahon urushining fojeasi oqibatlari nafaqat marosimlarimizning kechish tarziga, balki ularda ijro etiladigan folklor janrlari miqyosiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga nisbatan bo‘lgan salbiy mafkuraviy tazyiq ham laparlarning jonli ommaviy ijrosini orqaga tortdi.

Xalq laparlari janri o‘z boshidan mana shunday tarixiy jarayonlarni kechirayotgan bir paytda ko‘plab lapar namunalari yirik san’atkorlar repertuariga o‘tib, qaytadan sayqal topib, el orasida tinglanib yuriladi. Tamaraxonim, Halima Nosirova, Mehri Abdullayeva, Rahima Mazohidova, Tursunoy Mamedova, Gulshoda Otaboyeva kabi ko‘plab yirik san’atkorlar repertuaridan mustahkam joy olgan xalq laparlari o‘zlarining xalqona asoslarini, mazmunini yo‘qotmagan holda ijro tarzi, ohangi va ruhida muayyan darajada o‘zgarishlarga uchradi, aniqrog‘i, ular san’atkorlar sayqaliga uchradilar. Mana shu tariqa o‘zbek xalq laparlari ikki qismga bo‘linadi. Birinchisi-ommaviy xalqona ijroga ega bo‘lgan terma laparlar. Bular nikoh to‘ylarining muayyan uzvida omma tomonidan bir qadar ijro etilib kelindi. Ammo keyinchalik ular ham marosim amaliyotidan siqib chiqarildi.Ikkinchisi – professional san’atkorlar repertuariga o‘tgan laparlar bo‘lib, ular to‘ylar (to‘yga san’atkor taklif etilganda), bayram va sayllarda keng ijro etila boshlandi. Biroq barcha ijro aktlarida bir xil matnlarni ijro qilish oqibatida badihago‘ylik yo‘qoldi. Shunga qaramay bunday laparlar turli hududlarda ijro etilishi natijasida ayrim laparlarning turli viloyatlardagi variantlari ham vujudga keldi.

Hozirgi paytga kelib to‘y marosimlarida jonli lapar aytish an’anasi butunlay so‘ngach, ko‘plab terma laparlarni yoshlar bilmaydilar, ular turli to‘plam va kitoblarda folklor arxivlari va keksalar xotirasidagina saqlanib qolgan xolos.

Xalq o'rtasida lapar aytish an'anasi asosan so'ngan bo'lsa ham,biroq laparlarga xos badiiylik hamon barqaror saqlanib qolgan. Bunday badiiylik esa janrning qadimiyligidan dalolat beradi.

Laparlarning she'riy matnidagi ritmik-sintaktik parallelizmlar, ruhiy parallelizmga asoslangan amebey kompozitsiya, ijroda dialogik aytishuvning mavjudligi, obraz va obrazlilikning yaratilishida turlicha ko'chimlar, tasvir hamda ifoda vositasi va usullarining istifoda etilganligi janrning badiiy tarkibi va tabiatining barqaror ekanligini tasdiqlaydi.

Respublikamiz o'zining milliy mustaqilligini qo'lga kiritgach, milliy qadriyatlarimizga bo'lgan munosabatni butunlay o'zgartirib yubordi. Endilikda xalq laparlari eskilik qoldig'i yoki feodal jamiyatdan saqlanib qolgan sarqit emas, balki xalqimizning o'z ildizlari bilan qadim-qadimdan beqiyos badiiy dahoga ega ekanligini isbotlovchi nodir asarlar sifatida baholanishi muqarrar.

Xalqning ma'naviy mulkiga bo'lgan mana shunday oqilona, insonlarcha munosabati tufayli xalq laparlari to'y marosimlari, bayram va sayllarimiz tarkibidan yana mustahkam o'rin olishiga shubhamiz yo'q. Bizning vazifamiz esa janrning tabiati va tarkibida yuz beruvchi har bir o'zgarish hamda hodisaning sababiyatlarini, ularning ijtimoiy-tarixiy asoslarini, estetik mohiyatini o'rganishdan iborat bo'lib qolaveradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *I.A.Karimov.* Istiqlol va ma'naviyat. – T.: O'zbekiston, 1994, – 155 b.

2. *Q.Ayimbetov.* Qaraqalpaq folklyori. – Nokis.: Qaraqalpaqistan, 1978. – 233 b.

3. *M.Alaviya.* O'zbek xalq qo'shiqlari. – T.: O'zFAN, 1959. – 315 b.

4. *M.Alaviya.* O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. – T.: O'zFAN, 1959. – 315 b.

5. *K.Allambergenov.* Qaraqalpaq edebiyatinda aytis. – Nokis: Qaraqalpaqistan, 1988. – 140 b.

6. *P.Amonov.* Lirikai xalqi tojik. – Dushanbe: Ipfon, 1968. – 411 b.

7. *М.Ауезов.* Мысли разных лет. – Алма-Ата: Ғылым, 1959. – 389 с.

8. *M.Auezov.* Aytis olender // Aytis – Alma-Ata., 1965. – 2-jild. – B. 10–21.

9. *К. Ачилов.* Узбекские народные трудовые песни: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Т., 1974. – 24 с.

10. *М. М.Бахтин.* Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Художественная литература. 1972. – 470 с.

11. *М. М.Бахтин.* Творчество Франсуа Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. М.: Наука, 1990. – 442 с.

12. *Boychechak.* Bolalar folklori. Mehnat qo'shiqlari / Redkollegiya: S.Azimov va boshq.; Tuzuvchi va nashrga tayyorlivchilar. O. Safarov, K. Ochilov. – T.: Adabiyot va san'at, 1984. – 333 b.

13. *А. Н. Веселовский.* Из истории эпитета // А. Н. Веселовский. Историческая поэтика. – М., 1989. – С. 59–75.

14. *А. Н. Веселовский.* Психологический параллелизм и его формы в отражениях поэтического стиля // А. Н. Веселовский. Историческая поэтика. – М., 1989. – С. 101–154.

15. *И. К. Горский.* Об исторической поэтике Александра Веселовского // Веселовский А. Н. Историческая поэтика. – М., 1989. – С. 11–31.

16. *Gulyor.* Farg'ona xalq qo'shiqlari / Redkol.: M. Ali va boshq.; To'plovchi va nashrga tayyorlovchi H. Razzoqov. – T.: Adabiyot va san'at. 1967. – 236 b.

17. *Н. Давкараев.* Очерки по истории дореволюционной каракалпакской литературы. – Т.: АН УзССР, 1959. – 221 с.

18. Древнетюркский словарь. – Я.: Наука, 1969. – 676 с.

19. *В. М. Жирмунский.* Ритмико-синтаксический параллелизм как основа древнетюрского народного эпического стиха. // Вопросы языкознания. – М: 1964. №4. – С. 3–24.

20. *В. М. Жирмунский.* О некоторых проблемах теории тюркского народного стиха // Тюркологический сборник. – М., 1970. – С. 29–68.

21. *F. Zehniyeva.* Surudhoi marosimi to'yi tojikon. – Deshanbe.: Irfon, 1978. – 56 s.

22. *S. Yo'ldosheva, G. Sattorova.* Folklor-etnografik ansambllari. – T.: 2007.

23. Kelinoy qo'shiqlari. Xalq qo'shiqlari va termalari / To'plovchi va nashrga tayyorlovchi O. Sobirov. – T.: Adabiyot va san'at, 1981. – 240 b.

24. *М. О. Косвен.* Очерки истории первобытной культуры. – М.: Наука. 1958. – 240 с.

25. Koshg'ariy Mahmud. Devonu lug'otit turk. Uch jildlik. 3-jild. – T.: Fan, 1963. – 461 b.

26. *T. Mirzayev.* «Alpomish» doctonining o'zbek variantlari. – T.: Fan, 1969. – 230 b.

27. *T. Mirzayev.* O'zbek folklorining janrlar sistemasi // O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T., 1990. – 87 b.

28. *A. Musoqulov.* O'zbek xalq lirikasi. – T.: Fan, 1965. – 166 b.

29. Ostonasi tillodan // Nashrga tayyorlovchilar: M. Mirzayeva, A. Musoqulov. – T., 1994. – 117 b.

30. Oq olma, qizil olma. O'zbek xalq qo'shiqlari / To'plovchi va nashrga tayyorlovchi M. Alaviya. – T.: Adabiyot va san'at. 1972. – 155 b.

31. *В. Я. Пропп.* Принципы классификации фольклорных жанров // В. Я. Пропп. Фольклор и действительность. – М., 1976. – С. 34–45.

32. *Б. Н. Путилов.* Современные проблемы исторической поэтики фольклора в свете историко-типологической тоерии // Фольклор. Поэтическая система. – М., 1977. – С. 14–22.

33. *H. Razzoqov.* O'zbek xalq qo'shiqlari // Gulyor. Farg'ona xalq qo'shiqlari. – T., 1967. – 246 b.

34. *S. Ro'zimboyev.* Xorazm vohasi o'zbek xalq qo'shiqlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi dis. – T., 1971. – 270 b.

35. *Рысалиев К.* Кыргыз ырларынын тузулуши. – Фрунзе: Мектеп, 1965. – 139 б.

36. *B. Sarimsoqov.* O'zbek adabiyotida saj'. – T.: Fan. 1978. – 214 b.

37. *B. Sarimsoqov.* O'zbek marosim aolklyori. – T.: Fan. 1986. – 216 b.

38. *B. Sarimsoqov.* Lapar // O'zbek folklyori ocherklari. Uch jildlik. – T., 1988. 1-jild. – B. 197–199.

39. *B. Sarimsoqov.* O'zbek folklyorining janrlar sostavi // O'zbek folklyori ocherklari. Uch jildlik. – T., 1988. – 1-jild. – B. 64–85.

40. *B. Sarimsoqov.* O'lan janri // O'zbek folklyori ocherklari. Uch jildlik. – T., 1988. 1-jild. – B. 94–197.

41. *B. Sarimsoqov.* Laparlar // O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T., 1988. – B. 129–137.

42. *O. Sobirov.* O'zbek sovet folklori ocherki. – T.: Fan, 1971. – 199 b.

43. *O'. Toshmatov.* Folklor qo'shiqlari. – T.: 2003.

44. *Sh. Turdimov.* O'zbek xalq lirik qo'shiqlsrida poetik ramzlar: Filol. fanlari nomzodi dis. – T., 1987. – 154 b.

45. *R. Tursunov.* O'zbek laparlarining musiqiy tabiati // O'zbek tili va adabiyoti. – 1991, – N 3. – B. 60–63.

46. *U. To'ychiyev.* O'zbek sovet poeziyada barmoq sistemasi. – T.: Fan, 1966. – 180 b.

47. *A. Fitrat.* Adabiyot qoidalari. – T.: O'qituvchi, 1995. – 109 b.

48. *Х.М.Халилов.* Народы Дагестана // Семейно-обрядовая поэзия народов Северного Кавказа. – Махачкала, 1985. С. 45–47.

49. *Т.А.Халищева.* Осетины // Семейно-обрядовая поэзия народов Северного Кавказа. – Махачкала, 1985. – С. 132–133.

50. *М.К.Хамраев.* Основы тюркского стихосложения. – Алма-Ата: 1963. – 189 с.

51. Xorazm xalq qo'shiqlaridan namunalar / Nashrga tayyorlovchi Qobulniyozov. – T.: Fan, 1965. – 413 b.

52. *Elbek.* Laparlar // Bilim o'chog'i. – 1922. – N 1. – B. 96–99.

53. O'zbek folklori. Pedagogika institutlari uchun xrestomatiya kitob. Tuzuvchi H. Zarif. – T.: O'zdavnashr, 1939. – 384 b.

54. O'zbek folklori. Pedagogika institutlari uchun xrestomatiya kitob. Tuzuvchi H. Zarif. – T.: O'zdavnashr, 1941. – 134 b.

55. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: O‘qituvchi, 1990. – 303 b.

56. *J. Qobulniyozov.* O‘zbek sovet folklorining rivojlanish yo‘llari. – T.: Fan. 1969. – 364 b.

57. O‘zbek xalq qo‘shiqlari. Shoda-shoda marvarid. To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi E. Ochilov. T.: 2006-y.

58. *N. Hotamov, B. Sarimsoqov.* Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1979. – 365 b.

59. *M. Jo‘rayev.* Navro‘z qo‘shiqlari. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. – T.: 2007.

MUNDARIJA

Kirish 3
Janr spetsifikasi 8
Janr kompozitsiyasi 25
Janr poetikasi 53
Xalq termalari va qo'shiqlaridan namunalar 83
«Folklor musiqa ijrochiligi» fanidan test savollari 162
Xulosa 183
Adabiyotlar ro'yxati 186

Nozim Kozimovich Qosimov

FOLKLOR MUSIQA IJROCHILIGI

Oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv qo'llanma

Toshkent – «Talqin» – 2008

Muharrir *L. A'zamov*
Texn. muharrir *A. Solihov*
Musahhih *R. A'zamova*
Kompyuterga tayyorlovchi *K. Goldobina*

Bosishga ruxsat etildi 24.07.08. Formati 60x84$^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. Nashr. t. 12,0. Shartli b.t. 11,8.
Adadi 500. Shartnoma № 18/08. 237-sonli buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida.

«Talqin» nashriyoti, Toshkent – 100129, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

«Arnaprint» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
100182, Toshkent, H. Boyqaro ko'chasi-41.

NOZIM QOSIMOV

FOLKLOR MUSIQA IJROCHILIGI



ISBN 978-9943-325-40-1